



UDK:398.342(584.4)

Sherzod ABDUSATOROV,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, t.f.f.d., PhD
E-mail: sherzodabdusattorov2@gmail.com

TerDU Jahon tarixi kafedrası profesori v.b., t.f.d. DSc M.Fayzullayeva taqrizi asosida

SOME COMMENTS FROM THE HISTORY OF SOURCES AND LITERATURE RELATED TO THE STUDY OF TRADITIONAL UZBEK FOOD (IN THE CASE OF THE FERGANA VALLEY)

Annotation

Food and eating cultures have been formed for thousands of years in accordance with the natural and climatic conditions of the lives of each people, reflecting their national traditions. Choosing the right food and its usefulness will increase the length of a person's life and ensure the healthy development of the growing young generation.

This article presents some comments from the history of sources and literature related to food and eating culture, using the example of the Fergana Valley.

Key words: Traditional food, eating culture, hot food, cold food, food industry, confectionery, genesis of rituals, evolution.

НЕКОТОРЫЕ СУЖДЕНИЯ ПО ИСТОРИИ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ ПО ИЗУЧЕНИЮ ТРАДИЦИОННЫХ УЗБЕКСКИХ БЛЮД (НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ)

Аннотация

Культура питания и питания формировалась на протяжении тысячелетий в соответствии с природно-климатическими условиями жизни каждого народа, отражая национальные традиции народа. Выбор правильного питания и его полезности увеличит продолжительность жизни человека и обеспечит здоровое развитие подрастающего молодого поколения.

В данной статье представлены некоторые комментарии из истории источников и литературы, связанных с едой и культурой питания, на примере Ферганской долины.

Ключевые слова: Традиционная еда, культура питания, горячая пища, холодная еда, пищевая промышленность, кондитерские изделия, генезис ритуалов, эволюция.

AN'ANAVIY O'ZBEK TAOMLARINING O'RGANISHGA OID MANBALAR VA ADABIYOTLAR TARIXIDAN AYRIM MULOHAZALAR (FARG'ONA VODIYSI MISOLIDA)

Аннотация

Taomlar va taomlanish madaniyati ming yillar davomida, har bir xalq hayotining tabiiy-iqlimiy sharoitlariga mos ravishda shakllanib, xalqning milliy an'analarini o'zida aks ettirib kelgan. Taomni to'g'ri tanlash va uning foydali bo'lishi inson umring davomiyligini oshirishini hamda o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur maqolada Farg'ona vodiysi misolida taomlar va taomlanish madaniyati bilan bog'liq manbalar va adabiyotlar tarixidan ayrim mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: An'anaviy taomlar, taomlanish madaniyati, issiqlik taom, sovuqlik taom, oziq-ovqat sanoati, qandolat mahsulotlari, marosimlar genezisi, evolyutsiya.

Kirish. Taomlar va u bilan bog'liq madaniyatga oid tadqiqotlar va shu masalaga yaqin adabiyotlarni mazmuniga ko'ra quyidagicha guruhlashtirish maqsadga muvofiq: Rossiya imperiyasiga qadar bo'lgan manbalar, Rossiya imperiyasi va sovet hukumati davrida boshqa madaniyatga mansub olimlarning tub xalq moddiy madaniyati, shu jumladan, taomlari va ovqatlanish madaniyatiga doir amalga oshirgan tadqiqotlari, mahalliy millat vakillari tomonidan moddiy madaniyatni o'rganish negizidagi taomlarga oid ma'lumotlar keltirilgan adabiyotlar, taomlar alohida tadqiqot obyekti sifatida bajarilgan ishlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Birinchi guruhga kiruvchi manbalar sifatida avvalo, "Avesto"ni keltirish o'rinli. Zero, O'rta Osiyo aholisining turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan dastlabki manba – "Avesto"dir.[1] "Avesto" kitobida insonlar iste'mol qilishi zarur bo'lgan taomlar ikki turga bo'linadi: iste'mol qilish mumkin bo'lgan (yaxshi) va mumkin bo'lmagan (yomon) taomlarga bo'linadi. Odam tanasi uchun eng foydali oziq-ovqat sifatida O'rta Osiyo hududida non, bug'doy hamda boshqa donli mahsulotlar qayd qilingan.[1]

Yana manbalar sifatida Abu Ali Ibn Sino,[2] Abu Rayhon Beruniy[3], Mahmud Koshg'ariy[4], Zahridin

Muhammad Bobur[5] va Isoqhon To'ra Ibrat[6] kabilarning asarlarini ko'rsatish mumkin.

Xususan, Ibn Sino tibbiyotga oid ma'lumotlaridan tashqari, inson hayoti uchun muhim foydali oziq-ovqat, taom, o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari haqida yozib qoldirgan. Uning ma'lumotlari hozirgi davr uchun ham muhim hisoblanadi. Masalan, u shunday yozadi: "Sog'ligini saqlovchi kishi o'z ovqatining asosiy qismi sabzavotlar, mevalar va bulardan boshqa davo bo'ladigan ovqatlardan bo'lmasligiga ahamiyat bermog'i lozim. Chunki u narsalarning latiflashtirib, suyultiruvchilari qonni kuydiruvchi, g'alizlari esa balg'amni ko'paytiruvchi va a'zoga og'irlik keltiruvchidir. Shuning uchun ovqat go'shtga o'xshagan narsalardan bo'lishi, ayniqsa, uloq, buzoq va qo'zichoqlarning go'shtlaridan, toza sabzavotlardan, mijozga muvofiq shirin narsadan va yaxshi xushbo'y sharbatlardan bo'lishi lozim".[2]

Abu Rayhon Beruniyning "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari Arab xalifaligi tarkibidagi yoki u bilan qo'shni bo'lgan xalqlarning an'analariga bag'ishlangan nodir tarixiy-etnografik tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Ushbu asarda O'rta Osiyo xalqlari aholisi tomonidan nishonladigan bayramlar va taomlar haqida so'z boradi[3].

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" ("Turkiy tillar lug'ati") asari XI asr turkiylar hayoti, ularning moddiy madaniyati, kundalik hayoti, etnonimlar va toponimlar, shaharlar to'g'risida, dinga oid va boshqalar haqida qimmatli ma'lumotlar berar ekan, taomlar nomlarini ham keltirib o'tadi[4].

Zahridin Muhammad Boburning "Boburnoma" kitobi XV asr oxiri – XVI asr boshlarida O'rta Osiyo xalqlarining tarixi, turmush tarzidan tashqari Farg'ona vodiysida yetishtiriladigan dehqonchilik, bog'dorchilik va poliz mahsulotlari haqida ma'lumotlar beradi[5]. Ushbu asarda osh so'zi issiq taom ma'nosida (osh yedik, osh tortildi) tez-tez uchraydi. "Osh tortilgondin so'ng namozdigar jolaga kirduk... Bir ayog' yumdon ashi kelturdi ichtim"[5].

Ikkinchi guruhga kiruvchi adabiyotlar Rossiya imperiyasi va sovet davrida yaratilgan ishlar bo'ldi. Ular O'rta Osiyo xalqlarining hayoti va madaniyatiga qiziqish bilan qaradilar. Ya'ni boshqa xalq vakillari tomonidan mahalliy aholining turmush tarzi va madaniyati o'rganildi.

Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo bosib olingandan so'ng boshqa hududlarda bo'lgani kabi Farg'ona vodiysiga ham, o'lkani yaqindan o'rganish uchun ko'plab mutaxassislar keldilar.

Ular sirasiga P.I.Nebolsin, G.Vamberi, A.Shishov, A.Middendorf, A.P.Xoroshxin, N.S.Likoshin, N.Xanikov, I.Geyer, E.S.Vulfson, A.Ostroumov, A.D.Grebenkin, V.Nalivkin va M.Nalivkina kabilarni kiritish mumkin. Xususan, rus olimi P.Nebolsin[7] va venger olimi G.Vamberi[8] asarlari tadqiqot mavzusiga oid ma'lumotlar ko'proq uchraydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagi barcha tadqiqot ishlari birlamchi manbaviy asos sifatida xizmat qiladi, ammo ular tavsifiy xarakterga ega bo'lib, ushbu asarlarda mintaqa mahalliy aholisi hayoti va moddiy madaniyati bilan bog'liq chuqur tahlillar o'z aksini topmagan. Shunga qaramay bu ma'lumotlar qimmatlidir. Masalan, A.D.Grebenkinning[9] o'zbeklar turmush tarziga bag'ishlangan maqolasida o'sha davrda yashagan o'zbeklarning turmush tarzi, urf-odatlar, udumlari va marosimlari haqida muhim ma'lumotlar mavjud. Asar xalqning moddiy madaniyati, jumladan, taom va taomlanish an'analari haqida empirik materiallarning boyligi bilan ajralib turadi.

O'zbeklarning an'anaviy madaniyati bilan bog'liq masalalarni yanada ko'proq yoritgan olimlardan yana biri A. Shishov hisoblanadi[10].

V. Nalivkin va M. Nalivkinlar[11] ham Farg'ona vodiysining mahalliy aholisi turmush tarzini etnografik tavsiflashga katta hissa qo'shgan. Ular o'z asarlarida vodiya yashovchi o'zbeklar va tojiklar orasida to'g'ri kungacha mashhur bo'lgan mahalliy aholi taomlari: palov, shavla, sho'rva, mastava, shirguruch, shir kadi, go'ja, un oshi, chuchvara, kulchatoy, atala va hokazolarning tavsiflab berganlar. Asarda sumalakni alohida ajratib ko'rsatib, uning qanday va qachon pishirilishini tushuntirilgan[11]. Bu ma'lumotlar o'rganilayotgan tadqiqot uchun asos bo'lib xizmat qildi.

A. Middendorf, A.P. Xoroshxin va N.S. Likoshin asarlarida ham o'zbeklarning moddiy madaniyati, xususan, taomlari mavzusiga oid ayrim ma'lumotlar uchraydi[12].

O'rta Osiyo xalqlarining ovqatlanish tartibiga doir qator ma'lumotlarni N.Xanikov, P.I.Nebolsin, I.Geyer, E.S.Vulfson, A.Ostroumov[13] asarlarida ham uchratish mumkin.

Sovet davrida, aniqrog'i, XX asrning 50-70 yillar ga qadar O'rta Osiyo etnografiyasida an'anaviy xalq taomlari mavzusi yetarlicha o'rganilmagan, Farg'ona vodiysidagi o'zbeklarning hayoti va urf-odatlar bilan bog'liq holda esa bu masalalar alohida tadqiq etilmagan.

Bu davrdagi adabiyotlar sifatida O.A. Suxarevaning Buxoro shahrining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixiga bag'ishlangan asarini olish mumkin. Unda oziq-ovqat sanoati, xususan, qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishga katta o'rin ajratilganligi yozilgan[14].

O'zbekistonning turli mintaqalarida, jumladan, Farg'ona vodiysi o'zbeklarning taomlari to'g'risidagi ma'lumotlar O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari etnografiyasiga bag'ishlangan monografiyada ham tavsifiy tarzda ko'rsatilgan[15].

Xorazm aholisining milliy taomlarining ayrim turlari K.L. Zadixaning [16] ishida uchraydi. Ushbu muallif ba'zi taomlar va ularni tayyorlash tartibi to'g'risida muhim ma'lumotlar bera turib, o'zbek xalqining ovqatlanish tartibining xilma-xilligi, ya'ni unli, go'shtli, sutli va sabzavot mahsulotlaridan, shuningdek, ko'pincha baliqdan tayyorlangan taomlar iste'mol qilishlari haqida to'xtaladi[16].

Tahlil va natijalar. Bir qator ilmiy kitoblarda o'zbek taomlarini tayyorlash texnologiyasi tasvirlangan[17]. Bundan tashqari elshunos tadqiqotchilardan, B.X. Karmisheva, S.S. Gubayevalarning[18] ilmiy tadqiqotlaridan bevosita qiyosiy ma'lumot sifatida ish jarayonida foydalanish mumkin.

Uchinchi guruhga oid ilmiy adabiyotlarda garchi taom mavzusi alohida ishlamagan bo'lsa ham, ovqatlanishga doir ayrim etnografik ma'lumotlar berilgan. Bu guruhga o'zbek etnograf olimlarining ishlari kiritilgan.

Ana shunday olimlardan eng mashhuri akademik K.Sh. Shoniyozovdir. K.Sh. Shoniyozov o'zbek xalqining an'anaviy taomlarini etnografik jihatdan nisbatan mufassal o'rgangan[19]. Yana biri etnograf K. Mahmudovdir[20]. Ushbu etnograf olimning "O'zbek taniq taomlari" kitobi o'zbek xonadoni oshxonasini boyitishda bevosita xizmat qilgan ma'lumotlarga to'la asar hisoblanadi. Bu kitobga noyob va parhez xosiyatli 300 dan ko'proq taomlar kiritilgan. Shular orasida har bir fasl uchun va muayyan joylardagina tayyorlanadigan mahalliy ovqatlar, to'y va bayram dasturxonlarining ko'rki bo'lgan, hozirda esa unitilib ketgan ko'pgina taomlarning retseptlari berilgan[20]. Bundan tashqari olim I. Jabborov "O'zbek xalq etnografiyasi" kitobining "Milliy taomlar, pazandachilik va mehmonnavozlik" mavzusiga oid qismida qimmatli ma'lumotlarni qayd qilganligini aytish mumkin[21]. Ushbu bobda olim o'zbeklar oziq-ovqatlarining turlari va xususiyati, o'lkaning tabiiy sharoiti va xo'jalik xususiyatlari ta'sirida ekanligini, mahalliy etnik guruhlarining ovqatlanish madaniyati, mehmondorchiligining o'ziga xosligi bilan belgilaydi[21].

Bu borada etnolog U.S. Abdullayevning Farg'ona vodiysidagi etnoslararo munosabatlarga bag'ishlangan monografiyasi diqqatga sazovordir. Monografiyada boshqa masalalar qatori etnoslararo o'zaro ta'sir ham an'anaviy moddiy madaniyat va etnoslararo urf-odatlar kontekstida ko'rib chiqiladi. Bunda Farg'ona vodiysida yashovchi o'zbeklar va boshqa millat, elatlar tomonidan tayyorlanadigan taomlardagi inoetnik jihatlarga e'tibor qaratilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, elshunos olim U. Abdullayev etnik-aloqa hududida yashovchi xalqlar tomonidan madaniy unsurlarni aniqlash uchun boy dala ma'lumotlarini tahlil qilishga oid qiyosiy yondashuvdan foydalanadi[22].

To'rtinchi guruhga kiruvchi ilmiy adabiyotlarga, shu mavzudagi tadqiqotlar kiritilgan bo'lib, bu ko'proq mustaqillik davri bilan bog'liq.

Taomlar maxsus tadqiqot obyekti sifatida ilk bora M.B. Qurbonova tomonidan o'rganildi. Olimaning nomzodlik dissertatsiyasi Buxoro vohasidagi o'zbeklar va tojiklarning an'anaviy taomlariga bag'ishlangan. M. Qurbonovning tadqiqoti boy empirik ma'lumotlardan iborat bo'lib, unda nafaqat o'zbeklarning an'anaviy taomlari, balki, shu bilan birla taomlar bilan bog'liq bo'lgan ramzlar ham tasvirlangan.

Tadqiqot ishida qiyosiy tarixiy tahlildan keng foydalanilgani bilan ham ahamiyatlidir[23]. Afsuski, tadqiqotning xronologik doirasi XIX asr oxiri va XX asr boshlari bilan cheklangan bo'lib, taom mavzusi bilan bog'liq mustaqillik yillariga oid ma'lumotlar kirish qismida yoritilgan.

An'anaviy o'zbek taomlari bo'yicha maxsus tadqiqot sifatida M. Fayzullayevaning dissertatsiyasini ham ko'rsatish mumkin[24]. M. Fayzullayeva mazkur tadqiqot natijasi o'laroq monografiya ham nashr ettirgan[25].

Mazkur tadqiqot Surxondaryo vohasi o'zbeklarining an'anaviy taomlariga bag'ishlangan bo'lib, uning xronologik davri XX asrning birinchi yarmini o'z ichiga oladi. Ishda Surxon vohasi aholisining marosim taomlarining mahalliy ko'rinishlari aks ettirilgan bo'lsada, muallif qiyosiy tarixiy usuldan foydalanib, etnografik dala ma'lumotlari asosida o'zbek xalqining taomlanish madaniyatini yoritib bergan. Bunda etnik madaniy aloqalarning ahamiyati ham ko'rsatilgan.

M. Fayzullayeva o'z tadqiqotida dastlab taomlarning tarixiy tavsifini beradi, uning fonida taomlar bilan bog'liq marosimlar va urf-odatlarini tahlil etadi. Biroq, tadqiqotda transformatsiya jarayonlari va novatsiyalarni ko'rsatish maqsad qilinmagan.

Etnolog olim G.Sh. Zunnunovning "Toshkent o'zbeklarining moddiy madaniyati: transformatsiya jarayonlari (XX-XXI asrlar)" monografiyasida [26] ham taomlar masalasiga alohida paragraf bag'ishlangan. Ushbu tadqiqot o'zining nazariy metodologiyasi bilan ham ajralib turadi.

Bundan tashqari, ko'plab ishlarda taomlar va ular bilan bog'liq udumlar yoki marosimlarga oid ma'lumotlar keltirilgan. Shu mazmundagi ishlar ichida Farg'ona vodiysi aholisiga oid etnografik asarlar biz uchun ahamiyatli bo'ldi. Xususan, olim S. Gubayevaning monografiyasi va O'zRFA Tarix instituti Etnologiya va antropologiya bo'limi boshlig'i t.f.d.prof. A. Ashirov boshchiligida Farg'ona viloyati Mindon qishlog'ida o'tkazilgan ilmiy tadqiqot ma'lumotlari ham tahsinga sazovor[27]. Kitoblarda mintaqa aholisining etnik tarkibi, transformatsiyalashgan xo'jaligi va moddiy madaniyati to'g'risida ma'lumot beriladi. Lekin taomlarning milliy-madaniy xususiyatlari yaxlit kompleks tarzda o'rganilmagan.

Taomlar bilan bog'liq moddiy madaniyat elementlari yoki marosimlari va urf-odatlarining ma'naviy tomoni o'zbek etnolog prof. A.A. Ashirov[28] tomonidan yoritilgan. Muallif marosimlarning genezisi va evolyutsiyasini madaniyat tashuvchilarining arxaik tafakkuri bilan bog'laydi,

marosimlarning paydo bo'lishining tarixiy ildizlari orqali taom bilan bog'liq tomonlarini ochib beradi. Asarda o'zbek xalqining marosimlar tizimining asoslarini aniqlashda qiyosiy-tarixiy, ramziy-talqin usullarini mohirlik bilan qo'llanilgan.

Shuningdek, shu muallifga tegishli "Non madaniyati va urf-odatlar" nomli asari ham diqqatga sazovor. Ushbu asarda o'zbek xalqining milliy madaniyati va non bilan bog'liq an'analari tahlil qilingan[29].

Elshunos olim prof. T.O'.Salimov tomonidan yozilgan "Nurota va nurotaliklar" nomli monografiyada voha aholisining an'anaviy taomlari va taomlanish bilan bog'liq jihatlariga to'xtalib o'tiladi[30].

Mualliflar guruhi tomonidan tayyorlangan va 2011 yil Moskvada etnologiya instituti bilan hamkorlikda chop etilgan "Uzbeki"[31] (O'zbeklar) asarida ham XX – XXI asr boshlarida o'zbeklar moddiy madaniyati, xususan, taomlar va taomlanish madaniyatiga doir ma'lumotlar qayd etilgan.

Xulosa va takliflar. Keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, umuman olganda, XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida olib borilgan tarixiy-etnografik izlanishlarda mavzu yuzasidan alohida maxsus ilmiy tadqiqot amalga oshirilmagan bo'lsa ham, moddiy madaniyat bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda taomlarga oid ma'lumotlardan tadqiqot ishini yoritishda unumli foydalanildi. Olib borilgan mustamlakachilik siyosatida egallashni rejalashtirilgan hududlarga turli yo'nalishlarda harbiy-ilmiy ekspeditsiyalar o'tkazilib, nafaqat tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlarini, ayniqsa, ijtimoiy, munosabatlari, xalqning moddiy madaniyatini, jumladan, iste'mol qiladigan oziq-ovqat va taomlariga oid ma'lumotlarni to'plagan.

Mustaqillik yillarida boshqa soha ilmiy tadqiqotlari qatorida moddiy madaniyatga oid ilmiy izlanishlar ham davom ettirildi. XX asrning 90 yillarida kommunistik mafkuraning ta'siri sezilarli kamaydi. Ushbu davrdagi ko'plab tadqiqotlar uchun semantik yondashuv va ramziylik usulidagi tahlil hamda talqin xarakterli hisoblanib, ilmiy nashrlar faktlar, hodisalarni aniqroq tizimlashtirish bilan ajralib tura boshladi. O'rganish davri kengayib, XX – XXI asr boshlaridagi o'zgarishlarni ham qamrab olib boshladi.

Ko'rsatib o'tilgan adabiyotlarda moddiy madaniyat, jumladan, taom va u bilan bog'liq amaliy hamda nazariy masalalari bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar tarixiy, etnografik, madaniyatshunoslik, kulinariya sohalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, taom va u bilan bog'liq madaniyatga antropologik hamda etnologik nuqtai nazaridan e'tibor berilmagan.

ADABIYOTLAR

1. Маковельский А. О. Авеста. - Баку, 1960. – С. 86.
2. Абу Али ибн Сино. Тиб конунлари. – Тошкент, 1992. 1-жилд. – Б. 47.
3. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар 1-жилд. – Тошкент, 1957. – Б. 87-89.
4. Қошғарий М. Девону луғотит турк. 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1963. – 463 б.
5. З. М. Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. – 286 б.
6. Исҳоқхон тўра Ибрат. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2020. – 200 б.
7. Небольсин П. Очерки торговли России со странами Средней Азии. – СПб, 1856. – С. 24.
8. Вамбери Г. Путешествие в Бухару – Москва, 1886. – С. 112-174.
9. Гребенкин. А. Д. Узбеки // Русский Туркестан. Вып. II. – Москва, 1872. – С. 82.
10. Шишов А. Сарты // Сборник материалов для статистики Сырдарьинской области. Т. XI. – Ташкент, 1904. – 353 б.
11. Наливкин В., Наливкина М. Очерки быта женщин туземного оседлого населения Ферганской долины. – Казань, 1886. – 244 с.
12. Миддендорф А. Очерки Ферганской долины. – СПб, 1882; Лыкошин Н. С. Полжизни в Туркестане. Очерки быта туземного населения. – Пг, 1916.
13. Ханьков Н. Описание Бухарского ханства. – Санкт-Петербург, 1943. – С. 21-124, 129, 134, 137; Небольсин П. И. Очерки торговли России со Средней Азией, Хивой, Бухарой и Кокандом (со стороны Оренбургской линии). – Санкт-Петербург, 1856. – С. 16-17; Гейер И. Вверх по Пянджу (Путевые впечатления) // Русский Туркестан. Т. I. – Приложение к газете «Русский Туркестан», 1899. – С. 4-5; Вульфсон Э. С. Как живут сарты. - Москва, 1908. – С. 52-57; Шишов А. Пища и напитки // Таджики. – Ташкент, 1910. – С. 118-127; Сарты // Сборник материалов для

- статистики Сырдарьинской области. Т.ХІ. – Ташкент, 1904. – С.43-48; Остроумов А. Сарты. – Ташкент, 1896. С. 67-80.
14. Сухарева О. А. Позднефеодальный город Бухара конца XIX – начала XX века. – Ташкент, 1962. – С. 120-127; Сухарева О. А. Бухара конца XIX- начала XX века. (Позднефеодальный город и его население). – Москва, 1966. – С. 208-210.
 15. Народы Средней Азии и Казахстана. Т.1. – Москва, 1962. – С. 304-313.
 16. Задыхина К. Л. Узбеки дельты Амударьи // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. – Москва, 1952. - С. 372-376.
 17. Маххамов Г. М., Погосьянц А.И., Свинкин С.Н. Узбекские лепешки. – Ташкент, 1961.
 18. Шониёзов К. Ш. Узбеки – карлуки. – Ташкент, 1964. – С. 76; Кармышева Б. Х. Этнографическая группа тюрки в составе узбеков (историко – этнографические данные) // Советская этнография – Москва, 1960. №1. – С. 4-22; Жабборов И. М. Ўзбеклар: (анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). – Тошкент: Шарк, 2008. – 240 б; Губаева С. С. Население Ферганской долины в конце XIX - начале XX в. (этнокультурные процессы). – Ташкент, 1991. – 129 с.
 19. Шаниязов К. Ш. О традиционной пище узбеков // Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. – Ташкент, 1972. – С. 96-118; Шаниязов К. Ш., Исмаилов Х. М. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конца XIX — начала XX века. – Ташкент, 1981. – С. 105-121.
 20. Махмудов К. Ўзбек тансиқ таомлари. – Тошкент: Меҳнат. 1989. - 344 б.
 21. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 320 б.
 22. Абдуллаев У. С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX – XX аср бошлари). – Тошкент, 2005. – Б. 214.
 23. Курбонова М.Б. Бухоро воҳаси ўзбек ва тожикларнинг анъанавий таомлари (XIX аср охири - XX аср боши). Дис. ...тарих.фан.номзоди. – Тошкент, 1994. – 158 б.
 24. Файзуллаева М. Сурхон воҳаси аҳолисининг таомлар билан боғлиқ анъана ва маросимлари (XX асрнинг биринчи ярми) Дис. ...тарих.фан.номзоди. – Тошкент, 2010. – 163 б.
 25. Файзуллаева М. Ўзбек таомлари билан боғлиқ анъаналар. Тошкент, 2010. – 160 б; Файзуллаева М. Ўзбек миллий таомлари ва тановул маданияти. – Тошкент: “Tafakkur avlodi”, 2021., 360-б.
 26. Зуннунова Г. Ш. Материальная культура узбеков Ташкента: трансформация традиций (XX-XXI в.) Ташкент: «EXTREMUM-PRESS», 2013. – 320 с.
 27. Губаева С. С. Ферганская долина. Этнические процессы на рубеже XIX-XX вв. – Saarbrücken, 2012. – 261 с; Аширов А, Раҳматуллаев Х, Арифханова З ва бошқалар. Миндон ва миндонликлар. – Тошкент: “Yangi-nashr”, 2015, - 252 б.
 28. Аширов А. А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент, 2007. – 276 б.
 29. Аширов А. А. Нон маданияти ва урф-одатлар// “O‘zbekiston tarixi” jurnali. – Toshkent, 3/2021. – Б. 84-93.
 30. Салимов Т. Ў. Нурота ва нуроталиклар. – Тошкент: Университет, 2019. – Б. 133.
 31. Коллективная монография. Узбеки. – Москва, 2011. – 688 с.



Ixtiyor BOXODIROV,
Toshkent moliya instituti katta o'qituvchisi, t.f.f.d

O'zMU professori, t.f.d A.Yermetov taqrizi asosida

PARTICIPATION OF THE TURKESTAN MILITARY DISTRICT IN THE INTERNAL POLITICAL PROCESSES OF KHIVA KHANATE AND ITS CHARACTERISTICS

Annotation

The article describes the colonial policy of the Russian Empire in Khiva Khanate. The activity of the Turkestan military district, which was the main weapon in the colonial policy, was analyzed. It is analyzed that the military district used the fight against popular movements in Khiva to make the country even more dependent.

Key words: Corps, battalion, Cossack, khan, artillery, headquarters.

УЧАСТИЕ ТУРКЕСТАНСКОГО ВОЕННОГО ОКРУГА ВО ВНУТРИПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И ЕГО ХАРАКТЕРИСТИКА

Аннотация

В статье описывается колониальная политика Российской империи в Хивинском ханстве. Анализируется деятельность Туркестанского военного округа как главного орудия колониальной политики. Выяснилось, что военный округ использовал свою деятельность против народных движений, чтобы сделать страну еще более зависимой.

Ключевые слова: Корпус, батальон, казак, хан, артиллерия, штаб.

TURKISTON HARBIY OKRUGINING XIVA XONLIGIDAGI ICHKI SIYOSIY JARAYONLARDAGI ISHTIROKI VA UNING XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada Rossiya imperiyasining Xiva xonligida yuritgan mustamlakachilik siyosati yoritilgan. Turkiston harbiy okrugining mustamlaka siyosatidagi asosiy qurol sifatidagi faoliyati tahlil etilgan. Harbiy okrugining xalq xarakatlariga qarshi faoliyatidan mamlakatni yana ham ko'proq qaram qilishda foydalanganligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Korpus, batalion, kazak, xon, artilleriya, shtab.

Kirish. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Xiva xonligidagi siyosiy jarayonlar va ichki munosabatlarda o'lkadagi imperiya boshqaruvi va Turkiston harbiy okrugining tasiri Buxorodagiga qaraganda ham kattaroq bo'lgan. Xivada xon hokimiyati va o'zbek, turkmanlar o'rtasida solliqlar, sug'orish tarmoqlaridan foydalanish yuzasidan doimo keskinliklar kuzatilgan. Bu kurashlar asnosida harbiy okrug xonlikdagi siyosiy jarayonlarga doimiy tarzda aralashib turgan. Shu maqsadda Xiva xonligidan tortib olingan hududlarda 1873-1874 yillarda podporuchik baron fon der Ropp rahbarligida Petro-Aleksandrovsk va Nukus istehkomlari barpo etiladi[1]. XIX asr 70 yillari oxirida esa Petro-Aleksandrovsk garnizoni asosini 4-Orenburg kazaklar polki yuzliklari va 2106 kishilik 5,13-Turkiston liniya batalyonlari tashkil etgan[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, Turkiston harbiy okrugining I jahon urushidagi ishtiroki tarixi bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Tadqiq etilayotgan mavzuni o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlarni shartli ravishda 4 ta guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir: 1) Rossiya imperiyasi davrida chop etilgan manba va adabiyotlar; 2) sovet davrida nashr etilgan risola va adabiyotlar; 3) mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar; 4) xorijiy adabiyotlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda g'oyaviy-metodologik tamaoyillar va ilmiy-metodologik tamoyillarga ro'ya etilgan. Tadqiqot ishini olib borishda muammoviy, miqdoriy va qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiy-xronologik, tizimlilik kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Rossiya bosqini tufayli moddiy jihatdan katta talofat ko'rgan turkmanlar 1873 yil yozida o'z yo'qotishlarini qoplash uchun bir nechta o'zbek tumanlarini

talon-taroj qila boshlaydi. Tartibsizliklarni bostirish vazifasi Amudaryo bo'limi boshlig'i polkovnik Ivanovga yuklatiladi. Petro-Aleksandrovsk va Xivaning Toshkentdan juda uzoqligi sababli Ivanov xonlik bilan bog'liq masalalarda keng vakolatlariga ega edi. 1873 yil Ivanov aralashuvi bilan turkmanlarning o'zbek tumanlari ustiga qilgan hujumida qatnashgan Qipchoq hokimi lavozimidan chetlatildi. Ivanov turkmanlarning tartibsizliklarini bostirish uchun 1874 yil yanvarda Xo'jaylidan Xonqagacha bo'lgan hududni jazo otryadi bilan aylanib chiqadi[3]. 1877 yil yanvarda turkmanlarning yovmud, chovdur va imrali urug'lari yana talonchilik ishlarini boshlagan. Xiva xoni ularni to'xtata olmagan. 26-27 yanvarda talonchilar Amudaryo bo'limining Kegayli, Biybozor, Daukar hududlariga ham o'tgan. Biybozorga ularga qarshi 1-Orenburg kazaklar polki 4-yuzligi yuborilgan[4]. General Ivanov Xivadagi turkman talonchilarini yo'qotish uchun o'zi boshchiligida otryad tuzadi. Otryad 4 ta rota, 1 ta Orenburg yuzligi, 4 to'p, raketa stanoklari 0.5 divizionidan iborat bo'ladi[5]. Polkovnik Grotengelm Ivanovga yordamchilik qiladi. Kapitan Yanushev esa artilleriyaga mas'ul bo'ldi[6]. 1877 yil 28 yanvarda Ivanov otryadi Xiva hududiga o'tadi. 30 yanvarda esa Muhammad Raximxon II Ivanovga maktub yo'llab uning tartibsizliklarni batratat etilish maqsadida xonlik hududiga o'tganligidan juda minnatdorligini bildiradi. U turkmanlar talon-tarajidan tushadigan mablag'ni mamlakatda tartibsizliklarni oldini olish va yomon odamlarni jazolash uchun sarflashini aytadi[7]. Ivanov 29 yanvardan 6 fevralgacha Xazorap, Xonqa, Iliyali, G'azavot va Porsuda xonga bo'ysunmayotgan turkmanlarga zarba berdi. Qarshilik qilganlar otib tashlangan[8].

Harbiy okrug qo'shinlarining yordamlari evaziga 1880 yil xon minnatdorlik bildirish va mustamlaka boshqaruvi o'z hayrixohligini ko'rsatish maqsadida (aslida majbur ham edi) Skobelev ekspeditsiyasi davrida yordam so'rab kelgan turkmanlarga rad javobini berib, ularga rus imperatoriga bo'ysunishini maslahat bergan. Hattoki Muhammad Raximxon II 1881 yil martda Axaltaka vodiysidagi muvaffaqiyatdan so'ng Petro-Aleksandrovskga qaytayotgan Turkiston otryadini shaxsan tabriklab ularni o'zining yozgi saroyiga joylashtiradi[9].

1881 yil yozida Marv turkmanlari Muhammad Rahimxon II dan o'zlariga hokim yuborishini so'raydi. Xon Toshkent va Amudaryo bo'limi boshlig'i polkovnik Aleksandr fon Grotengelm (1877-1887) roziligi bilan 1881 yil Yusufbekni Marvga yuboradi. U vafot etgach okrug qo'mondoni general M.G.Chernyayev (1882-1884) ruxsati bilan xon 1882 yil Abdurahmonbekni, so'ngra 1883 yil Otajonbekni hokimlikga tayinlaydi. Chernyayev Marvga Turkiston qo'shinlarini yuborishdan avval uning Turkiston tasiridagi Xiva xonligiga bo'ysundirib turishni maqsad qilgan edi. Ammo Marv masalasida omad Turkiston yoki Xivaga emas Rossiyaning Kavkaz noibligiga kulib boqadi. 1884 yil martda Marv turkmanlari o'z ixtiyorlari bilan rus fuqoroligini oladi. Hudud esa Turkistonga emas Kavkaz noibligi tarkibidagi Kaspiyorti viloyatiga qo'shib olinadi. Otajonbek esa Xivaga qochib ketadi[10]. Shu tariqa Chernyayevning Marvni Xiva orqali o'z tasir doirasida saqlab turishga intilishi muvaffaqiyatsiz tugaydi.

Shu o'rinda qayd etish joizki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligida nisbatan osoyishtalik kuzatiladi. Xonlikda navbatdagi kuchli xalq harakatlari XX asrning ikkinchi o'n yilligiga to'g'ri keladi. Bu davrda ham xon hokimiyati joniga okrug qo'shinlari oro kirgan. 1912 yil Asfandiyorxonning (1910-1918) turkmanlardan olinadigan soliqlar miqdorini oshirishi sababli ular orasida qo'zg'olon yuzaga keliadi. 1912 yil dekabrda turkmanlar Taxta, Toshovuz va boshqa hududlarni talon-taroj qila boshlaydilar. Xon isyonchilarga qarshi Shoxnazarbek yasovulboshini qo'shin bilan yuboradi. Ammo turkmanlar Taxta va Iliali oralig'ida mustahkam o'rnatilib oladilar. Vaziyatga Amudaryo bo'limi boshlig'i polkovnik N.S.Likoshin (1912-1914) aralashadi. U kazaklar hamrohligida Xivaga keladi va xonlik askarlari uchun o'q-dorilar yetkazib beradi. 1913 yil 25 yanvarda bosh vazir Islomxo'ja Likoshin yordamida Ko'hna Urganchda turkmanlar bilan tinchlik bitimi imzolaydi. Unga ko'ra xon yangi soliqlardan voz kechadi, turkmanlardan esa 198 000 rubl jarima undiriladi[11]. 12 fevralda Likoshin va kazaklar Petro-Aleksandrovskga qaytadi.

1913 yil xonlikda mavqei katta va islohotlar tarafdori bo'lgan bosh vazir Islomxo'ja yollanma qotillar tomonidan o'ldirilganidan so'ng saroyda ig'vo va fitnalarga avj oladi. Yangi bosh vazir Matvafo, Shoxnazar yasovulboshi, Husaynbek, Ashur mahramlar saroydagi siyosiy o'yinlar markazida bo'lishgan. Ular Asfandiyorxon bilan yetakchi turkman urug'lari orasida nizo keltirib chiqarib xon hokimiyatini o'z tasirlariga olishga harakat qiladilar. Islomxo'janing o'ldirilishida xon, aka-uka Matmurdoqlar, Matvafo Baqqolov va bevosita Amudaryo bo'limi boshlig'ining qo'li bo'lgan. 1914 yil Amudaryo bo'limi boshlig'i polkovnik Kolosovskiyning (1914-1916) THO Bosh qo'mondoniga yuborgan axborotida shunday deyilgan: "Bizning Xiva xonligidagi fitnalarga aralashuvimiz va xon saroyidagi devonbegilar guruhini (sobiq bosh vazir Matmurud devonbegining o'g'illari Xusaynbek, Shaxnazarbek, Omangaldi, Nazarbek) tiklashimiz Islomxo'janing o'limiga olib kelgan sabablardanidir"[12]. Asfandiyorxon va uning atrofidagilar Islomxo'janing o'limida xonning qo'li borligini imperiya hukumatidan sir saqlashga harakat qilganlar. Ular shu maqsadda pora berishni kuchaytirishgan. Asfandiyorxon

Bosh Shtabning Osiyo bo'limi boshlig'i Seylga 200 000 rubl pora bergan[13]. 1914 yil avgustda harbiy vazir Suxomlinovga 40 000 rubl, noyabrda Kolosovskiy orqali Sirdaryo viloyati gubernatori Galkinga 3000 rubl, 1915 yil dekabrda THO qo'mondoni F.V.Martsonga (1914-1916) 10 000 rubl yuborilgan[14]. Asfandiyorxon pora berish orqali xonlikdagi xalq harakatlari vaqtida metropoliya harbiy kuchlaridan yordam olishni ham umid qilardi.

1915 yil martda Asfandiyorxonning yovmutlar yetakchilaridan biri Shohmurod baxshini qamoqqa olganidan so'ng turkmanlar yana isyon ko'tardilar. 22-martda ular Junaidxon boshchiligida Xivaga hujum boshlab, aprelda bir necha xonlik shaharlarini egallaydilar. Polkovnik Kolosovskiy og'ir ahvolda qolgan xonga Shoxmurod baxshini ozod qilishini, agar zarurat tug'iladigan bo'lsa Petro-Aleksandrovskdan boshpana topishi mumkinligi ma'lum qilgan. 1915 yil mayda xon qo'zg'olonni boshqarishga yordam so'rab Toshkentga elchi yuboradi. Harbiy vazir Suxomlinovning buyrug'i bilan Xivaga 3000 ta so'nggi rusdagi multiqlar yuboriladi. Ammo Martson Xivani qurollantirishga qarshi bo'lib yordamni Chorjo'yda to'xtatib qo'yadi[15]. 8 mayda Suxomlinov Kolosovskiyga, so'ngra Martsonga qo'zg'olonni qurol kuchi bilan bostirishni buyuradi. Ammo turkmanlar bilan harbiy mojaroga borishni xohlamagan va xonga ko'maklashish ishtiyoqida yonmayotgan Martson bu ko'rsatmalarga e'tibor bermay harbiy yordamni ushlab turishda davom etdi[16]. Martson Xivaga yuborilgan yordam borasida kelib chiqqan muammoni 1915 yil iyunda Germaniya foydasiga xoinlikda ayblangan polkovnik Myasoedov bilan aloqadorlikda lavozimidan olingan Suxomlinov zimmasiga ag'darishga harakat qilgan [17]. Nihoyat 1915 yil iyunda Martson Sirdaryo viloyati gubernatorining yordamchisi general Geppenerni 4 ta pulemyot, 4 ta to'p, 2 rota askar va kazaklar yuzligi bilan Xivaga yuboradi. Geppener xonlikdagi muammolarga xon hukumatidagi ayrim amaldorlar sababchi degan xulosaga keladi va ularni hukumatdan chetlatish choralarini ko'radi. Geppener talabi bilan Shoxnazar yasovulboshi Chimkentga, Ashur mahram Avliyotaga badarg'a qilinadi[18]. Matvafo esa bosh vazir lavozimiga tiklanadi. Xon saroyida Matvafodek fitnachi va siyosiy og'machi shaxsning bo'lishi rus mustamlakachilariga juda zarur bo'lgan. 30 iyunda Geppener vositachiligida xon bilan turkmanlar o'rtasida bitim imzolandi. Asfandiyorxon soliqlarni kamaytirishga rozi bo'ladi.

Aslida Martson ham va Geppener ham turkmanlar masalasi to'la hal bo'lishiga juda intilmagan. Chunki Martson Xivani anneskiya qilishni muammoning yechimi deb hisoblagan. U 1915 yil sentabrda Petrogradni Xivaning "yarim mustaqilligini" tugatishga chaqiradi. Ammo tashqi ishlar vaziri S.Sazanov ayni vaqt Buxoro va Xiva xonligini tugatish uchun qulay emasligini bildirgan[9].

Lekin 1916 yilgi turkmanlar qo'zg'olonining juda kuchli bo'lganligi okrug qo'mondoni Martsonni o'zining turkmanlar harakatiga toqat qilish, ularni xon bilan kelishtirish siyosatini qayta ko'rib chiqishga majbur qilgan. U turkmanlar masalasini hal qilmayotganligi uchun Sazanov va yangi harbiy vazir general A.A.Polivanovdan (1915. iyun – 1916. mart) qattiq ogohlantirish ham olgandi. Natijada general Martson turkmanlarga jiddiy saboq berib qo'yishga qaror qiladi.

1916 yil yanvarda xonlikdagi vaziyatdan norozi bo'lgan 300 nafardan ziyod Xo'jayli, Qiyot, Gurlan, Mang'it beklklarining ko'zga ko'ringan vakillari Asfandiyorxon bilan uchrashish uchun Xiva tomon yuradilar. Ammo ular Amudaryo bo'limi qo'shinlari qarshiligiga uchraydi. 19-yanvarda polkovnik Goloshevskiy otryadi namoyishchilarni tarqatib yuboradi. Namoyish yetakchilari qamoqqa olinadi. Vaziyatga Junaidxon aralashadi. 1916 yil yanvarda Junaidxon qamoqqa olinganlarni ozod qilishni talab qilib 3000 otlig askar

bilan Xiva yaqiniga keladi. Ikki o'rtadagi muzokaralar besamar kechadi. Qil ustida qolgan xonning taqdiri THO qo'shinlarining yordamiga bog'liq bo'lib qoladi. Amudaryo bo'limi boshligi Kolosovskiy Xivadagi rus garnizoniga shaharni, xon saroyini, pochta idorasi, kasalxona va shahardagi barcha rus fuqorolarini qo'riqlashni buyuradi. Xon Kolosovskiyga Xivada muhim masalalar bo'yicha mustaqil qaror chiqarish vakolatini beradi. 1916 yil 22 yanvarda Kolosovskiyning iltimosiga binoan general Martson Petro-Aleksandrovskdan Yangi Urganch va Xonqaga Turkmanlarning hujumidan himoyalanih uchun 1 tadan rota joylashtirishga ruxsat beradi[20]. Rus qo'shinlarini yenga olmasligini anglagan Junayidxon 23 yanvarda ortiga qaytib ketadi. Bundan juda xursand bo'lgan xon Xivadagi barcha rus askarlarini "katta xizmatlari uchun" qiymati 13 635 rubllik kalta po'stinlar bilan taqdirlaydi[21].

Xonlikda o'rnatilgan tartib uzoqqa cho'zilmaydi. 1916 yil fevral boshida Junaidxon qaytadan Xiva xonligiga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yuboradi. Bu safar Asfandiyorxonning boshqaruvidan norozi bo'lgan xonlikdagi o'zbeklar ham Junaidxonni qo'llab-quvvatlaydi. Qo'zg'olonchilar soni 10 000 kishidan oshadi. Ularning 6000 ga yaqinida o'qotar qurollar mavjud edi[22]. Tez orada Toshxovuz, Shohobod, Qiyot, Gurlan, G'azavot, Qilichboy, Mang'it shaharlari qo'zg'olonchilar qo'lga o'tadi. 1916 yil 4 fevralda polkovnik Kolosovskiy okrug qo'mondoni Martsonga telegramma orqali vaziyat jiddiyligini, bazi turkman guruhlari Petro-Aleksandrovskga ham hujum qilish ehtimoli borligini aytadi. 10 fevralda Junaidxon Xivani qamal qiladi. Asfandiyorxon tang ahvolda qoladi. Buni 12 fevralda Kolosovskiyning Martsonga yo'llagan telegrammasi mazmunidan bilsak ham bo'ladi: "Hozirgi fusatda xon har qanday ahamiyatini yo'qotdi. Xiva hududida amalda faqat ikkita hokimiyat – Junaidxon hokimiyati va rus askarlari tomonidan quvvatlanayotgan mening hokimiyatim qoldi holos"[23]. Bu vaqtda Xiva shahridagi okrug qo'shinlari 4 ta rota, 4 ta zambarak va 480 ta snaryadga ega artilleriya vuzvodidan iborat bo'lgan[24]. Asfandiyorxon o'z hokimiyati va Xivani mudofaa qilishi uchun polkovnik Kolosovskiyga darhol 19 000 rubl to'laydi[25].

1916 yil 13 fevralda Junaidxon Xivani egalladi. U xon hokimiyatiga daxl qilmay undan 60 000 rubl tovon puli oladi, bosh vazir Matvafo esa qatl etiladi[26]. Xivadagi janglarda Kolosovskiy otryadidan 5 kishi halok bo'lib, 20 nafari askar yaralanadi[27]. Junaidxonning Xivani egallashi tufayli Rossiya imperiyaning Xiva xonligi, Amudaryo bo'limi va Kaspiyortidagi hukmronligiga katta xavf tug'ila boshlaydi. 14 fevralda THO shtabi boshlig'i D.N.Boronets turkmanlar qo'zg'olonining Kaspiyortiga ham tarqalib ketishidan xavfsirab xonlikdagi isyonni zudlik bilan bostirish zarurligi haqida buyruq beradi. Toshkentdan Kolosovskiyga yordam uchun Sirdaryo viloyati gubernatori general Galkin yuboriladi.

14-fevralda Galkin Urganch va Gurlanga yaqinlashganidan xabar topgan qo'zg'olonchilar Xiva shahrini

tark eta boshlaydi. 15 fevralda general Galkin 2 rota askar bilan Xivaga yetib keladi va Kolosovskiy otryadi bilan qo'shiladi. Bundan tashqari general Galkin Samarqanddagi general Maydelga Xivadagi otryadni yana 3 ta drujinda va 4 ta artilleriya to'pi bilan kuchaytirishni buyuradi[28]. Galkinnig Xivaga kelishi harbiy muvozanatni harbiy okrug qo'shinlari tomoniga og'diradi. Junaidxon omon qolish maqsadida Eronga o'tib ketish harakatiga tushadi. THO bosh qo'mondoning buyrug'i bilan Junaidxonni yo'lini to'sish va qo'lga olish uchun polkovnik Kadrzay boshchiligidagi 2 ta kazak yuzligi va turkman eskadroni Kaspiyorti-Eron chegarasiga yuborilgan[29]. Ammo Junayidxon 1916 yil aprel oyida taka turkmanlari yordamida Eronga o'tib ketishga muvaffaq bo'lgan.

Mart oyida isyonchilarni jazolash, yaqin kelajakda xon hokimiyati va rus hukmronligiga daxl qilmasliklari uchun turkmanlarning harbiy qudratiga zarba berish maqsadida Xiva turkmanlari ustiga Galkin boshchiligidagi 5 rota, 16 ta to'p, 5 ta kazak yuzligidan iborat jazo ekspeditsiyasi yuboriladi. Jazo ekspeditsiyasi 16 martda G'ozibodni, 20 martda Taxta qal'asini egallaydi. Galkin Taxtada 14 aprelgacha turadi. Turkmanlarni kuchsizlantirish maqsadida ularning qo'lidagi barcha qurol-yarog'ni tortib olishga katta e'tibor qaratiladi. 1916 yil 30 martgacha 1500 miltiq, 18 000 o'q musodara qilindi[30]. 14 aprelgacha tortib olingan miltiqlar 2162 taga, o'q-dorilar 25 000 taga yetadi[31]. Jazo ekspeditsiyasi Ko'hna va Yangi Urganch, Gurlan, Toshxovuz orqali harakatlanib 4-may kuni Xivaga qaytib ketadi. 4-mayga qadar okrug qo'shinlari mag'lub bo'lgan turkmanlardan 6000 ta o'tochar qurol (3500 tasi berdanka miltig'i), 1 mln. rubldan ortiq pulni musodara etadi[32].

Xiva xonligidagi 1915–1916 yillar dagi voqealar natijasi shu bo'ldiki mamlakatda amalda hokimiyat Turkiston general-gubernatorligi va okrug qo'shinlari qo'lga o'tib ketadi. Buni Asfandiyorxonning tarjimoni Kornilov ham o'z yozishmalarida qayd etgan: "Avvalo xonlikni Matvafo bilan Kolosovskiy boshqara boshladi. Geppener kelgach u ham mamlakatning boshqaruvchisi hisoblandi. Keyin Galkin keldi va xonlikni boshqarish uning qo'lga o'tdi"[33].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston harbiy okrugining Xiva xonligidagi siyosiy jarayonlarga aralshuvi shunga olib keldiki xonlikning mamlakat ichki ishlaridagi mustaqilligi ham nomigagina bo'lib qoladi. Endi bu mamlakatdagi mavjud tuzumning qanday davom etishi Turkistonning harbiy va siyosiy yodamiga bog'liq edi. 1917 yil Amudaryo bo'limi boshlig'i A.O.Zavitnev Kuropatkinga Xivadagi mavjud vaziyat haqida yuborgan ma'lumotnomasida: "Hozir hammasi avvalgidek qolgan, xonga nisbatan xalqning nafrati yanada kuchaygan. Faqat bir narsa amalga oshirildi, bu rus quroli kuchiga qo'rquv va ishonch uyg'otildi. Hozircha faqat shungagina suyanish mumkin" deb ta'kidlagan.

ADABIYOTLAR

1. O'zMA, 1396-fond, 2-ro'yxat, 481-yig'ma jild, 1-4-varaqlar.
2. MacGregor C. The defence of India: a strategical study. – Simla, 1884. – P. 30.
3. Seymour Becker. Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva. – New-York, 2004. - P. 64.
4. O'zMA, 1396-fond, 2-ro'yxat, 102-yig'ma jild, 8-9-varaqlar.
5. O'zMA, 1396-fond, 2-ro'yxat, 102-yig'ma jild, 21-varaq.
6. O'zMA, 1396-fond, 2-ro'yxat, 102-yig'ma jild, 44-varaq.
7. O'zMA, 1396-fond, 2-ro'yxat, 102-yig'ma jild, 35-varaq.
8. O'zMA, 1396-fond, 2-ro'yxat, 102-yig'ma jild, 15-varaq.
9. Seymour Becker. Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva. – New-York, 2004. - P. 79.
10. Seymour Becker. Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva. – New-York, 2004. – P. 80.
11. Seymour Becker. Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva. – New-York, 2004. – P. 180-181.
12. O'zMA. I-2-fond, 1-ro'yxat, 352-yig'ma jild, 65-varaq.
13. O'zMA. I-461-fond, 1-ro'yxat, 1899a-yig'ma jild, 7-varaq.

14. Федоров Е. Очерки национально-освободительного движения в Средней Азии. – Ташкент, 1925. – С. 49.
15. Федоров Е. Очерки национально-освободительного движения в Средней Азии. – Ташкент, 1925. – С. 50.
16. Seymour Becker. Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva. – New-York, 2004. - P. 182.
17. Федоров Е. Очерки национально-освободительного движения в Средней Азии. – Ташкент, 1925. – С. 50.
18. O'zMA, 2-I-fond, 2-ro'uxat, 546-yig'ma jild, 153-154-varaqlar.
19. Seymour Becker. Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva. – New-York, 2004. - P. 183.
20. O'zMA, 2-I-fond, 2-ro'uxat, 546-yig'ma jild, 19-varaq.
21. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмда ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Т., 2007. – Б. 231.
22. Отегенов Х.М. Хива хонлиги ва Амударё бўлимидаги 1916-йилги халқ кўзғолонлари. Тар. фан. бўй. фал. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Нукус, 2020. – Б. 16.
23. O'zMA, 2-I-fond, 2-ro'uxat, 546-yig'ma jild, 89-varaq.
24. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмда ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Т., 2007. – Б. 231.
25. Отегенов Х.М. Хива хонлиги ва Амударё бўлимидаги 1916-йилги халқ кўзғолонлари. Тар. фан. бўй. фал. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Нукус, 2020. – Б. 16.
26. Seymour Becker. Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva. – New-York, 2004. - P. 184.
27. Бабаджанов Б.М., Котюкова Т.В. Туркестан в имперской политике России. – Москва, 2016. – С. 117.
28. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмда ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Т., 2007. – Б. 236.
29. O'zMA, 2-I-fond, 2-ro'uxat, 546-yig'ma jild, 121-varaq.
30. O'zMA, 2-I-fond, 2-ro'uxat, 546-yig'ma jild, 141-varaq.
31. O'zMA, 2-I-fond, 2-ro'uxat, 546-yig'ma jild, 151-varaq.
32. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмда ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Т., 2007. – Б. 240.
33. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмда ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Т., 2007. – Б. 254.



Ziyovutdin ILHOMOV,

Toshkent davlat pedagogika universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasida t.f.n., professor

E-mail: tarix.kafedra@mail.ru

TDPU (PhD) J.Yakobjanov taqrizi asosida

QUESTIONS OF ORAL HISTORY IN THE WORK OF MIRZO MUHAMMAD HAIDAR "TARIHI RASHIDI"

Annotation

This article discusses the issues of historiography and source studies of the Middle Ages in Central Asia. Some theoretical issues of historical science are studied in the work "Tarihi Rashidi" by Mirzo Muhammad Haidar, especially the issues of oral history in historiography and source studies.

Key words: History, historiography, source studies, historiography, sources, isoric science, theoretical issues, research, oral history, facts.

ВОПРОСЫ УСТНОЙ ИСТОРИИ В ТРУДЕ МИРЗО МУХАММАДА ХАЙДАРА "ТАРИХИ РАШИДИ"

Аннотация

В этой статье рассматриваются вопросы историописания и источниковедения средних веков в Средней Азии. Изучаются некоторые теоретические вопросы исторической науки в труде «Тариhi Рашиди» Мирзо Мухаммеда Хайдара, особенно вопросы устной истории в историописании и источниковедении.

Ключевые слова: История, историописания, источниковедения, историография, источники, историческая наука, теоретические вопросы, исследование, устная история, факты.

MIRZO MUHAMMAD HAYDARNING "TARIHI RASHIDIY" ASARIDA OG'ZAKI TARIX TADQIQOTLARI

Аннотация

Mazkur maqolada O'rta Osiyoning o'rta asrlardagi tarixnavisligi, manbashunosligi masalalari haqida so'z yuritiladi. Unda Mirzo Muhammad Haydarning "Tarihi Rashidiy" asarida tarix fanining ayrim nazariy masalalari, shuningdek, og'zaki tarix tadqiqotlari masalalari va uning ayrim jihatlarining tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Tarix, tarixnavislik, manbashunoslik, tarixshunoslik, manbalar, tarix fani, nazariy masalalar, tadqiqotlar, og'zaki tarix, dalillar.

Kirish. O'rta Osiyoning o'rta asrlardagi tarixi, davlatchiligi, iqtisodi, etnik va madaniy-ma'naviy sohalardagi jarayonlarini yoritib beruvchi tarix asarlari va ularning yaratilishi, tarixnavislik xususiyatlari o'ziga xos maktablarning shakllanishini ta'minlab berdi. XX asr boshlariga qadar rivojlanishda davom etgan Qo'qon tarixnavislik maktabi, Toshkent tarixnavislik maktabi, Buxoro xonligi va amirligi davrida yaratilgan tarixiy asarlar, Xorazm tarixnavisligi shular jumlasidandir. Bu davrlar mualliflari tomonidan tarix asarlarining yaratilishida har bir muallif tomonidan o'zi keltirib o'tayotgan ma'lumotlarning yozma manbalarga va dalillarga qat'iy ravishda asoslanishiga juda katta e'tibor qaratilganligi asarning yaratilishidagi ustuvor omil hisoblanadi, ko'p hollarda manbalarning yoki ulardagi axborotning yetishmasligi bu jarayonda og'zaki tarix tadqiqotlaridan ham keng ravishda foydalanilganligini ko'rsatib o'tish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy tarix fani tushunchalari bilan qaraydigan bo'lsak, tadqiqot jarayonida keltirilgan voqealar va ularning tafsilotlari manbalar asosida, dalillar bilan mustahkamlangan holda ilgari surilishi, asoslab berilishi talab etiladi, aks holda keltirilgan ma'lumotlar yoki xulosalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lmaydigan mumkin. Bunda albatta barcha davrlarda bo'lgani kabi, manbalar va ularda keltirilgan ma'lumotlar, ularning ishonchligi muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, og'zaki tarix tarix fanining nisbatan yangi ilmiy yo'nalishi bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadallik bilan rivojlana boshladi. Zamonaviy tarix fanida og'zaki tarixga bir qator ta'riflar beriladi, xususan, og'zaki tarix ilmiy fan sanalib, uning yordamida (yoki tadqiqot doirasida)

og'zaki axborot olish orqali alohida shaxslarning o'tmish haqidagi subyektiv qarashlari qayd etiladi. Yana boshqa tushunchaga ko'ra, og'zaki tarix voqealar va jarayonlarning ishtirokchilari yoki guvohlarining og'zaki axborotlarining mutaxassislar tomonidan ilmiy jihatdan umumlashtirilishidir. Uchinchi bir ta'rifga ko'ra, og'zaki tarix bu - bo'lib o'tgan voqealar ishtirokchilarining shaxsiy xotiralari va tajribalarini o'tmish haqidagi ma'lumotlarni qayd etish va saqlab qo'yish maqsadida tashkiliy metodik jihatdan amalga oshiriladigan ilmiy faoliyatdir [1]. Shularni inobatga oladigan bo'lsak, Boburning o'z asarini yozishida og'zaki tarix masalalari ustuvor yondashuv bo'lganligini ko'rish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. XVI asrda yashab ijod qilgan va tarixnavislik sohasida birmuncha mukammal natijalarga erisha olgan tarixchilardan biri Mirzo Muhammad Haydar bo'lib, uning bugungi kunlarga ikkita yirik asari yetib kelgan. Muhammad Haydar mashhur «Tarihi Rashidiy» tarixiy asarining va «Jahonnoma» nomli geografiyaga oid turkiy she'riy risola muallifi. Muhammad Haydar Mirzoning «Tarihi Rashidiy» asari XV asrning ikkinchi yarmi - XVI asrda Markaziy Osiyoda va Yaqin Sharqda bo'lib o'tgan tarixiy voqealarni adolat mezonlari asosida yoritgani, muallifning o'zi tasvirlagan voqealar yuzasidan teran fikr-mushohadalarni ifodalagani ayni haqiqatdir [2]. Shuning uchun ham biz eng avval tarixnavis, sarkarda hamda o'z zamonining yirik davlat arbobi sifatida tanimimiz [3].

Muhammad Haydar Mirzoning «Tarihi Rashidiy» asari 1541-1546 yillarda yozilgan. Haydar Mirzo o'z kitobiga «Tarihi Rashidiy» deb nom qo'ygan. Kitob Sulton Saidxonning o'g'li Abdurashidxon nomiga bitilgan [3].

Muhammad Hadar Mirzo o'zining tarixiy asarini yozish jarayonida bayon etmoqchi bo'lgan voqealar haqida uzoq vaqt mobaynida ma'lumotlar to'plaganligini, ayniqsa, kitobning ikkinchi qismida mo'g'ul onlari tarixining bayoni yoritilgan fasllarni tayyorlash jarayonida ko'p marotaba ana shunday og'zaki eshitgan voqealarini o'sha davrda mavjud bo'lgan tarixnavislarining asarlari bilan tekshirgan holda kitobiga jalb etganligi haqida yozib o'tadi. Ayni vaqtda o'zini o'ta darajada kamtarona tavsiflab, har bir yozilayotgan ma'lumotlarning o'ta mas'uliyat bilan saralab olinanligi va shundan so'nggina uni qabul qilganligini ham ta'kidlab o'tadi.

“Alloh qullari ichida eng faqiri Muhammad Haydar, do'stlari orasida Mirzo Muhammad Haydar ibn Muhammad Husayn ko'ragon (Alloh uniyam, otasiniyam mag'firat qilsin) nomi bilan tanilgan kimsa zukko, talabchan kishilar oldida shuni ma'lum qilamanki, mening qalbimda ham, shuurimda ham allaqachon bitta fikr muhrlangan, ya'ni yuksak e'tiborli, bilimli xotirnavislarining ulug'vorligi shu darajadagi, bu faqir banda unday yuksaklikka hatto yaqinlasholmayman ham, men g'urur to'foni va jaholat to'liqini aqlsizlik daryosidan iqtidorsizlik sohliga chiqarib tashlagan bir parcha sopolga o'xshayman. Bunday odamning fazilat va kamolot dengizidagi ichi nasr va nazm marvaridlariga to'la mukammallik sadafiga ega bo'lgan g'avvoslar oldida qanchalik qimmat bo'lsin! Ammo ayrim mo'g'ul xoqonlari hayoti sahifalarida ular bilan bog'liq voqealar haqida hech narsa saqlanib qolmaganligi tufayli ular to'g'risida odamlar xotirasida hech narsa qolmaydi, degan fikrga borib bularni yozdim” [4].

Muhammad Haydar mirzo mo'g'ul xonlari tarixini yozishga kirishar ekan ma'lumotlarning nihoyatda ozligi va ayniqsa mavjud ma'lumotlarning ham asar yozilayotgan vaqtga kelgan davr oralig'ida o'sha zamon tarixnavislari tomonidan yana qo'shimcha ma'lumotlarning qo'shib borilishi natijasida bir qator ma'lum asarlarni yana boshqa manbalar asosida qayta taftish qilish zarurati yuzaga kelib qolganligi haqidagi fikrlarini ham bildirib o'tadi.

“Shularni hisobga olib, «ehtiyoj taqiqni bilmaydi» degan hikmatga amal qilgan holda, vaqt imkoniga qarab men mo'g'ul xoqonlarining qilgan ishlaridan eng aniqqlarini, bayon qilish zarur bo'lganlarini qalamga olaman, zero ilgari zamonlarda hurmatli xotirnavislar ham o'z asarlarini o'zlaridan oldingi bitiklar asosida yozib, ularga pinhoniylilik maskanidan zohiriy olamga ko'chirilgan narsalarni qo'shishgan. Mo'g'uliston gullab-yashnagan davrda u yerda olimlar va kamolotga erishgan odamlar ko'p bo'lgan, ehtimol ular tarix va boshqa asarlar bitishgan. Mana endi oradan yuz yil o'tgach, na o'sha odamlardan darak bor, na ular, ehtimol, yaratgan asarlar haqida ma'lumotlar bor” [4].

Muhammad Haydar mirzoning o'zi ham hukmdorlar oilasidan bo'lganligi sababli uning yoshligidan ta'lim olishi va ayniqsa o'ta-bobolari tarixini mukammal bilishi uchun barcha sharoitlar yaratilib, asosan otasi va amakisi tomonidan bu haqda juda ko'plab voqealarni eshitganligini asarni yozish davomida bir necha bor qayd etib o'tadi. -“ Otam ham, amakim ham [5] (Alloh ularni rahmatiga olgan bo'lsin) mo'g'ul xoqonlarining ishleri haqida o'z otalaridan va ishonchli og'izlardan eshitganlarini aytib berishardi. Endi esa qancha zamonlar o'tdi, ularning barchasi olamdan o'tib ketishdi, mening nochor miyamga mo'g'ullar islomni qabul qilganlaridan keyin ular haqida tarixiy asarlarda nima bitilgan bo'lsa, bularga ishonchli kishilardan eshitganlarimni va kamina o'z ko'zim bilan ko'rganlarimni qo'shish fikri o'rnatish oldi (Ilohim ishim Allohga ma'qul bo'lsin). Shu bilan birga, men qobiliyatsizligim va o'zligim tufayli bu ulkan ishni maromiga yetkazib bajara olishimga o'zimdagi ishonch paydo qilolmasdim, ammo sinov uchun avval ko'z oldimda sodir bo'lgan voqealarni bayon etishga qaror qildim. Kaminaning hayotim asosan mo'g'ul xoqonlari bilan bog'liq kechganligi bois tasvir jarayonida ularning tarixlari haqida

ham to'xtalamizki, bu narsa ushbu asarning asosiy maqsadi hisoblanadi” [4]. Shunga qaramasdan, ayni asarni yozish vaqt kelganda esa yoshligida eshitgan voqealar tafsilotlarini boshqa manbalar bilan solishtirish, o'sha og'zaki bayon etilgan tarixiy jarayonlar to'g'risidagi tafsilotlarni yana boshqa xotirnavislardan eshitishga ehtiyoj tug'ilgani, biroq bu imkonsiz bo'lib, asosan mavjud qo'lyozma manbalarga murojaaaat qilganligini ko'rsatib o'tadi.

“Mo'g'ullar islomni qabul qilganlaridan keyingi davr haqida, bu yerda obodonlikning mahv bo'lishigacha nimalar yuz berganligi haqida ham tarixiy asar yo'q. Movarounnahr, Xuroson va Iroq olimlari o'z hukmdorlari uchun yozgan tarixiy asarlarida mo'g'ul xoqonlari haqida tasvir talab qilgan o'rinlardagina to'xtalganlar, voqealar o'rni va mazmuni talab qilmasa, ularga diqqatni qaratmaganlar. Bunday asarlar sirasiga Xoja Rashiddin Fazlullohning «Jomi' at-tavorix», Xoja Hamidulloh Mustavfiyning «Tarixi guzida» [6], Mavlono Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» [7], Mavlono Abdurazzoqning «Tarixi manzum» («Matla'i sa'dayn va majmai bahrayn») [8], Mirzo Ulug'bekning «Ulusi arbaa» («To'rt ulus tarixi») [9] va boshqalar kiradi – ularning har birida mo'g'ul xonlari haqida uncha-muncha ma'lumot bor, ammo bundan maqsadga to'liq erishib bo'lmaydi. Alloh bandalarining ushbu eng faqirida yoshlik paytidan boshlab ajdodlarimizning qilgan ishleri haqida bilishga jo'shqin intilish bo'lgan. O'sha paytda mo'g'ul amir va amaldorlaridan faqat keksalarigina qolgan bo'lib, ularning yoshlari yuz atrofida, hatto undan ham oshgan edi” [4].

Shu tariqa Muhammad Haydar mirzo tarix asarni yozishga kirishib, bunda ko'proq og'zaki tarix materiallariga ham kata o'rin berilganligini ko'p bora ta'kidlab o'tadi. Bu xaqda kitobning birinchi qismida ham buning sabablarini quyidagi ko'rsatib o'tadi: – “Chingizxonda to Tug'luq Temurxonigacha bo'lgan mo'g'ul xonlarining va mo'g'ul qavining tarixi tarixiy kitoblarda saqlangan bo'lsada, biroq Tug'luq Temurxondan keyingi hukmronlik qilgan xonlar haqida u kitoblarda hech narsa yo'q. To'g'rirog'i gap o'sha xonlarga yetganda, tarixchilar ularning hayotlarini yuzakigina yoritib ketishgan xolos” [3].

“Tarixi Rashidiy” kitobining birinchi qismiga yakun yasalar ekan Muhammad Haydar mirzo xulosa sifatida kitob ba'zi xatoliklardan holi emasligi va bunda asosan ko'p o'rinlarda og'zaki tarix asosidagi ma'lumotlarning qo'llanganligi va ularni bayon qilishda tarixiylik hamda xolislik tamoyillariga amal qilganligiga ham Sharqona ibralar bilan ishora qiladi. -“Mualliflik odobiga ko'ra odatda o'quvchilardan uzr so'rashadi, bordi-yu ular bayonda xato va kamchiliklarni payqashsa, ularni kechirishlarini va xatolarni tuzatib, muallifni qoralamasliklarini iltimos qilishadi. Ammo bu faqir banda uzr so'rashga ham jur'at qilmaydi. Odatda mualliflar: «agar xato va kamchiliklar bo'lsa» deyishadi, men esa aniq bilamanki, mening asarim xato va kamchiliklarga to'la, o'quvchilar qanday e'tiroz bildirishmasin, hammasi o'rinli. Mening maqsadim – o'z bilimdonligimni namoyish qilish emas, balki mo'g'ul xoqonlarining nomlari zamon sahifalaridan batamom o'chib ketmasligi uchun ular haqidagi xotiralarni qog'ozga tushirishdir” [4].

Tahlil va natijalar. Rus Sharqshunoslaridan biri V.V.Velyaminov-Zernov bu asar haqida shunday degan edi: -“Tarixi Rashidiy” asari, ayniqsa, uning ikkinchi qismi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Bu asar so'nggi Chig'atoy hukmdorlari tarixini yoritib beruvchi yagona manba hisoblanadi. Muallifning barcha ko'rgan kechirganlari yuzasi-dan tavsiflagan voqealarida ochiqlik, aniqlik va xolislik yetakchi o'rinda turadi. Bunday holatni muallifdan kutish mumkin edi, chunki, mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o'zi bo'layotgan voqea-hodisalarni haqiqiy holatida tavsiflash uchun unga imkon bergan edi” [10].

Xulosa va takliflar. Muhammad Haydar mirzo "Tarixi Rashidiy" asarining yozilishi jarayonida qo'llagan tarixnavislik uslublari XVI asrda ham O'rta Osiyoda tarixiy ilmiy bilimlarning nihoyatda yuksak bo'lganligi, ayniqsa, tarix kitoblarini yozish jarayonida tarixiylik, haqqoniylik va xolislik tamoyillariga qat'iy amal qilganligi va bunda ma'naviy javobgarlik hissi va mas'uliyatining nihoyatda kuchli bo'lgan-

ligi va barcha tarixchilarning bunday tamoyillarga asoslanib tarix asarlarini yaratganliklari tarix fanida nazariy masalalarga oid ilmiy qarashlarning yetarli darajada taraqqiy etganligi ko'rsatadi. Shuning uchun ham Muhammad Haydar mirzo kabi O'rta osiyolik tarixchilarning yozgan asarlari bugungi kungacha o'zining tarixiy-ilmiy qiymatini saqlab kelmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Илхомов З. Ўрта Осиёнинг ўрта аср тарихнавислигида оғзаки тарих тадқиқотлари масалалари "Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари". Республика илмий-амалий онлайн конференцияси. Тошкент. 2020 йил 28 апрель
2. Ilhomov Z., D. Nazarova, N. Kholmopova/ The importance of the work "Tarixi Rashidiy" in the study of the medieval history of Central Asia. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 10 Issue 5, May 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13. 501-504-66
3. Мухаммад Хайдар Мирзо. Жаҳонома. Т.: "Янги аср авлоди", 2013. 4-б
4. Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Тошкент." Шарк". 2010. 224-бет.
5. Said Muhammad Mirzo – shayboniyilarga qarshi kurashlarda ishtirok etib. Shayboniyxon o'limidan so'ng Farg'onada hokimiyatni egallagan va Bobur mirzoni taxtga taklif qilgan edi. Qarang: Muhammad Haydar mirzo. Tarixi Rashidiy 356-358-bet.
6. "Tarixi guzida" ("Saylangan tarix") asari muallifi Xamdulloh Qazviniiy bulib, u XSH asr so'nggi choragi va XIV asrning II yarmida yashab o'tgan yirik geograf va tarixshunos olimdir. Uning to'liq ismi Hamdulloh ibn Abubakr ibn Ahmad ibn Nasr Mustavfiy Qazviniiydir. "Tarixi guzida" umumiy tarix yunalishida yozilgan asar bulib, unda qadim zamonlardan to 1330 yilgacha Eron va qisman, O' rta Osiyoda bo'lib o'tgan voqealar bayon etilgan.
7. "Zafarnomayi Temuriy", "Fathnomayi sohibvironiy ", "Tarixi jahonkushoyi Temuriy" yoki "Zafarnoma" nomi bilan mashhur bo'lgan asarining muallifi davrining yirik tarixchisi Sharafuddin Ali Yazdiydir. U, asli Eronning Yazd viloyatidagi T aft qishlog'idan bulib, turli fan sohalarini egallagan edi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy uni "Sharafudin davlat va din", ya'ni din va davlat sharafi deb ta'riflagan. Sharafuddin Ali Yazdiy Fors viloyatining hokimi Temuriy Ibroxim Sulton (1415-1435) saroyida xizmat zilgan. "Zafarnoma" asosan Nizomuddin Shomiyning shunday nomli asari asosida zo'r badiiy mahorat bilan yozilgan. Lekin, Sharafuddin Ali Yazdiy Nizomuddin Shomiy asarida bayon etilgan voqealarning ba'zilariga yangi tarixiy manbalar asosida aniqliklar kiritdi, uni yangi isbot va dalillar bilan boyitdi.
8. "Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn" ("Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi va ikki azim daryoning qo'shilish yeri") nomli yirik tarixiy asar muallifi. O'z davrining yirik diplomati va tarixchi olimi Abdurazzoq Samarqandiydir. Uning to'liq ismi Kamoluddin Abdurazzoq ibn Jaloluddin Ishoq Samarqandiy (1413-1482) bo'lib, Xirotdagi badavlat va nufuzli xonadonlarning biriga mansubdir. Abdurazzoq Samarqandiy yirik tarixnavis olim sifatida ham nom qoldirdi. U Eron, O'rta Osiyo va O'zbekistonning XIV-XV asrlardagi ijtimoiy-iqisodiy va madaniy hayotidan, shuningdek, Temuriylar davlatining qo'shni mamlakatlar Hindiston, Xitoy va boshqalar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari tarixidan baxs yurituvchi "Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn" deb ataluvchi asari bilan mashhur bo'ldi. Kitob 1467-1470 yillar orasida yakunlangan.
9. "Ulusi arba'-yi Chingiziy" ("Chingiziylar to'rt ulusi" (tarixi) yoki "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi") nomli asar asosiy mualliflaridan biri, uning yaratilish tashabbuskori XV asrda o'tgan buyuk olim, yirik davlat arbobi, Shoxrux Mirzoning o'g'li Muhammad Tarag'ay MirzoUlug'bekdir. U 1394 yil 22 martda Amir Temurning Iroq va Ozarbayjonga qilgan yurishi vaqtida Sultoniy shaxrida, Eron Ozarbayjonida tavallud topgan. Mirzo Ulug'bek ikki yirik asar yaratdi. Biri "Ziji jadidi ko'ragoniy" ("Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvali") bo'lib, 1437 yili yaratilgan kitobda ilmi nujumning nazariy va amaliy masalalari qamrab olingan, o'sha davrdagi eng yuksak ilmiy jasorat hisoblangan. Olimning ikkinchi asari "Ulusi arba'-yi Chingiziy" bo'lib, unda XIII-XIV asrlarda Mo'g'ul imperiyasi tarkibiga kirgan mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy tarixi qisqa tarzda bayon etilgan. Kitob 1425 yildan keyin tugallangan.
10. Рукописи произведений Рузбихана и Мухаммад Хайдар Дулати // studbooks.net



Yakifjan KADIROVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b. (PhD)
E-mail: xqodirova@bk.ru

TerDU "Jaxon tarixi" kafedrasida tarix fanlari doktori, professor T. R. Pardayev taqrizi asosida

QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MA'NAVYI-MA'RIFIY VA SPORT TADBIRLARI

Annotsatsiya

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarini olib borish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylantirilib, ma'naviyat masalasiga insonni ruhan poklanish, ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan kuch sifatida qaralishga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, yoshlar ma'naviy qiyofasini shakllantirishda sport musobaqalarini rivojlantirishda ta'lim muassasalari asosiy rol o'ynashi yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'quvchi yoshlar, an'analar, ma'naviy hayot, ma'naviy dunyoqarash, kelajak, ta'lim muassasalari, yosh sportchilar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy, barkamol

SPIRITUAL-EDUCATIONAL AND SPORTS EVENTS IN SCHOOLS OF KASHKADARYA AND SURKHANDARYA REGIONS

Annotation

In this article, during the years of independence, carrying out spiritual and educational activities among students of secondary schools became one of the main directions of state policy. Attention is paid to the fact that faith is considered as a beneficial force. It was also emphasized that educational institutions play a key role in the development of sports competitions and in the formation of the spiritual image of young people.

Key words: Student youth, traditions, spiritual life, spiritual worldview, future, educational institutions, young athletes, spiritual and moral education, spiritual and educational, comprehensively developed.

ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ И СПОРТИВНЫЕ МЕРОПРИЯТИЯ В ШКОЛАХ КАШКАДАРЬИНСКОЙ И СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В данной статье в годы независимости проведение духовно-просветительской деятельности среди учащихся общеобразовательных школ стало одним из основных направлений государственной политики. Уделяется внимание тому, что вера рассматривается как благотворная сила. Также было подчеркнуто, что образовательные учреждения играют ключевую роль в развитии спортивных соревнований, в формировании духовного облика молодежи.

Ключевые слова: Студенческая молодежь, традиции, духовная жизнь, духовное мировоззрение, будущее, учебные заведения, юные спортсмены, духовно-нравственное воспитание, духовно-просветительский, всесторонне развитый.

Kirish. Mustaqillik yillarida madaniy-ma'rifiy tadbirlar davlatning diqqat markazida turgan muhim masalalar qatoridan joy oldi. O'quvchi yoshlarning ma'naviy barkamol bo'lib yetishib chiqishiga xizmat qiladigan tadbir ko'lamini kengaytirildi. Ma'naviyat masalasiga insonni ruhan poklanish, ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan kuch sifatida qaraldi.

Yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini mukammal rivojlantirish uchun ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat manbalarini chuqur o'rganish, qayta tiklash, targ'ib yetish, ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishga oid islohotlar mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab amalga oshirila boshlandi. Ma'naviyatning boyligi kelajak poydevorini mustahkamlashda muhim ahamiyatga yega. Yoshlar ma'naviyatini boyitishda xalqimizning asrlar osha asrab va boyitib kelingan boqiy an'analari va qadriyatlarining ham o'ziga xos munosib o'rnini mavjud.

Asosiy qism. Jamiyat ma'naviy hayotini shakllantirishda ta'lim muassasalari asosiy rol o'ynadi. Umumta'lim maktablari o'quv mashg'ulotlarida talabalar ongida Ona Vatanga muhabbat va sadoqat, madaniy meros va tarixga hurmat ruhini shakllantirishga ahamiyat berildi. Ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida O'zbekiston tarixini,

madaniy me'rosni, urf-odatlarini targ'ib yetish maqsadida xilma xil tadbirlar o'tkazish an'anaga aylandi.

Umumta'lim maktablari "O'zbekiston-qo'shiqlar bayrami", "Gullar bayrami", "Qushlar bayrami" hamda "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir", "Turkiston-umumiy uyimiz" insholari ko'rik-tanlovlari, iqtidorli bolalar anjumani, maktab o'quvchilari sportokiyadasi, xalq amaliy san'ati ko'rik tanlovlari muntazam o'tkazib kelindi. O'lkaning qadimiy tarixiy obidalari, qadamjolari, hunarmandchiligiga doir ko'pgina asori-atiqalar jamlangan maktab muzeylari ham faoliyat ko'rsatdi.

Umumta'lim tizimida yoshlarni jismoniy jihatdan baquvvat qilib tarbiyalashda sport ishlariga alohida e'tibor qaratilib, sport turlari bo'yicha maxsus jihozlangan sport inshootlari qurildi va qo'shimcha sport ashyolari bilan ta'minlandi. Respublikada umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida muntazam ravishda sport musobaqalari tashkil yetildi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida maktablari o'quvchilari ham sportning kurash, futbol, voleybol turlari bo'yicha musobaqalarda katta natijalarni qo'lga kiritdi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida sport bilan muntazam shug'ullanuvchilar soni yil sayin oshib bordi. Ayniqsa, qishloq joylarida sport bilan shug'ullanish uchun yaratilayotgan sharoitlar ko'plab iqtidorli bolalarni kashf yetish imkoniyatini

yaratdi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari tumanlarida har yili Navro'z bayrami munosabati bilan barcha mahalla fuqarolar yig'inlarida "Otam, onam va men-sportchilar oilasi" shiori ostida sport musobaqalari hamda sportning milliy turlari bo'yicha sport musobaqalari o'tkazildi, g'oliblar homiylar tomonidan taqdirlandi.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tuman maktablarida ham bolalarni sport bilan shug'ullanishlari uchun barcha sharoitlar yaratib borildi. Qashqadaryo viloyatida mavjud 3910 ta sport inshootining qabul qilish quvvati 133 ming 788 o'quvchi o'rniga yetdi. Bitta inshotdan kunlik foydalanish o'rta hisobda 8-9 soatga to'g'ri keldi. Masalan, 2009 yili Chiroqchi tumanida o'quvchilar uchun 52 ta sport zali, 48 ta basketbol, 104 ta qo'l to'pi, 142 ta futbol va 50 ta mini futbol maydonchalari xizmat qildi[2].

Qashqadaryo viloyatining yengil chekka qishloq joylarida qurilgan 12 ta TIP sport majmualari va 63 ta sport zallari bolalarni sport mashg'ulotlarida darsdan tashqari shug'ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bundan tashqari sport majmualarida yil davomida "Umid nihollari", "Sog'lomjon-polvonjon", "Futbol g'unchasi", "Yoz ta'tili", "Alpomish", "Barchinoy" sinovlari "Quvnoq startlar" hamda bayram sanalariga bag'ishlab ommaviy sport musobaqalari o'tkazildi. Qizlar sportiga ye'tibor kuchayib, ular o'rtasida yengil atletika, badiiy gimnastika, sport gimnastikasi, qizlar futboli kabi kam rivojlangan sport turlari keng ommalashib bordi.

O'quvchi yoshlarni yozgi ta'til kunlarini maroqli o'tkazish ularni sog'lomlashtirish va sport mashg'ulotlariga uzluksiz jalb qilishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi" tomonidan 2007 yil 15 mayda "Umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida "Yoz 2007" sport musobaqalarini o'tkazish to'g'risida"gi nizom ishlab chiqildi va shu asosda tadbirlar tashkil yetildi.

Tahlil va natijalar. 2010 yil martdagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan istiqbol dasturining" 3-bandiga asosan seshanba kuni "Sport va sog'lomlashtirish kuni" deb belgilandi.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida sportning yengil atletika turini rivojlantirish bo'yicha qator tadbirlar olib borilib, umumta'lim maktablari o'quvchilari bu sohada ijobiy natijalarga yerishdi. Masalan, Jaloliddin Hamroqulov 2012 yili Gulistonda o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida g'olib bo'lganidan so'ng, Respublika yoshlar terma jamoasiga qabul qilindi. U 2013 yili Xitoyning Nankin shahrida bo'lib o'tgan o'smirlar o'rtasidagi II-Osiyo o'yinlarida 100 va 200 metrga yugurish musobaqalarida 54 davlatdan kelgan yengil atletikachilar orasida sakkizlikka kirdi. Bundan tashqari Qozog'istonning Almati shahrida Markaziy Osiyo davlatlari sportchilari o'rtasida o'tkazilgan xalqaro turnirda g'olib bo'ldilar. 2014 yilning boshida Tailandda bo'lib o'tgan xalqaro turnirida 49 davlat sportchilari orasida yettinchi o'rindan joy oldi. U qisqa masofalar 100 va 200 metrga yugurishda Respublikadagi birinchi raqamli sportchiga aylandi[3].

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati yosh sportchilari xalqaro miqyosidagi musobaqalarda faol ishtirok yetib, O'zbekiston sharafini himoya qildi. Masalan, 2014 yil Janubiy Koreyaning Incheon shahrida o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatidan ham bir guruh sportchilar qatnashdi. Bu musobaqada qashqadaryolik o'quvchilar dzyudo terma jamoasi tarkibida va yakka bahslarda 5 ta medalni qo'lga kiritdi. Dilshod Choriyev kumush, Mirzohid Farmonov, Sarvar Shomurodov, Navro'z

Jo'raqobilov, Soib Qurbonov bronza medaliga sazovor bo'ldi. Umuman, Qashqadaryo viloyatida 2014 yilda 16 yoshgacha bolalar xalqaro maydonlarda 7 ta oltin, 4 ta kumush, 6 ta bronza medali sovrindori bo'ldi[4].

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati yosh sportchilari qisqa fursat mobaynida sport sohasida jahon arenalari qatta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib, O'zbekistonni jahonga tanitdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 martdagi PQ-2503-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi" byudjetini hamda 2016 yilda bolalar sporti inshootlari, suzish havzalari, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashning manzilli dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda vazirlikning 2016 yil 5 martdagi 59-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash yuzasidan boshqarmaning 2016 yil 7 martdagi 46-sonli buyrug'i qabul qilinib, xalq ta'limi boshqarmalari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar rejasini tasdiqlandi. Mazkur vazifalar ijrosi yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Jamg'arma tomonidan 2016 yil dasturga muvofiq jamg'arma mablag'lari hisobidan jami 30 ta, jumladan 28 ta sport inshootlari (26 ta maktabda sport zal, 1 ta bolalar va o'smirlar sport maktabi suzish havzasi yangidan qurildi, 1 ta kapital rekonstruksiya qilindi) qurib foydalanishga topshirildi. Umuman, 26,7 mlrd.so'm mablag' sarflanib, ularning 21,5 mlrd.so'mi Respublika jamg'armasi hamda 5,2 mlrd. So'mi jamg'armaning viloyat filiali hisobidan moliyalashtirildi[5].

Inshootlarni qurish bo'yicha tender savdolarida o'z texnikasiga, bazasiga, sport inshootlarini qurish tajribasiga ega bo'lmagan, iqtisodiy nochor qurilish tashkilotlarining ishtirok yetishiga yo'l qo'yilmaganligi tufayli barcha inshootlar o'z muddatiga, sifatli foydalanishga topshirildi. Mazkur sport inshootlari uchun 696 mln so'mlik sport jihozlari va anjomlari ajratildi. Shuningdek, umumta'lim maktablarining eskirgan sport jihozlarini yangilash maqsadida 1 mlrd 641 mln so'mlik sport jihozlari tarqatildi[6].

Xulosa va takliflar. Yaratilayotgan keng imkoniyatlar evaziga muntazam sport bilan shug'ullanuvchilar soni ham yildan yilga ortib bordi. Jumladan, 6-15 yoshdagi jami sport bilan muntazam shug'ullanayotgan o'quvchi yoshlar 2015 yilda 271733 nafarni (56,0 %) tashkil yetgan bo'lsa, 2016 yilda bu ko'rsatkich 300606 nafarni (60,8 %) tashkil yetib, 2015 yilga nisbatan 28873 nafar (4,8 %) o'sishga yerishildi. 2017 yili Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi tizimidagi 16 ta bolalar-o'smirlar sport maktablarida 14197 nafar o'quvchi muntazam sport bilan shug'ullandi.

Shu bilan birga bu sohada ham qator xato va kamchiliklar yuz berdi. Murabbiylar tomonidan mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanilmadi. Sport maktabi rahbariyati, murabbiylari tomonidan o'quvchilar o'rtasida umumta'lim maktablarida targ'ibot-tashviqot ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmadi. Sport bilan shug'ullanuvchi yoshlar salmog'ining pastligi tufayli murabbiylarda shug'ullanish istagini bildiruvchi o'quvchilar orasidan o'quvchining jismoniy imkoniyatini baholab, saralab olish (seleksiya) imkoniyati mavjud bo'lmadi. Guruhni to'ldirish uchun murabbiy sport maktabiga kelgan o'quvchining jismoniy imkoniyatlarini hisobga olmay qabul qildi.

Mustaqillik yillarida umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarini olib borish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylantirilib, ma'naviyat masalasiga insonni ruhan poklanish, ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan kuch sifatida qaraldi. Yoshlar ma'naviy qiyofasini shakllantirishda ta'lim muassasalari asosiy rol o'ynadi.

ADABIYOTLAR

1. Istiqlol va ta'lim: Xalq ta'limi mustaqillik yillarida. (1991-2001); R. H. Jo'rayev tahriri ostida. – T.: Sharq. 2001;
2. Yo'ldoshev J. G'. O'zbekiston Respublikasi ta'lim taraqqiyoti yo'lida. – T.: O'qituvchi, 1994
3. Yo'ldoshev J. G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. – T.: O'qituvchi, 2000;
4. Bahrom Maxmudov Qashqadaryo xalq ta'limining taraqqiyot yo'li. - Qarshi, 1999 yil.
5. Kadrlar tayyorlash dasturi: pedagogik ilmiy tadqiqot muammolari va yo'nalishlari. – T.: Fan, 1999;
6. Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами. - Тошкент. 2015. – 345 б;
7. Kadirova Yakitjan Buvabaevna, Kadirova Khalima Buvabaevna. Methodological Basis Of Development Of Legal Immunity Of Students On The Basis Of A Subject-Ethical Approach. Journal of Pharmaceutical Negative Results. 2022/12/23. Pp.6480-6487. DOI: <https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S09.771>
8. Y Kadirova, K Kadirova Social Activity Of Pedagogue In Socio-Political Life Of Society//Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B3. – Pp. 417-421
9. Buvabaevna, K. H. (2023). Value of developing media literacy, media education, information culture in Uzbekistan. Science and Innovation, 2(9), 23-27.
10. Bekmurodov M., Akhmedova F., Kadirova K. Study the process of harmonization formation of personal and professional qualities at students //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – T. 24. – №. S1. – C. 597-605.
11. Кадирова Х. Б. Нравственное воспитание //ФЭн-наука. – 2015. – №. 5. – С. 41-42.
12. Кадирова Х. Б. Особенности социальных институтов //Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-. – 2016. – С. 59.
13. Кадирова Х. Б. Главная духовная ценность и личность человека //ФЭн-наука. – 2015. – №. 1. – С. 29-32.



UDK: 330:631.4(575.1)

Akmal MAMATQULOV,

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti “Madaniyatshunoslik” kafedrası mudiri

E-mail: mamatkulov_ay@mail.ru

(PhD) U.O‘sarov taqrizi asosida

SAMARQAND - QARSHI IQTISODIY RAYONIDA SANOAT KORXONALARINING QURILISHI, UNING EKOLOGIK HOLATGA TA‘SIRI (XX ASR 60-80 YILLARI)

Аннотация

Maqolada iqtisodiyotni qattiq markazlashtirish siyosati sanoatda jiddiy nuqson va kamchiliklarni keltirib chiqarishi, O‘zbekiston sanoati ikkinchi jahon urushidan keyin ham mustaqil bo‘lmaganligi kabi muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, sanoatni rivojlantirish ishlari Samarqand-Qarshi iqtisodiy rayonida ham amalga oshirilganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Mashinasozlik industriyasi, kimyo, neft, ko‘mir, gaz, kon-ruda, oltin, traktorsozlik.

СТРОИТЕЛЬСТВО ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЙОНЕ САМАРКАНД- КАРШИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЭКОЛОГИЧЕСКУЮ ОБСТАНОВКУ (60-80 ГОДЫ XX ВЕКА)

Аннотация

В статье анализируются такие проблемы, как то, что политика жесткой централизации экономики вызывает серьезные дефекты и недостатки в отрасли, а также то, что промышленность Узбекистана не была независимой даже после Второй мировой войны. Также особое значение имеет то, что в Самаркандско-Каршинском экономическом районе проводились работы по промышленному развитию.

Ключевые слова: Машиностроение, химия, нефть, уголь, газ, горная руда, золото, тракторостроение.

CONSTRUCTION OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE SAMARKAND-KARSHI ECONOMIC REGION AND THEIR IMPACT ON THE ECOLOGICAL SITUATION (60-80 YEARS OF THE XX CENTURY)

Annotation

The article analyzes problems such as the fact that the policy of strict centralization of the economy causes serious defects and shortcomings in the industry, and that the industry of Uzbekistan was not independent even after the Second World War. Also, it is of particular importance that the industrial development works were carried out in the Samarkand-Karshi economic region.

Key words: Engineering industry, chemistry, oil, coal, gas, mining ore, gold, tractor manufacturing.

Sovet davlatining iqtisodiyotni qattiq markazlashtirish siyosati sanoatda jiddiy nuqson va kamchiliklarni keltirib chiqardi. Iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqilligi bo‘lmagan O‘zbekiston sanoati ikkinchi jahon urushidan keyin ham yengil va oziq-ovqat sanoatiga qaraganda, ko‘p tarmoqli mashinasozlik industriyasi (asosan traktorsozlik), kimyo, neft, ko‘mir, gaz, kon-ruda, oltin qazib olish va aniqsa energetika jadal rivojlantirildi.

Sanoatni rivojlantirish ishlari Samarqand-Qarshi iqtisodiy rayonida ham amalga oshirilganligini alohida ta‘kidlash lozim. Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni tuzilganidan so‘ng O‘rta Osiyo iqtisodiy kengashining 1963 yil 12 fevraldagi 1 – raqamli “O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoyishdan kelib chiqib, Samarqand – Qarshi iqtisodiy rayonidagi bir qator sanoat korxonalarini ham O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni Xalq xo‘jaligi kengashi tarkibiga qo‘shib olina boshladi[1].

Birgina Samarqand viloyatining o‘zida 1976-1980 yillarga kelib 122 ta yirik sanoat korxonalarini bo‘lgan. Mashinasozlik va metall ishlash korxonalarini qishloq xo‘jalik texnikasi uchun ehtiyot qismlarni, paxta tozalash sanoati uchun asbob-uskunlarni, xolodilniklar, liftlar, konditsionerlar, kinopparatlar, teatrlarga mo‘ljallangan yoritish va ovoq yozib olish apparatlarini, radiopriyomniklar hamda televizorlarning ehtiyot qismlarini ishlab chiqargan.

Respublikaning sanoat ishlab chiqarishida Samarqand shahri va viloyatining yengil va oziq-ovqat sanoatiga qarashli korxonalar tayyorlab chiqaradigan mahsulotlar bilan katta o‘ringa ega bo‘lgan. Respublikada ishlab chiqarilgan xromli charmdan yasalgan buyumlarning 87 foizi, pillaning 16 foizi,

shoyi gazlamalarning 23 foizi, ustki va ichki trikotajning 50 foizdan ko‘prog‘i, mol yog‘ining 19 foizi va o‘simlik yog‘ining 11 foizi, meva-sabzavot hamda xo‘l mevdadan tayyorlangan konservalarning 31 foizi, konditer mahsulotlarining 15 foizi, uzumdan tayyorlangan vinoning 16 foizi, sovunning 21 foizi Samarqand shahri va viloyat korxonalarini hissasiga to‘g‘ri kelgan[2].

1942 yilda ishchilar bilan birga O‘rta Osiyo, xususan, Samarqandga ko‘chirilgan V.Lenin nomli “Qizil dvigatel” (Krasnyi dvigatel) zavodi Samarqanddagi “Kolxozchi” zavodi bilan qo‘shib yuborilib, evakuatsiyadan bir oy o‘tgach, front uchun mahsulot hamda qishloq xo‘jalik texnikasi uchun ehtiyot qismlar tayyorlab bera boshladi. Zavod ishlab chiqargan traktor va avtomobillarga mo‘ljallangan ehtiyot qismlar mamlakatning Ukraina SSR, Qozog‘iston SSR, Belorussiya SSR, Ozarbayjon SSR, Kuban, Sibir mintaqalariga yetkazib berilgan. “SSSR 50 yilligi” deb nomlangan Samarqand liftsozlik zavodining mahsulotlari Moskva, Leningrad, Kiyev, Vladivostok, Sverdlovsk, Tbilisi, Toshkent kabi bir necha shaharlardagi qurilgan baland qavatli binolarga o‘rnatildi. Zavodning qurilish ishlari 1967 yilda boshlanib, 1971 yilda zavod zamonaviy usuldagi liftlarni yetkazib bergan. Urushdan keyingi yillarda zavod berilgan rejalarni bajarishda ma‘lum darajada oqsab kelgan. Zavodning ikkita metall asbob quyadigan sexi, uchta mexanik sexi bo‘lgan. Zavodning birgina metall asbob quyadigan ikkinchi sexi 100 xil turdan ortiq mashinasozlikga kerakli mahsulotlar ishlab chiqargan[3].

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng mablag‘larni sarflab boshlangan xalq xo‘jaligini tiklash ishlari boshlanmasdan,

korxonalar sifatsiz mahsulotlar ishlab chiqarish bilan orqaga keta boshladi. Jumladan, "Qizil dvigatel" zavodi sexlarida stanoklarning tezda ishdan chiqishi, ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifati talabga javob bermasligi kabi holatlarni belgilab berilgan rejalarni o'z vaqtida bajarish imkonini bermagan. Masalan, 1963 yil iyun, iyul, avgust, sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifatsizligi 50 foizga tushib ketganligi sababli zavod "Belorus" traktoriga gilzalarni yetkazib bera olmagan. Generatorning ishdan chiqishi sababli DT-54 traktoriga ishlab chiqariladigan gilzalar o'z vaqtida ta'minlanmagan[4]. Oltoy traktor zavodiga yetkazib berilishi lozim bo'lgan gilza hamda alyumin porshenlarni ham 76,3 foizni tashkil etgan. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifatsizligi bo'lsa yildan yilga oshib borgan. Birgina gilza va alyumin porshen ishlab chiqaradigan sexda DT-54 traktorlariga hamda "Belorus" traktorlariga ishlab chiqariladigan gilza braki 22,6 foizga chiqqan, Shunday 50 foiz mahsulot yumshoq bo'lgan bo'lsa, 25 foiz mahsulotda yoriqlar bo'lgan[5]. Bunga zavodga kelib tushayotgan cho'yan lomlar, koks (yoqilg'i uchun ishlatiladigan torf), ohaktosh kabilarning sifatsizligi ham sabab bo'lgan. Zavod 1963 yilning o'zida Volgograd zavodidan keltirilayotgan alyuminning, Novosibirsk metall zavodidan keltirilayotgan temir disklarning sifatsizligiga o'z noroziligini bildirgan. Shuning orqasidan zavod 1963 yilda reja 661 ming rubl bo'lgan 737 ming rubl zarar ko'rgan[6].

1957 yil O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1957 yil 29 martdagi "O'zSSR oziq-ovqat mahsulotlari ministrligiga qarashli korxonalarda mahsulot sifatini oshirish, assortimentni ko'paytirish, mahsulot ko'rinishini yaxshilash to'g'risida"gi Farmonini bajarilishi yuzasidan o'tkazilgan tekshiruvlarda Samarqand – Qarshi iqtisodiy rayonidagi mavjud korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar nazoratdan o'tkazilgan. Tekshiruvlar davomida yog'-moy sanoatida 1957 yil va 1958 yilning I kvartalida iste'molchilarga ishlab chiqarilgan mahsulot sifatsizligi orqasidan 15679 ming rubl to'langan. Vino sanoatida ham ko'rinishi talab darajasiga javob bermaganligi sababli 300 dona yashik vino brakka chiqarilgan, 1957 yilda qorayib qolgan paxta yog'i ishlatilgani uchun sabzavot konservalarini brakka chiqargan. Ishlab chiqarilgan konserva mahsulotlari Moskvada degustatsiyadan o'tkazilganda 5 ming banka meva sharbatining sifatsizligi aniqlangan. 1957 yil Jizzax yog'-moy kombinatida 2,5 tonna saryog', 2,7 tonna eritilgan saryog' brakka chiqarilgan. 1958 yil birinchi kvartalda Samarqand sut kombinatida ishlab chiqarilgan 239 kg. tvorog, 70 kg. smetana yaroqsizga chiqarilgan, 2,2 tonna pishloq, 38 kg. smetana oliy navdan birinchi navga tushirilgan, 1958 yil I kvartalida makaron mahsulotlari ham yaroqsiz holatga chiqarilgan. Go'sht sanoatida ishlab chiqarilgan kalbasa mahsulotlari sifati va ko'rinishi talabga javob bermagan. Hatto, sut mahsulotlariga qopqoq yetishmaganidan sut mahsulotlari solingan idishlar tovar ustiga yopiladigan yorliqlar bilan berkitilgan[7].

Mas'ul rahbarlar orasida ham o'z ishiga e'tiborsizlik holatlari kuchli bo'lgan. Samarqand choy qadoqlash fabrikasi litografiya sex boshlig'i Nosirov 4 sinfni tugatgan bo'lib, sexga tushayotgan buyurtmalarni o'z vaqtida yetkazib bermagan, hatto Buxoro va Samarqand Xalq xo'jaligi kengashlari buyurtmalari ham o'z vaqtida bajarilmagan va yetkazib berilmagan[8].

Shunday bo'lsada, bu yerda umumittifoq ahamiyatiga ega bo'lgan korxonalar ham bo'lgan. Masalan, Samarqanddagi "Kinap" zavodi tayyorlagan buyumlar priborozlik zavodlari ichida yuksak ishlab chiqarish madaniyati bilan shuhrat qozongan bo'lib, u kinoteatrlar, klublar uchun kuchli ovoz apparatlari tayyorlaydigan mamlakatda yagona korxon bo'lib qoldi. Uning butun mahsuloti birinchi va oliy sifat kategoriyasi bilan qabul qilingan[9].

Samarqandda ham sanoat sohasidagi asosiy e'tibor kimyo sanoatiga qaratilgan edi. 1962 yilda SSSR Ministrlar Sovetining 1962 yil 2 iyul Farmoniga ko'ra Samarqandda yiliga 100 ming tonna ammiak chiqaradigan Samarqand azotli o'g'itlar zavodini qurish ishlari boshlanib, 1963 yilga kelib kimyo va neft sanoati bo'yicha davlat Qo'mitasi taklifiga ko'ra hali ishga tushmagan Samarqand azotli o'g'itlar zavodida chiqariladigan ammiakni 200 ming tonnaga oshirishni taklif etildi. Tabiiyki bu holga O'rta Osiyo Xalq xo'jaligi qo'mitasi va Respublika hukumati rozilik bildirdi.

KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining 1963 yil 18 iyundagi xati asosida 1963 yil 15 iyulda Katta O'rta Osiyo iqtisodiy kengashiga kiruvchi respublika rahbar xodimlari, tashkilot, korxonalari rahbarlarining bo'lib o'tgan yig'ilishida Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayonida sanoat, qurilish, transport sohalarni rivojlantirish masalalari ko'rilgan vaqtda ham rayonda kimyo sanoatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. O'sha vaqtlardagi hisob-kitoblarga ko'ra 1961 yildan ammiak ishlab chiqarishi belgilangan, lekin qurilishi chala bo'lib qolgan Samarqand azotli o'g'itlar zavodida qurilish ishlarini davom ettirgan holda mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish bilan 1 tonna ammiak 30,7 rublga tushgan, bu esa butun Sovet Ittifoqi bo'ylab eng arzon, ya'ni 2 martaga arzon bo'lgan xomashyo yetishtirish imkonini bergan[10]. Tabiiyki bu bilan butun mamlakatni azotli o'g'itlar bilan ta'minlash mumkin bo'lgan. Biroq, Samarqand superfosfat zavodi 15 yilda vomidan qurildi. Ishga tushgan sexlar ham chala ta'mir binolarda mahsulot chiqardi[11]. Partiyaning balandparvoz shiorlar bilan to'ldirilgan qaror va farmonlari, ma'ruzalari, ularda keltirilgan mablag'lar davlatning byudjetidagi mablag' bilan to'g'ri bo'lmadi, yoki ajratilgan mablag'lar o'zlashtirilib, belgilangan joyga yetib kelmadi. Shunday bo'lsada, 1961 yilda zavod ishlab chiqargan superfosfat 400 ming tonnani tashkil etdi[12]. Zavod qoshida oltingugurt kislotali sex, odiy superfosfat ishlab chiqaruvchi sex, kislorod sexi va ta'mirlash ishlari bilan bog'liq bo'lgan sexlardan iborat bo'lgan[13].

KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining 1963 yil 18 iyundagi xati asosida 1963 yil 15 iyulda Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni kengashiga kiruvchi respublikalar rahbar xodimlari, tashkilot, korxonalari rahbarlarining bo'lib o'tgan va yig'ilishida Samarqand superfosfat zavodida 1966-1967 yillarda mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, 1965 yildan, yiliga 200 ming tonna ammiak ishlab chiqaradigan navbatdagi zavodni Navoiyda qurish lozimligi ham alohida ta'kidlandi. Bu bilan O'zbekiston yiliga 1,3 million ammiak yoki 4 million tonna o'g'it ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi mumkin edi. Agar Tojikiston SSRdagi Vaxsh zavodi ham ishga tushirilsa, katta Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayonidagi respublikalar qishloq xo'jaligi uchun yetarli bo'lgan o'g'it, karbamid va sanoat uchun kerakli ammiak ishlab chiqarilishi mumkin edi[14].

Umuman, Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayoniga kiruvchi respublikalarning xalq xo'jaligi kengashlarining deyarli barcha yig'ilishlari va markaziy qo'mita topshiriqlarida Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayonlarida kechiktirmay kimyo sanoatini rivojlantirish, ayniqsa mineral o'g'itlar, defoliantlar, zaharli kimyoviy moddalarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish yuzasidan bergan topshiriqlari[15]ga ko'ra O'rta Osiyo respublikalari iqtisodiy foyda beradigan kimyo sanoatini rivojlantirishga ixtisoslashishlari kerak edi[16]. Hatto rayonlararo almashinuvni ham amalga oshirish mumkin bo'lar edi. Masalan, Qozog'istondan fosfor kislotalari, fosforli o'g'itlar keltirib, ularni O'rta Osiyo respublikalarida ishlab chiqarilgan o'g'itlar bilan ta'minlash mumkin edi[17]. Biroq, bu majlisda ma'ruza qilgan O'rta Osiyo paxtachiligi bo'yicha davlat qo'mitasi raisi M.Kulikovning ta'kidlanishicha, mineral o'g'itlar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish mumkin bo'lgan. Agar 1960 yillar davomida har gektar yerga 131 kg. azot, 57 kg. fosfor ishlatilgan bo'lsa, ma'ruzachi 1 gektar

yerga 174 kg. azot, 120 kg. fosfor ishlatishni taklif qilgan[18]. Shu sababli azotli o'g'itlarni yetkazib berishni 40 foizga, fosfor yetkazib berishni 80 foizga, 1970 yillarga kelib esa azotli o'g'itlarni yetkazib berishni 70 foizga, fosfor yetkazib berishni 2,5 baravarga ko'paytirishni taklif qilgan[19]. Umuman, bu yig'ilishda mashinasozlik, kimyo sanoati, neft-gaz sanoati, rangli metall, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, ko'mir qazib olish, yengil va oziq-ovqat sanoati, tikuvchilik va poyafzal ishlab chiqarish kabilarni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi[20].

Iqtisodiy rayonlarshirishga katta "e'tibor" berilayotgan vaqtdayoq korxonalar va qurilishi tugallanmagan yerlarda ishga tushgan korxonalar tabiiyki yillar o'tishi bilan atrof-muhitga ta'sir etmasdan qolmadi. Birgina Samarqand superfosfat zavodining o'zida oltingugurtni ushlab qolishi lozim bo'lgan pechlarning yaxshi ishlamasligi natijasida zaharli moddalarni havoga chiqarish 1962 yildayoq 1961 yilga nisbatan 16 foizga yetgan. Ammonli superfosfat va oltingugurtni ishlab chiqarish uchun lozim bo'lgan xom ashyo yetishmagan, sexlarni ifloslantirish holatlari juda yuqori bo'lgan. Zavod omborxonalarini ortiqcha kerak bo'lmagan mahsulotlar bilan to'lib ketgan va 33,2 ming rublga teng bo'lgan bo'lsa 1961 yilning 1 yanvar holatiga kelib 71 ming rublga teng bo'lgan[21].

Samarqand – Qarshi iqtisodiy rayoni tarkibiga kirgan Qashqadaryo viloyatida ham urushdan keyingi yillarda mavjud sanoat korxonalarini ta'mirlash ishlari olib borildi. Jumladan, 1954 yilda Qarshi tikuvchilik fabrikasini ta'mirlash ishlari boshlanib, fabrikaga 1955 yilda jami 51 ming rubl sarflangan, 20 dona universal mashina, 5 ta maxsus va 8 ta elektrodazmollar o'rnatildi. Qayta jihozlash natijasida 1955 yilda fabrikada mahsulot ishlab chiqarish 1954 yilga nisbatan 91,4 foizga oshdi[22]. 1955 yilda Kitob vino zavodida shisha idishlarni yuvadigan "BM" markali mexanizm, plejer nasosi, 2 ta vino uzutuvchi nasos, "Gerkules" filtri va "Alfa - Davol" pasterizatorlari ishga tushirildi[23]. 1957 yilga kelib Qarshi yog'-moy kombinatining 2 - sexi, 1957 yilda 3 - sexi foydalanishga topshirildi. Natijada kombinatda 1955 yil 22.439 ming rubllik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1957 yilga kelib bu raqam 40575,9 ming rublni tashkil etdi[24]. Shaxrisabz badiiy buyumlar ishlab chiqaruvchi "Hujum" fabrikasida yangi to'quv mashinalari o'rnatilishi bilan mashinada bir kunda 2 ta do'ppi tikish imkoni yaratildi. Mashina o'rnatilishi bilan bir so'mlik muhsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan 85 rubl 4 tiyin o'rninga mablag' o'rninga 81 so'm 5 tiyin sarflandi[25].

Shunday bo'lsada, belgilangan rejalar bajarilmagan. Masalan, 1956 yil va 1957 yilning ikki oyida o'tkazilgan tekshiruvlar davomida SSSR savdo ministrligi respublika bo'yab 4634 ming banka konerva va vino-arok mahsulotlarini, 250 tonna makaron va konditer mahsulotlarini, 26,5 mln. dona tamaki mahsulotlarini, 100 ming flakon parfyumeriya mahsulotlarini, 6,5 tonna sovun va b. mahsulotlarni yaroqsiz sifati past mahsulotlar ekanligini aniqlagan. Rejani bajarishni ketidan quvish natijasida korxonalar talabga yarasha mahsulot ishlab chiqarishdan chetlashib borganlar[26]. Samarqand trikotaj fabrikasida bo'lsa ishlab chiqarilgan mahsulotlarining sifati pastligi sababli xiradorgir bo'lmagan[27].

1970 yillarga kelib davlat inspeksiya sinining tekshiruvlarida O'zbekiston SSR Mahalliy ishlab chiqarish vazirligiga qaraydigan korxonalarda ham shu holat ko'zga tashlangan. Masalan, 141 ta ishlab chiqaruvchi korxonadan 22 tasida yoki 16 foizida belgilangan reja bajarilmagan. 1,9 mln. rubllik mahsulot ishlab chiqarilmagan[28]. 1970 yilda jiddiy

e'tiroz Samarqand elektro-mexanika zavodiga, Termiz, Qarshidagi tikuvchilik mahsulotlari chiqaradigan kombinatlarga qaratilgan. Mavjud korxonalaridagi asbob-uskunalar juda eskirgan, yoki ishdan chiqqan. Shuningdek, ish vaqtini bekorga yo'qotishga, ish haqlarini bekorga to'lanishiga olib kelgan. 1970 yilda ish kuchining qo'shimchiligi 32 foizga yetib, 1969 yilga nisbatan 5 foizga o'sgan[29]. O'zbekiston SSR Mahalliy ishlab chiqarish vazirligiga qarashli bu korxonalarda mablag'ni bekorga sarf qilish yoki talon-taroj qilish holatlari 1971 yilning 1 yanvariga ko'ra 42 ming rublni tashkil etgan[30].

Davlat mulkini talon-taroj qilish ham yetarli darajada bo'lgan. Masalan, 1970 yilda trest bo'yicha umumiy qarzdorlik 55 ming rublni tashkil etgan. Ularni orasida eng katta qarzdorlik Qarshi paxta zavodiga to'g'ri kelgan. Undan tashqari 1967 yildagi qarzdorlik 1970 yillarga kelib ham qoplanmagan. Po'lat paxta punkti klassifikatori E.Abduqodirovdan 41335 rubl qoplanmagan, Koson paxta punktida ham kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari ishlab chiqilmagan, uch yilda vomida qarzdorlik yopilmagan[31]. Bu korxonalarda eng katta kamchiliklardan yana biri urug'larning sifati pastligi edi. Butun trest bo'yab 62,5 foiz urug'likning sifati past bo'lib, bu 1933 tonnani, 1 mln. rubldan oshiqroq summani tashkil etdi. Jumladan, Shaxrisabz paxta zavodida 90,4 foiz (714 tonna), Yakkabog' paxta zavodida 30 foiz (115 tonna), Qarshi paxta zavodida 58 foiz (484 tonna), G'uzor paxta zavodida 70 foiz (622 tonna) kamomad bo'lgan[32].

Paxta punkt xodimlarining loqaydligi tufayli paxtaning yonib ketish holatlari ham bo'lib o'tgan. O'zbekiston KP MQning 1958 yil 28 oktabr hamda O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1958 yil 1 dekabrda qaror va farmoyishlarida Samarqand-Qarshi iqtisodiy rayoniga qarashli paxta zavodlarida ahvol talabga javob bermasligi alohida ta'kidlanib o'tildi. Paxta zavodlarining asosiy kamchiliklariga paxta nam holatda taxlanishi, elektrsoblari ta'mirlanib bo'lib yotganligi, zavodga qarashli texnikalar nazoratdan chetda qolganligi, gaz trubalari noto'g'ri ulanganligi yoki ta'mirtablari ham xamutda ulab qo'yilganligi, kabel himoyasi yetishmaganligi kabi kamchiliklar alohida ko'rsatib o'tilgan. Hatto, bu kamchiliklar sababli 1958 yil 14 oktabrda Loish paxta tayyorlash punktida, 1958 yil 14 oktabrda Ziadin paxta tayyorlash punktida yong'inlar sodir bo'lgan. 1958 yil 7 aprel Jizzax paxta tayyorlash punktida sodir bo'lgan yong'in natijasida 21 ming rubl zarar ham ko'rilgan[33].

1970 yildagi yong'in sababli ko'rilgan zarar trest bo'yicha 4447 tonnani tashkil etdi. Bu Yakkabog' paxta zavodida 3922 tonnaga, Qarshi paxta zavodiga 419 tonna, G'uzor paxta zavodiga 301 tonnaga to'g'ri keldi va zavod iqtisodiyotiga katta zarar keltirgan[34]. Ayni paytda bu korxonalaridan chiqarilgan paxta tolasining sifati ham muammolar bo'lgan. Birinchi sort paxta tolasini yig'ishtirib olinsada davlatga topshirish vaqtida ular 4-5-6 sortlarga topshirilgan. Bunday chalkashliklar trest bo'yicha 10.644 tonnani, mablag'da 2.427 ming rublni tashkil etgan. Bu korxonalar bo'yicha quyidagicha bo'lgan. Shaxrisabz paxta tozalash zavodi 5.051 tonna, zarar 1.443 ming rublni, Yakkabog' paxta tozalash zavodi 3.082 tonna, zarar 666 ming rublni, Qarshi paxta tozalash zavodi 2.291 ming tonnani, 452 ming rublni, G'uzor paxta tozalash zavodi 232 tonna, 66 ming rublni tashkil etgan. Natijada davlatga 2.427 ming rubl zarar keltirgan[35].

Umuman, rejalar ketma ket berilsada, ishlab chiqarishni texnologiya bilan ta'minlashning o'zida muammolar juda ko'p edi.

ADABIYOTLAR

1. Ўз МА Р-2399-фонд, рўйхат – 1, йиғма жилд-141, 94 - варақ.
2. Алексеров Ю.Н., Нормуродов Х.Н. Самарқанд области. Справочник. – Тошкент. Ўзбекистон, 1982. – 52 бет.

3. Ўз МА Р-2612-фонд, рўйхат -1, йиғма жилд-24, 4 - варақ.
4. Ўз МА Р-2612-фонд, рўйхат -1, йиғма жилд-24, 6 - варақ.
5. Ўз МА Р-2612, рўйхат -1, йиғма жилд-24, 12 - варақ.
6. Ўз МА Р-2612-фонд, рўйхат -1, йиғма жилд-24, 17- варақ.
7. Ўз МА. Р – 2445-фонд, рўйхат - 2, йиғма жилд-6, -3-41 варақлар.
8. Ўз МА. Р-2445.фонд, рўйхат-2, йиғма жилд – 28, 12 – варақ.
9. Алексеров Ю.Н., Нормуродов Х.Н. Самарқанд области. – Справочник. – Тошкент. Ўзбекистон, 1982. – 52 бет.
10. Ўз МА. Р – 2312-фонд, рўйхат - 1, йиғма жилд-6, 21- варақ.
11. Ўз МА. Р – 2312-фонд, рўйхат - 1, йиғма жилд-6, 70- варақ.
12. Ўз МА. Р – 2598-фонд, рўйхат - 1, йиғма жилд-10, 5- варақ.
13. Ўз МА. Р – 2598-фонд, рўйхат - 1, йиғма жилд-10, 6 - варақ.
14. Ўз МА. Р – 2312-фонд, рўйхат - 1, йиғма жилд-6, 21 - варақ.
15. Ўз МА. Р – 2312-фонд, рўйхат - 1, йиғма жилд-6, 5- варақ.
16. Ўз МА. Р – 2312-фонд, рўйхат - 1, йиғма жилд-6, 28 - варақ.
17. Ўз МА. Р – 2312-фонд, рўйхат - 1, йиғма жилд-6, 28- варақ.
18. Ўз МА. Р – 2312-фонд, рўйхат - 1, йиғма жилд-6, 60- варақ.
19. Ўз МА. Р – 2312-фонд, рўйхат - 1, йиғма жилд-1, 20-22 варақ.
20. Ўз МА. Р – 2312-фонд, рўйхат - 1, йиғма жилд-6, 3-41 варақлар.
21. Ўз МА. Р – 2598-фонд, рўйхат - 1, йиғма жилд-10, 14- варақ.
22. ҚашкВ ДА. Ф-237, рўйхат -1, йиғма жилд - 30, 116 – варақ.
23. Ўз МА. Р – 1970-фонд, рўйхат- 5, йиғма жилд – 95, 48 – варақ.
24. ҚашкВ ДА. Ф-452, рўйхат -1, йиғма жилд - 52, 4 – варақ.
25. Қашқадарё ҳақиқати. 1960 йил 3 декабрь.
26. Ўз МА. Р – 2445-фонд, рўйхат - 2, йиғма жилд-1, -58-58 об варақлар.
27. Зиёдуллаев Н. Ўзбекистон енгил саноатини ривожлантириш истиқболлари. -Тошкент. Фан, 1972. – 40 бет.
28. СурхВ ДА. Фонд-45, рўйхат -1, йиғма жилд – 1295, 55- варақ.
29. СурхВ ДА. Фонд-45, рўйхат -1, йиғма жилд - 1295, 57 - варақ.
30. СурхВ ДА. Фонд-45, рўйхат -1, йиғма жилд - 1295, 58 - варақ.
31. ҚашкВ ДА. Фонд-504, рўйхат -1, иш – 80, - 25 варақ.
32. ҚашкВ ДА. Фонд-504, рўйхат -1 иш – 80, - 49 варақ.
33. Ўз МА Р-2445-фонд, рўйхат-2, йиғма жилд - 26, - 8 варақ.
34. ҚашкВ ДА. Фонд-504, рўйхат -1 иш - 80, 50 - варақ.
35. ҚашкВ ДА. Фонд-504, рўйхат -1 иш - 80, 51- варақ.



Nabijon NARZIYEV,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dots. v.b., (PhD)
E-mail: nabinarziev04@gmail.com

O'zMU professori, t.f.d. A.Ashirov taqrizi asosida

O'ZBEKLAR ETNIK QIYOFASIDA MULOQOT MADANIYATI STEREOTIPLARIGA DOIR MULOHAZALAR
Annotatsiya

Ushbu maqolada antropologiyada stereotip tushunchasiga izoh berilgan. O'zbeklar etnik qiyofasida muloqot madaniyati stereotiplari masalasi etnik, milliy, ijtimoiy, gender va yoshga xos stereotiplar misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Stereotip, gender, etnosotsiologiya, yoshlikka xos simbolizatsiya, etiket, perseptiv.

CONSIDERATIONS ON THE STEREOTYPES OF COMMUNICATION CULTURE IN ETHNIC IMAGE OF UZBEKS
Annotation

This article explains the concept of stereotype in anthropology. The issue of communication culture stereotypes in the ethnic image of Uzbeks is revealed on the example of ethnic, national, social, gender and age specific stereotypes.

Key words: Stereotype, gender, ethnosociology, youth symbolization, etiquette, eceptive.

СООБРАЖЕНИЯ О СТЕРЕОТИПАХ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ В ЭТНИЧЕСКОМ ОБРАЗЕ УЗБЕКОВ
Аннотация

В этой статье объясняется понятие стереотипа в антропологии. Проблема стереотипов культуры общения в этническом образе узбеков раскрывается на примере этнических, национальных, социальных, половых и возрастных стереотипов.

Ключевые слова: Стереотип, гендер, этносоциология, молодежная символика, этикет, перцептив.

Kirish. Har bir xalqning muloqot madaniyatida ishtirok etuvchining etiket me'yorlarida etniklik va ijtimoiy munosabatlar yetakchi o'rinda turadi. Bu esa muloqotda o'ziga xos stereotiplarni shakllanishiga olib keladi. Stereotip (qadimgi yunon tilidan – "mustahkam", "fazoviy" va tsos - "iz") – bu ijtimoiy guruh yoki hodisaning barqaror, soddalashtirilgan tasviri bo'lib, u shaxsiy tajribaga asoslanmagan, ammo tashqaridan qabul qilinishi bilan izohlanadi. Bu atama birinchi marta amerikalik jurnalist va davlat arbobi Uolter Lippman tomonidan 1922 yildan ashr etilgan mashhur "Ijtimoiy fikr" kitobida taklif qilgan [1]. Biroq, stereotiplarni o'ziga xos salbiy hodisa deb aytish mumkin emas. Ular dastlab ongimizga dunyo bo'ylab harakat qilishimizga yordam beradigan aqliy imtiyozlar sifatida paydo bo'lgan. Shunday qilib, ibtidoiy jamiyatlarda stereotiplar odamlarga yirtqichlarni zararsiz hayvonlardan, qabiladoshlarini esa begonalardan tezda ajratishga yordam berdi. Ong boshqalarni "skanerlash" va kim do'st va kim dushman ekanligini tushunish uchun o'z guruhining xarakterli tashqi xususiyatlarini qayd etgan. Vaqt o'tishi bilan, insonning ijtimoiy doirasi endi o'z qabilasi bilan chegaralanib qolmagan. Ijtimoiy guruhlar ko'payib borishi, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yanada murakkablashtirgan, bu esa tobora ko'proq stereotiplarni keltirib chiqargan [2].

Insonlar o'z oilasi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy guruhlar orqali stereotiplarni o'zlashtiradilar. Stereotiplar shaxslar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan stereotiplarni quyidagi turlarga bo'liish mumkin: etnik va milliy stereotiplar, gender stereotiplar, yoshga xos stereotiplar, diniy stereotiplar, ijtimoiy stereotiplar, tashqi ko'rinishga oid stereotiplar. O'zbeklar muloqot madaniyatida bunday stereotiplar o'zining tarixiy va zamonaviy xususiyatlari, ko'rinishlari bilan ajralib turadi. Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ba'zi stereotiplarni o'zbek etnik qiyofasida aks etishini etnografik dala tadqiqotlari va etnosotsiologik so'rov

natijalari, arxiv materiallari tahlili asosida yoritishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda ayollar ijtimoiy muloqot doirasini kengaytirish yuzasidan tanqidiy fikrlar bildirilmoqda. Jumladan, mahalliy urf-odat va an'analaridagi ta'qiq hamda cheklovlar, Markaziy Osiyo xalqlariga xos kelinning urning qarindoshlari bilan bevosita munosabatlarini ta'qiq qilinishi va kelin o'g'irlash odatlari orqali xotin-qizlar huquqlarining buzilishi holatlari ko'p uchramoqda [3]. Ushbu masalaning ildizlari ibtidoiy davrlarga borib taqaladi. Ayol kishi turmushga chiqar ekan, begona muhitga tushib qoladi, ayni vaqtda, urning qarindosh-urug'lariga qo'shila olmaydi va o'z yaqinlari bilan aloqani ma'lum darajada yo'qotadi. Keyinchalik ayrim jamiyatlarda ayol kishi urning urug'iga rasman kira boshlagan, lekin bunda uning tengsizligi an'anasiga qat'iy amal qilingan. U xalq yig'inlari, sud majlislari va madaniy yig'ilishlarda qatnashishdan chetga chiqib qolgan yoki ularda jimgina turib qatnashgan. Ayollarga belgilangan bir qator o'ziga xos patriarxat turmush ko'rsatmalari paydo bo'lgan, ya'ni erkaklarga yo'l berish, erkaklar to'plangan joylarga bormaslik, boshqa jamoat joylarida zarurat bo'lmasa ko'rinmaslik va h.k. Jamoat joylarida zaruratsiz ko'rinmaslik ayollarning odamlardan uzoqlashib ketishiga olib keldi, bu esa keyinchalik islom shariati tomonidan tasdiqlandi [4].

Tadqiqotlar davomida muloqot madaniyati bilan bog'liq gender tenglik masalasi o'rganilganda, muloqot madaniyatida xalqimizga xos ibo-hayo, or-nomus, sabr-toqat, andishalik, bir-so'zlik, qat'iyatilik ayol va erkaklar o'rtasida farq yaqqol ko'zga tashlanadi. Muloqot madaniyatida aynan ushbu jihatlar ajralib turishi asrlar davomida o'zbek xalqiga xos stereotiplarni shakllanishiga olib kelgan. XX asrning 30 yillar idan boshlab O'zbekiston hududida ayollarning ishlab chiqarish va xo'jalik ishlariga jalb qilinishi ijtimoiy munosabatlarda ularning rolini oshishiga olib kela boshlagan.

Ma'lumki, bir qator arxiv hujjatlarida ham ayolning oiladan tashqarida ham o'z yaqinlari bilan bo'lgan muloqot etiketlariga oid ma'lumotlar keltiriladi. XX asrning 50 yillarida kolxozlarda ishlaydigan erkaklar (asosan, mexanizatorlar)ga ularning ayollari tushlik olib kelib, dalalarda birga o'qatlanib, suhbat qilish odatlari ham ko'zga tashlanadi. Shuningdek, ayollarning o'z turmush o'rtloqlari bilan jamoatchilik joylarida erkin suhbatlashishlari kuzatiladi [5]. Dala-etnografik so'rovlarda bunday holatlar juda ham kam kuzatilganligi axborotchilar tomonidan ta'kidlandi [6]. Bizningcha, bunday holatlarni ushbu davr mafkurasidagi targ'ibot tashviqot ishlarining namunasi, deb bilish ham mumkin.

Iqtisodiy va siyosiy hayotdagi "gender" hamda "tenglik" tushunchalari bilan ijtimoiy munosabatlardagi mazkur atamalarni bir holat deb talqin qilmaslik kerak. Mazkur masalaga ba'zi g'arb mamlakatlarida bir deb qaralsada, o'zbeklar an'anaviy muloqot madaniyatida gender tenglik kuzatilmaydi va bunga mahalliy an'ana hamda marosimlar yo'l qo'ymaydi. Ushbu holatni oilaviy va jamoaviy munosabatlarda yaqqol ko'rish mumkin.

O'zbeklar orasida muloqotlarda "erkak bo'l", "yigit so'zi" kabi nomusiy iboralar genderlik mezonlarida erkaklarning ustunlik xususiyatini anglatgan. O'zbek muloqot madaniyatida ushbu masala amaldagi qonunchilikdan ko'ra ko'proq, an'ana va urf-odatlariga amal qilinishini ko'rish mumkin. O'tkazilgan dala tadqiqotlarida "Oiladagi muloqot madaniyatida erkak va ayollarning teng bo'lishlariga munosabatingiz" deb berilgan savolga respondentlarning 82 foizi erkaklar (otalar)ni ko'rsatib, ushbu ustunlik farzandlar tarbiyasida ijobiy natijalarga olib kelishi va jamoatchilik tomonidan to'g'ri qabul qilinishining ahamiyati katta ekanligini ta'kidladilar. Mazkur dala tadqiqotlarida jamoatchilik joylari yoki oilaga mehmon kelganda ayolning o'z eriga itoatkor ekanligi hamda hurmat qilishini o'z xatti-harakatlari bilan ko'rsatib turishi ibo-xayolilik va oilaga xos munosabat etiketi ekanligini namoyon etilishi aniqlandi [7].

O'zbek xalqi muloqot madaniyatining yosh bilan bog'liq stereotiplari masalasi ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. "Kattaga hurmat bo'l, kichikka izzat bo'l", "Kattalar gapirganda kichiklar aralashmaydi" degan maqollar borki, bu yoshga ko'ra munosabatlar mezonlarini o'zida namoyon etganligidan darak beradi. Qadimdan o'zbeklarda dasturxon atrofi, oilaviy munosabatlar va jamoaviy marosimlarda bo'ladigan muloqotlarda yoshning katta-kichikligi inobatga olib kelingan. O'tkazilgan etnografik so'rovnoma natijalariga ko'ra, "muloqot vaqtida suhbatdoshingizning qaysi jihatlarini ko'proq e'tiborga olasiz?" degan savolga respondentlarning 62 foizi insonlarning yoshi, 34 foizi avvaldan tanish yoki yaqin bilishiga ko'ra, 4 foizi esa tashqi ko'rinishiga e'tibor berishini ta'kidlagan. Dasturxon atrofidagi muloqotlarda qaysi omil yetakchi rol o'ynaydi?" deb berilgan savolga respondentlarning 77 foizi insonlarning yoshi, deb javob berdi. Shuningdek, o'zbeklarda o'zaro muomalada o'zidan kattalar oldida andisha saqlash odatlari ham borki, ularda yosh va ijtimoiy omillar yetakchilik qilgan.

Antropologiya va etnologiyada muloqot madaniyati stereotiplarini yosh darajalar kesimida tadqiq etish masalasi "Yoshlikka xos simvolizatsiya" atamasi bilan tilga olinadi. Jumladan, inson antropologiyasida yosh o'tgan sari o'zgarishlar kuzatilganidek, muloqot normalarida ham yoshning ta'siri kattadir. Antropolog I. S. Konning ta'kidlashicha, inson yoshining ijtimoiy hayotga moslashib borishi, o'zligini anglashi va o'zaro munosabatlarda yoshning ahamiyati muhimligini ta'kidlab, madaniyatda yoshga doir belgilarni quyidagi 5 ta jihatini sanab o'tadi[8]. Aynan ushbu jihatlarini o'zbek muloqot madaniyati doirasida quyidagicha izohlash mumkin.

Har bir yosh davrida muloqot madaniyatiga xos belgilab berilgan meyorlarning mavjudligidir. Buni shunday izohlash mumkinki, yoshi kattalar munosabatlarida uyat yoki mumkin bo'lmagan odatlardan o'zlarini ancha tiyishlari kuzatiladi. Shuningdek, mazkur jarayonga yoshlar tomonidan odatiy holat sifatida qaralishi, ba'zida so'zlashuv jarayonida haqoratli so'zlarning ishlatilishi o'zaro keskin tanqidlarga uchramasligini kuzatish mumkin. Ijtimoiy hayotda insonning ma'lum bir yoshga yetishi bilan bog'liq bo'ladigan o'zgarishlarda muloqot uzvlari, ya'ni muloqot bilan bog'liq xatti-harakatlar ko'proq foizni tashkil etadi. O'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalarda "Muloqot jarayonida inson yoshining ahamiyati bormi?" degan savolga respondentlarning 70 foizi "odatda, yosh kattalashgan sari insonlar muloqot vaqtida tajribalroq bo'ladilar", 30 foizi yoshi kattalar muloqot vaqtida yoshlarga nisbatan perseptivlik [9] tomondan ustunlik qilishini ta'kidladilar.

Muloqot madaniyatida yoshga doir munosabatlarda xulq-atvordagi farqlar nazarda tutiladi. Bu esa tasodifiy emas, chunki xulq-atvor stereotiplari madaniyatning etnik o'ziga xosligini aniq ifoda etadi [10]. Har bir jamiyatda ishlab chiqilgan stereotipik xulq-atvor shakllari mavjud bo'lib, har doim ham ularni marosim va odatlar bilan boshqarib bo'lmaydi. Yoshga oid stereotiplardagi o'zgarishlar, avvalo, muloqot etiketlari, bolalarning ijtimoiylashuvi, texnologik jarayonlar ta'siri va boshqalar uchun xos xususiyatdir. Ushbu turdagi xulq-atvorlar yuzasidan ba'zi etnografik o'rganishlar mavjud bo'lib, avvalo, ular bolalarni tarbiyalash, o'qitishning an'anaviy usullari, shuningdek, muloqot stereotiplarini o'rganish maqsadida qo'llanilgan [11].

O'z o'rnida shuni ham alohida qayd etish kerakki, yoshga oid stereotiplarda sotsializatsiya jarayonining ahamiyati katta. Mazkur jarayonni amalga oshirishda asosiy vositachi hisoblangan ota-ona, qarindosh, tengdosh-tengqurlar va jamoa faollari kabilarning vazifalari o'zgaradi, shuningdek, bolalarni o'qitish hamda tarbiyalashni amalga oshiruvchi maxsus institutlar paydo bo'ladi [12]. Buni shunday izohlash mumkinki, muloqot madaniyatida yoshga doir stereotiplar o'zgaruvchan va ta'sirlarga beriluvchan bo'lib, ular davrlar o'tishi bilan o'zining xususiyatlarini o'zgartirib boradi. Katta avlod vakillari kichiklarga xos bo'lgan muloqot madaniyatiga oid stereotiplarni ba'zida o'z madaniyatlariga xos bo'lmagan odatlar sifatida, aksincha, yosh avlod vakillari kattalarga xos muloqot odatlariga eskilik sarqiti sifatida qaraydilar va ular oldida andishalik yoki qarshilik pozitsiyasini tanlaydilar.

Insonlar o'rtasidagi muloqot madaniyatida kuzatiladigan yosh bilan chegaralanuvchi ramziy (qiyosiy) omillarning ham ahamiyati kattadir. O'zbeklarning muloqot kontekstida farzandlar, ayniqsa, o'g'il bolalarni biror-bir faoliyatga yo'naltirishda uni maktabni yaqinda tugatishi, 18 yoshga to'lganligiga urg'u berib gapirilishi, uylanmagan yoshlarga nisbatan yaqinda 30 yoshga kirishi, yomon odatlari bor insonlarga nisbatan "Qirqa kirib ham quyilmaganligi" kabi iboralarning yosh bilan qiyoslanish holatlarida kuzatish mumkin.

Muloqot madaniyatida yoshga doir odatlar o'zida milliy va etnik xususiyatlarini ko'proq namoyon etadi. Bunga oilada bolaga nisbatan muloqotda erkalash, yoshi katta va kichiklar o'rtasida salomlashish odatlarini misol sifatida keltirish mumkin. Ijtimoiylashish jarayonida yosh bilan bog'liq odatlarda kattalar o'z navbatida o'rnak vazifasini o'tab, ular (ota-ona, yaqin qarindoshlar, ta'lim muassasalari) tomonidan nazoratga olib borilgan. yoshga oid submadaniyatlar – ya'ni, muloqot jarayonida xulq-atvor va munosabatlarning ajralib turishi nazarda tutiladi. Olib borilgan kuzatuvlar natijasida har bir yosh darajalari (bolalar, o'smirlar, yoshlar, kattalar, qariyalar)ning muloqot vaqtida o'zlari e'tirof etadigan, tayanadigan va to'g'ri deb biladigan submadaniyatlari mavjudligi aniqlandi. Ushbu masalada

o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma yoshlarning o'z ot-onalari bilan bog'liq munosabatlar meyorlari o'rganilganda, respondentlar quyidagi faktlarga ko'proq to'xtalgan: ko'pincha kattalar yoshlarning xulq-atvoridan noliydi (78%), yoshlarni submadaniyatlarga beriluvchan, deb biladi (67%), yoshlar o'z maqsadlari haqida ota-onalariga ochiq aytmaydi (71%), deb hisoblaydi [13].

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, yoshga oid submadaniyatlar o'z chegara doirasiga ega bo'lib, xulq-atvor odatlarida o'zini namoyon etadi. Ushbu chegara inson yoshi, ijtimoiylashuv jarayoni va uning etnik mansubligiga xos bo'lgan an'ana hamda urf-odatlar ta'sirida yo'qoladi yoki sinkretik xususiyatini namoyon etadi. Olib borilgan dala tadqiqotlarida aniqlanishicha, XX asrning 80-90- yillarida o'smir-yoshlar o'rtasida (yigitlar nazarda tutilmoqda) salomlashish vaqtida o'pishib ko'rishish odati ko'zga tashlangan [14]. Mazkur odat o'z davrida submadaniyat sifatida kattalar tomonidan e'tirof etilsa-da, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar jarayonida muloqot madaniyatiga xos yaqinlik, do'stlik va qarindoshlik aloqalarining ramzi sifatida qaralgan.

Keyinchali ushbu submadaniyatning bir ko'rinishi sifatida o'zining ijtimoiy ahamiyatini yo'qota boshlagan.

Xulosa va takliflar. Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, o'zbek etnik qiyofasida muloqot madaniyati stereotiplari yoshga oid xususiyatlarning ahamiyati katta bo'lib, ijtimoiylashuv jarayonida bir-birini to'ldirib keladigan bosqichlarga ega ekanligini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Muloqot madaniyatida har bir yosh bosqichi o'z axloq normalari va etnografiyasini yarata olishi bilan xarakterlanadi.

Muloqot madaniyatida xalqimizga xos ibo-hayo, or-nomus, sabr-toqat, andishalik, bir-so'zlilik, qat'iyatlilik ayol va erkaklar o'rtasida farq yaqqol ko'zga tashlanadi. Muloqot madaniyatida aynan ushbu jihatlar ajralib turishi asrlar davomida o'zbek xalqiga xos etnik qiyofaning shakllanishiga olib kelgan. Muloqot madaniyatida ma'lum bir tizimga solingan, o'z chegara doirasi va tarixiga ega bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan, o'zbeklarga xos mintalitetni o'zida mujassam etgan stereotiplari mavjud bo'lib, ular etnohududiylik, etnik o'ziga xoslik, xalq etnografiyasi, turli urf-odatlar, innovatsiya va transformatsion jarayonlar ta'sir doirasida bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Lippmann W. Public opinion. Transaction Publishers New Brunswick (U.S.A.) and London (U.K.) P.79 (223)
2. Катуржевская Д. Прочь из моей головы: что такое стереотипы и как с ними бороться. <https://trends.rbc.ru/trends/social/6308b2e59a7947f90dc1bcf8>
3. Алимжанова Д. Гендер ва ривожланиш. Гендер муносабатлари назарияси ва амалиётига кириш. – Тошкент, 2007. – Б. 29; <https://drive.google.com/file/d/10lqL8BZ829awGHqjBgAUjC6TqwPtM0Yz/view>.
4. Азимова Н., Шермухаммедова Ж. Гендер ва ривожланиш. – Тошкент, 2007. – Б. 352.
5. O'zRKFFA materiallari. № 0-40515. Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanida yashagan Yo'ldosh Ergashev o'z turmush o'rtog'i bilan sur'ati. 1957 yil
6. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati aholi punktlari. 2018 yil.
7. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Qorabog' qishlog'i. 2018 yil.
8. Кон И. С. К проблеме возрастного символизма // Советская этнография. – 1981. – № 6. – С. 100.
9. Perseptiv – lotincha "percipere" so'zidan olingan bo'lib, "qabul qilmoq" degan ma'noni anglatib, muloqot vaqtida suhbatdoshni tushunish va uni o'rniga o'zini qo'ya bilishni o'zida aks ettiradi. <https://psychology.academic.ru/1636/перцептивный>
10. Бромлей Ю. В. Этнос и этнография. – М.: Наука, 1973. – С. 230.
11. Бгажноков Б. Х. Очерки этнографии общения адыгов. – Нальчик: Эльбрус, 1983. – С. 232.
12. Убайдуллаева Б. М. Ўзбекларнинг ёш авлод тарбияси борасидаги анъаналари ва замонавийлик. – Тошкент: Янги нашр, 2010. – Б. 137.
13. Sotsiologik so'rovnoma natijalari. 2013-2014 yillar. Toshkent shahri.
14. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati G'ijduvon tumani. 2018 yil.



UDK: 396.21.(575.1)

Nilufar RAXMATOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

O'zbekiston Milliy universiteti professori X.Yunusova taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARING BANDLIGINI TA'MINLASHDA KASANACHILIKNING O'RNI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)

Annotatsiya

O'zbekistonda xotin-qizlar bandiligini ta'minlash davlat siyosati darajasida bo'lib, bu yillarda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ayollar tadbirkorligiga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni shakllantirish jarayonlariga alohida e'tibor qaratildi. Kasanachilikni joylarda tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha har bir viloyat, tuman, shaharlarda hududiy komissiyalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Ular sanoat korxonalarini bilan kasanachilik o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish, korxonalarining buyurtmalari bo'yicha uyda ishlaydigan fuqarolarni asbob-uskunalar, xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar bilan ta'minlash uchun barqaror shart-sharoitlar yaratish bilan shug'ullandilar. Maqolada vaqti matbuot, birlamchi arxiv materiallari asosida Navoiy viloyatida kasanachilikni rivojlantirishga oid amalga oshirilgan jarayonlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Tadbirkor, kichik biznes, kasanachi, daromad, so'zana, kashta, qandolat, tarmoq, qurilish industriyasi, kredit, xizmat ko'rsatish, mutaxassis, qo'l mehnati, norasmiy sektor, bandlik dasturi, xufyona shakl, mehnat resurslari, adras, ipak, kalava ip, sumka, hamyon, yostiqlik jild.

РОЛЬ НАДОМНОЙ РАБОТЫ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЗАНЯТОСТИ ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ)

Аннотация

Обеспечение занятости женщин в Узбекистане находится на уровне государственной политики и особое внимание уделялось процессам формирования женской занятости, женского предпринимательства, развитие малого бизнеса и частного предпринимательства. В различных областях, районах и городах республики развернулась деятельность областных комиссий по организации и развитию на дому. Они занимаются развитием кооперации промышленных предприятий и домашних хозяйств, тем самым создавая стабильные условия для обеспечения граждан, работающих на дому, оборудованием, сырьем, комплектующими и полуфабрикатами. В статье на основе изучения периодической печати и архивных материалов анализируются процессы развития приусадебного хозяйства в Навоийской области.

Ключевые слова: Предприниматель, малый бизнес, домохозяйка, доход, кузнец, вышивка, кондитерская, сеть, стройиндустрия, кредит, услуга, специалист, ручной труд, неформальный сектор, программа занятости, неформальная форма, трудовые ресурсы, адрес, шелк, пряжа, сумка, кошелек, подушка.

THE ROLE OF HOME WORK IN ENSURING WOMEN'S EMPLOYMENT IN UZBEKISTAN (USING THE EXAMPLE OF NAVOI REGION)

Annotation

Ensuring women's employment in Uzbekistan is at the level of state policy and special attention was paid to the processes of formation of women's employment, women's entrepreneurship, development of small businesses and private entrepreneurship. In various regions, districts and cities of the republic, the activities of regional commissions for the organization and development of home-based activities have unfolded. They are developing cooperation between industrial enterprises and households, thereby creating stable conditions for providing citizens working at home with equipment, raw materials, components and semi-finished products. The article, based on the study of periodicals and archival materials, analyzes the processes of development of homestead farming in the Navoi region.

Key words: Entrepreneur, small business, housewife, income, blacksmith, embroidery, confectionery, network, construction industry, credit, service, specialist, manual labor, informal sector, employment program, informal uniform, labor resources, address, silk, yarn, bag, wallet, pillow.

Kirish. Mustaqillik yillarining dastlabki vaqtlaridan ayollarni huquqiy mavqeyi va jamiyatda tutgan o'rnini qonun doirasida o'zaro tenglashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. 1990 yillar ning boshlarida tadbirkorlikning rivojlanishi natijasida shahar va qishloq joylarda ko'plab xotin-qizlar kichik biznes bilan shug'ullana boshladilar, keyinchalik ularning aksariyati kichik do'konlar va korxonalar ochishga muvaffaq bo'ldi. Xotin-qizlar bilimining oshishi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotning o'sishi bilan bog'liq bo'ldi. 1992 yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Vazirlar Mahkamasiga xotin-qizlar ahvolini yaxshilash bo'yicha Davlat dasturini ishlab chiqish vazifasini qo'ydi. Belgilangan vazifalar qatorida mahalliy xom ashyodan har tomonlama foydalanish va

aholining ish bilan band bo'lmagan qismini ishlab chiqarishga jalb etish barobarida xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ayollar tadbirkorligiga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni shakllantirish jarayonlariga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumotlarga ko'ra MDH davlatlari qatori O'zbekistonda ham ayollar orasida ishsizlik oshib, mustaqillikning dastlabki yillaridan respublika aholisining 49,9 foizini tashkil etgan xotin-qizlarning[1] ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ishtiroki ham kamayib, 1992 yilda mehnatga qobiliyatli yoshdagi jami ayollarning 46,5 foizi hissasiga to'g'ri keldi, 1997 yilda esa bu 42,2 foizga to'g'ri keladi[2]. 1994-1998 yillar oralig'ida mehnat birjasiga murojaat qilgan ayollar soni ham 1,5 baravarga oshdi. Minmakroekonomstat ma'lumotlarga ko'ra, 1997 yilda 54,5 foiz ayollar ishlab turgan ishini yo'qotib

qo'yishgan xavfsiradilar, 22 foiz ayollar bu masalada cho'chib turdilar[3].

Manbalar sharhi. XX asr bozor muosabatlariga o'tish yillari O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va ularning muammoli jihatlarini, ayniqsa xotin-qizlarning bandligini oshirish tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan ilmiy adabiyotlarda o'z aksini topdi. Biroq, kasanachilik bilan bandlik masalalarini hal etishga oid ma'lumotlar vaqtli matbuot hamda joriy arxiv ma'lumotlarida uchraydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Manbashunoslik va tarixshunoslik sohalariga oid paleografik, matnshunoslik, siyosatshunoslik, sivilizatsion yondashuv, kontent analiz, dialektik, mikrotarix (microhistory), sinergetik, qiyosiy tahlil (somparyativ analysis), statistik tahlil (statistical analysis), tizimli tahlil, muammoviy-maqсадli yondashuv kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot tahlili va natijalari. Xotin-qizlarni kichik biznes va tadbirkorlikka jalb etish, ulardan mutaxassis kadr tayyorlash va bandligini ta'minlash borasidagi davlat siyosatida xotin-qizlar nodavlat notijorat tashkilotlari o'rni alohida ahamiyat kasb etdi. Aholini ish bilan ta'minlash, xususan, ayollarning bandligini ta'minlash hududiy dasturlarning amalga oshirilishi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ayollarning uyda o'tirib, qo'l mehnati bilan shug'ullanishlariga sharoit yaratish bilan bog'liq masalalar xususida bir qator ishlar olib borildi.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirish davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasi va kasanachilikning turli shakllarini keng joriy etish, qishloq joylarda chorvachilikni rivojlantirishni rag'batlantirishga alohida ahamiyat berildi[4]. Ayni paytda korxonalarda kasanachilik faoliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda ayollarni uy qo'l mehnati bilan shug'ullanishlariga sharoit yaratib beruvchi, bu mehnatni qonuniy yo'l bilan mustahkamlashga xizmat qiluvchi hujjatlar kasanachilik va hunarmandchilik orqali ayollarni ish bilan ta'minlashning asosiy omillaridan biri bo'ldi. Ish bilan band bo'lmagan aholini ishlab chiqarishga jalb qilish, oila byudjeti daromadlarini ko'paytirish, uy mehnatidan foydalangan holda butlovchi qismlar, tayyor mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish, yirik korxonalar samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2006 yil 5-yanvarda "Yirik sanoat korxonalarini bilan kasanachilikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3707-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmoni amalga oshirishni ta'minlash choralari bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 11 yanvardagi 4-son Qarori va shu qaror yuzasidan "Kasanachilik to'g'risidagi Nizom", 2008 yil 1 iyuldagi "Kasanachilikni tashkil etishni takomillashtirish hamda mahalliy davlat hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining uni rivojlantirish parametrlari bajarilishi yuzasidan javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 146-son qarori hamda 2008 yil 1 iyulda "Kasanachilikni tashkil etishni takomillashtirish hamda mahalliy davlat hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining uni rivojlantirish parametrlarining bajarilishi yuzasidan javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 146-son qarori amaliyotga tadbir etildi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2007 yil 6-apreldagi "Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 616-sonli qarori kasanachilik faoliyatini rivojlantirishning mantiqiy davomi sifatida qabul qilindi. Unga ko'ra kasanachilarga korxonalar tomonidan berilgan jihoz, asbob-uskuna va inventoriy mulk solig'idan ozod etildi, korxonalar

kasanachilar mehnatiga haq to'lash jamg'armasi ijtimoiy to'lovdan 2006 yil 1 fevraldan boshlab 5 yilga ozod etildi, kasanachi pensiya olish uchun ish stajiga ega bo'lishi belgilandi, jamg'arib beriladigan pensiya tizimida ishtirok eta boshladi, kasanachilik amalga oshirilayotgan turar joydan noturar joyga o'tkazilishi taqiqlandi, kasanachilar kommunal to'lovlar uchun haqni aholi uchun belgilangan ta'rifda to'lashi hamda kasanachilar faoliyatini asosiz tekshirishga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yildi[5]. Natijada, ish beruvchilar kasanachilarga asbob-uskunalar, jihozlar, materiallar va xom ashyo yetkazib beruvchi hamda ish stajini hisoblaydigan, pensiya va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar tayinlash huquqini ta'minlaydigan va mehnatiga yarasha haq to'laydigan zamonaviy yuridik shaxs hisoblandi[6].

Bu borada Navoiy viloyatida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilganligini alohida ta'kidlash lozim. Navoiy viloyati mamlakatning eng katta viloyati hisoblanib, 2016 yil holatiga ko'ra, uning umumiy maydoni 110,99 ming km² ni tashkil qildi. Navoiy viloyati katta tabiiy resurslariga, xususan, oltin, volfram, fosforit, qum, sement, ohaktosh va boshqa mineral resurslarga ega. Shuningdek, viloyatda uranning yirik zahiralari mavjud bo'lib, aynan shu zahirlardan qazib olinayotgan uran O'zbekistonning dunyo bo'yicha uran ishlab chiqarish reytingida yuqori o'rinlarni egalladi[7]. Viloyatda neft va gazning bir nechta konlari – metallurgiya, tog'-kon metallurgiyasi, kimyo, paxta tozalash, oziq-ovqat, qurilish materiallarini ishlab chiqarish sanoati rivojlangan bo'lib, eng yirik sanoat korxonalarini – Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati, Navoiy GES, "Navoiy azot", Navoiy sement zavodi, "Elektrkimyo" AJ, "Nurota marmar" AJ va boshqalardir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 11 yanvardagi "Kasanachilikni tashkil etishni takomillashtirish hamda mahalliy davlat hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining uni rivojlantirish parametrlarining bajarilishi yuzasidan javobgarlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori chiqqanidan so'ng Navoiy viloyatida ham kasanachilikni rivojlantirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar, ayniqsa, ishchi kuchlari ortiqcha bo'lgan kichik shaharlar va qishloq tumanlarida aholini mehnat faoliyatiga keng jalb etish, shuningdek shu asosda aholini ish bilan bandligi va daromadlarini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. 2006 yildan 2008 yilgacha bo'lgan vaqtda viloyatda 11.2 mingdan ortiq kasanachilik ish o'rinlari tashkil etildi[8].

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi Farmonidan kelib chiqib, "Qizilqumsement" AJda kasanachilik bo'linmasi tashkil etildi. Bo'linmada ikkinchi chorak yakuniga boshliq, 1 nafar tikuv ustasi, 2 nafar patdo'z, 48 nafar tikuvchi qabul qilindi. 2007 yil ga kelib 10 nafar tikuvchilik ishi o'rni yaratildi. 2012 yil korxonada maxsus ish kiyimlariga talab oshganligi bois yana 10 nafar tikuvchi ishga qabul qilindi. Bo'linma tikuvchilari qishki va yozgi maxsus ish kiyimlari, issiq kurta, nimcha, stullarga g'lof, choyshablar, korxonaning tibbiyot xodimlariga, ichki qo'riqlash, yong'in xavfsizligi xodimlariga maxsus kiyim tikish bilan shug'ullandilar. Xatto, 2013 yil 12 nafar erkaklar korxonaning yordamchi xo'jaligi uchun yem-xashak tayyorlovchi qilib ishga olindi[9]. Biroq, kasanachilikka alohida e'tibor berib kelayotgan davlatlar bilan solishtirganda O'zbekistonda kasanachilikni rivojlantirishda imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilmaganligi ham ma'lum bo'ladi. Bu kamchiliklar aholida kasanachilik faoliyatining afzalliklari va ish, xizmat taklif qilayotganlar haqidagi axborotlarning kamligi, kasanachilar o'rtasida raqobat muhitining kam shakllanganligi kabilarda ko'rindi[10].

"Ayollarga andozalarni bergandan keyin korxonaga borib o'tirish yoki kerakli soatni ishlab berishi shart

bo'lmadi", - deydi 1999-2000 yillarda Navoiy viloyat Karmana tuman iqtisod masalalari bo'yicha tuman hokim o'rinborsari bo'lib ishlagan Musallam Ibragimova. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2006 yil 5 yanvarda "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar o'tirasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3707-son Farmoni chiqqanidan so'z viloyatda kasanachilikka yanada ko'proq e'tibor berila boshladi. Bu vaqtga qadar ayollar qo'l mehnati bizda yaxshi rivojlanib kelgan edi. Farmon chiqqanidan so'ng kasanachilikda uch tomonlama shartnoma tuzildi va u korxonalar – mahalla – kasanachi tartibida tashkil etildi. Bu uyda o'tirgan ayollar uchun juda qulay bo'ldi. Mahalla faollari uyda o'tirgan ayollarni ish bilan ta'minlash maqsadida buyurtmaga ehtiyoji bor korxonalardan ish topib ayollarni ish bilan tanishtirdilar. Shu tariqa, ayollarni asta-sekin ish bilan ta'minlashni yo'lga qo'ya oldik. Hatto ishlab chiqarish korxonalariga haftaning ma'lum bir vaqtida sataroshlar borish ham tashkil etildi, tasavvur qiling, bizda korxonalar uch smenada ishlaydi, ular ishdan chiqib, maishiy ehtiyojlariga chiqishlari uchun sharoit yaratish maqsadida korxonalar xodimlarining ishdan chiqishiga yoki tushlik vaqtida korxonaning o'zida sataroshlik xizmati yo'lga qo'yildi. Kasanachilar ko'proq, "Simzavod", "Navoiyisliqelektrstansiyasi", "Naoviyazot", "Navoiykonmetallurgiya", "Qizilqumsement" AJda bo'ldi [11].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmonining "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish" nomli 3-yo'nalishi va "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning usutvor yo'nalishlari" nomli 4-yo'nalishida ham 2017-2021 yillar da kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, oilaviy biznes va kasanachilikni rivojlantirishni, aholi bandligi va turmush darajasi yaxshilanishini yangi bosqichga olib chiqish nazarda tutildi[12]. Jumladan, band bo'lmagan aholini ishlab chiqarish faoliyatiga jalb qilishning samarali vositalaridan biri bo'lgan kasanachilikni yanada rivojlan-tirish hamda zamonaviy mashina, asbob-uskunalar, xom ashyo va materiallarni xarid qilish uchun moliyaviy resurslar bilan foydalanishni kengaytirish orqali oila byudjetlari daromadlarini ko'paytirish maqsadida 2017 yil 24 may O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasanachilikni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori chiqdi. Unga ko'ra, O'zbekiston

Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Markaziy banki, Moliya vazirligi va tijorat banklarining Toshkent shahrida tijorat banklari tomonidan "Kasanachilikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha konsorsium" mas'uliyati cheklangan jamiyati 50 mlrd. so'mlik boshlang'ich ustav kapitali bilan tashkil etildi[13]. Belgilangan vazifalar natijasida Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan xotin-qizlar bandligini ta'minlash maqsadida 98 ta kichik sexlar ochilib, 257 nafar ayollar bandligi ta'minlandi hamda 466 ta oila tadbirkorlikka, 103 ta oila kasanachilikka yo'naltirildi[14].

2017 yilda birgina Navoiy viloyatida 25 ta korxonada 315 ta kasanachilik ish o'rinlari yaratilgan[15]. Tabiiyki, bu hol bugungi kunga kelib, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda kasanachilik va uyda o'tirib qo'l mehnati bilan shug'ullanuvchi ayollarning mehnatini himoya qiluvchi qonunchilik asoslarini mustahkamlab borish davr talabiga aylanmoqda. Kasbi hamshira bo'lgan 1970 yilda Nurota tumani G'ozg'on qishlog'ida tug'ilgan Samiyeva Muazzamning o'zi 22 yilda vomida kashtachilik bilan shug'ullanib kelgan. S.Fayziyevadan saboq olgach, tikkan kashtalariga Samarqanddan, Buxorodan xaridor topgan. Shundan so'ng uch marotaba Turkiya safarida bo'lib, muntazam xaridorlar topishga muvaffaq bo'lgan. M.Samiyeva ham o'z ishini ochib, ayollarni ish bilan ta'minlashni yo'lga qo'yib olgan. M.Samiyevaning ta'kidlashicha, Qizilcha qishlog'idagi ayollar o'n besh yilda vomida u bilan birga ishlaganlar. Mahsulotni shu yerda tikib, qishloqqa olib borib, u yerdagi xaridorlarga sotdilar[16]. Bu holatlar tabiiyki, uyda o'tirib qo'l mehnati bilan shug'ullanuvchi ayollarning mahalliy aholini ish bilan ta'minlash, oilaviy byudjetni yaxshilash yo'lidagi harakatlaridan dalolat berdi.

Xulosa. Umuman, mustaqillik yillari mehnat bozorida vaziyat barqarorligi va aholi bandligini ta'minlash uchun investitsiya kiritish yo'li bilan ko'p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirish, xususiy tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash mehnat bozorini samarali rivojlantirish, aholining ish bilan bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirishga qaratishdan iborat bo'ldi.

Kasanachilik sohasi esa bandlik va oila byudjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha manbaiga aylanib bordi. Ayni aytda kasanachilik fuqarolarni, birinchi navbatda xotin-qizlar, ayniqsa, ko'p bolali ayollarni, yordamga muhtoj, nigoronlar va mehnat qobiliyati cheklangan boshqa shaxslarni ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etish uchun muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etdi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон рақамларда. Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кўмитаси Тезкор матбаа ва техник хизмат кўрсатиш бўлими, 2017. – Б.51.
2. Ўзбекистон аёллари ва эркалари. – Тошкент:Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кўмитаси Статистик материаллар тарқатишни техник кўллаб-қувватлаш шўъбаси, 2002. –Б.107.
3. ЎзМА. М-37, рўйхат – 1, йиғма жилд - 4518, - 109 varaқ.
4. Бозоров А., Мадихонов Ш. Аҳоли бандлигини таъминлаш иқтисодий муносабатларнинг етуклик даража-сини белгиловчи муҳим омил // "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий электрон журнали. –№3, июнь, 2017.-2 бет.
5. ЎзМА. М- 170, рўйхат – 1пр, йиғма жилд – 69, - 79 varaқ.
6. Ражабов Ў. Касаначилик – бандлик ва оила бюджети даромадларини оширишнинг кўшимча манбаи // Иқтисод ва молия. -№6, 2017. – 12 б.
7. Вохидова М. Навоий вилоятида кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik ривожланиши ҳолатининг таҳлили // Иқтисод ва молия. 2017. - №9, – 49 б.
8. Навоий вилоят ҳокимлиги архиви. Ф-100, рўйхат – 1, йиғма жилд -797, -234 varaқ.
9. "Қизилқумцемент" АЖ жорий архиви материаллари
10. Ражабов Ў. Касаначилик – бандлик ва оила бюджети даромадларини оширишнинг кўшимча манбаи // Иқтисод ва молия. -№6, 2017. – 13 б.
11. Navoiy viloyat Karmana tuman iqtisod masalalari bo'yicha 1999-2000 yillarda tuman hokim o'rinborsari bo'lib ishlagan Musallam Ibragimova bilan qilingan suhbatdan. Suhbat 2022 yil 20 avgustda yozib olingan.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон Фармони // Халқ сўзи. 2017 йил 8 февраль.

13. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллат ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича илмий – оммабоп рисола. Тошкент. Маънавият, 2017. - 37 бет.
14. Нажмутдинова Д. Хотин-қизларни ижтимоий қўллаб –қувватлаш: муаммо ва ечимлар / Хотин-қизларни ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш-мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг муҳим омили мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани мақоалалари тўплами. 26 февраль 2019 йил. – Тошкент. “IQTISOD-MOLIYA”, 2019. – 14 бет.
15. Atajanova D. Қишлоқ аёллар бандлигининг ўзига хос жиҳатлари // ProAcademy. Volume 1. Issue 1. 4-1-2018. Features of employment of women residing in rural areas - 63 бет.
16. Navoiy viloyati, Nurota tumani Eshon Sudur mahallasida istiqomat qiluvchi 1970 yilda tugʻilgan Muazzam Samiyeva bilan qilingan suhbatdan. Suhbat. 2023 yil 7 yanvarda yozib olingan.



UO'K:94(575.1)

Behzodbek TURSUNOV,

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Gumanitar fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi, (PhD)

E-mail: behzod.tursunov.88@mail.ru

O'DJTU professori D.Bobojonova taqrizi asosida

HISTORY AND EXPERIENCE OF EASTERN LANGUAGE TEACHING IN UZBEKISTAN

Annotation

In the article, due to the introduction of orientalist training in Uzbekistan and the increased attention to oriental languages in the years of independence, at the same time, due to the increasing influence of the world's leading countries in the economic, cultural and scientific development, as well as in the world geopolitical scene, the Uzbek people The desire to learn foreign languages in addition to one's mother tongue has become a historical necessity.

Key words: East, education, oriental studies, university, institute, Arabic, Persian, Chinese, Turkish, Decision, geopolitics.

ИСТОРИЯ И ОПЫТ ПРЕПОДАВАНИЯ ВОСТОЧНОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье в связи с внедрением востоковедческой подготовки в Узбекистане и усилением внимания к восточным языкам в годы независимости, в то же время, в связи с усилением влияния ведущих стран мира в экономической, культурной и научного развития, а также на мировой геополитической арене узбекского народа. Стремление изучать иностранные языки помимо родного стало исторической необходимостью.

Ключевые слова: Восток, образование, востоковедение, университет, институт, арабский, персидский, китайский, турецкий, Указ, геополитика.

O'ZBEKISTONDA SHARQ TILLARI O'QITILISHI TARIX VA TAJRIBA

Аннотация

Maqolada O'zbekistonda Sharqshunos kadrlar tayyorlashning yo'lga qo'yilishi va mustaqillik yillarida Sharq tillariga e'tiborning ortishi, shu bilan birga, dunyodagi yetakchi mamlakatlarning iqtisodiy, madaniy, ilmiy sohalaridagi taraqqiyotida ham, jahon geosiyosiy sahnasida ham ularning ta'siri tobora ortib borganligi bois, o'zbek xalqining O'z ona tilidan tashqari chet tillarni ham o'rganishga bo'lgan intilishi tarixiy zaruratga aylanib borishi o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Sharq, ta'lim, Sharqshunoslik, universitet, institut, arab, fors, xitoy, turk, Qaror, geosiyosat.

Kirish. O'zbekistonda chet tilini o'qitishning shakllanishi va uni o'rganishning tarixiy zarurat ekanligi, tobora zamon talablariga mos ravishda rivojlanib borayotgan jarayonda Sharq va G'arb mamlakatlari madaniyati o'zaro aloqada, bir-biriga ta'sir o'tkazib, ma'naviy boyitish imkoniyatlari tobora kengayib borishida kuzatiladi. Dunyodagi boshqa xalqlar singari, o'zbek xalqi o'z ona tilidan tashqari boshqa tillarni ham bilish va o'rganishga qadimdan qiziqib kelgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, chet tilini o'rganish, ayniqsa, ziyolilar orasida hayotiy ehtiyoj bo'lgan. Dunyoga mashhur buyuk allomalarning bu darajaga yetishlarida xorijiy tillarni bilganliklari ham asosiy omil bo'lgani sir emas, ular bir-necha tillarni mukammal bilganlar, suhbalashganlar va turli tillarda ijod qilganlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqillik yillarida yozma merosni saqlash va o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchaydi, Sharq tillarini o'rganishga qiziqish ortgani va bu boradagi ishlar haqida ma'lumotlar berilgan ilmiy tadqiqotlar yaratildi[1]. Tadqiqotchilar asarlarida chet tili o'qitishning yo'lga qo'yilishi va sohada kadrlar tayyorlash siyosatiga doir masalalar birmuncha o'rganilgan. Xususan, Sharqshunos olim M.Abdusamatov chet tilini, jumladan, Sharq tillarini bilishning ahamiyati va olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga oid ma'lumotlar keltirgan.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan til o'rganish ehtiyoji va davlatlararo muloqot masalalariga oid adabiyotlar ham mavjud. Ushbu asarlarda chet tillarini o'qitish zarurati va o'qitishning turli usullari hamda tarjimonlikka bag'ishlangan yevropalik olimlar asarlari keng tarqalgan[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, xronologik izchillik, qiyosiy tahlil, og'zaki tarix kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida o'zaro qo'shnichilik munosabatlari o'rnatilishi bilan bir paytda ular bir-birlarining tilini, u orqali urf-odatlarini, hayot tarzini o'rgana boshlashgan. Savdo va madaniy aloqalar jonlanishi tufayli chet tillarni amaliy va ta'limiy maqsadlarda o'rganish yo'lga qo'yila borgan. Qadimgi Suriya va Misr, Yunoniston va Rimda madaniyat taraqqiyoti davrlarida o'zga xalqlar tillarini o'rganish odatga aylangan. Antik madaniyat namunalari arab tiliga o'girilib, butun Sharqda keng yoyilgan. Chet tillarni o'rganishga bo'lgan intilish ikki ming yillikdan ko'proq vaqt tajribasi mobaynida katta va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Masalan, Ossuriyada shumer tili, qadimgi Rimda-yunon tili o'rganilgan.

Shu o'rinda yurtimizda Sharqshunos kadrlar tayyorlash 1918 yil noyabr oyida Toshkentda Turkiston Sharqshunoslik instituti nomi bilan tashkil etildi. Bu institut O'rta Osiyoda yagona ilk Sharqshunoslik oliy o'quv yurti bo'lib, qo'shni mamlakatlar uchun ham Sharqshunoslik fanining turli sohalarini bo'yicha malakali mutaxassislar yetishtirib bera boshladi. Mazkur bilim dargohida Turkiston va unga qo'shni bo'lgan xorijiy Sharq mamlakatlarning tarixi, etnografiyasi, geografiyasi, o'lkashunosligi, islom tarixi va musulmon qonunshunosligi kabi fanlar, shuningdek, Sharq xalqlarining tillari o'rgatilgan. O'sha yili 1-bosqichga 234 ta talaba qabul qilingan edi. Institutda Sharq tillaridan arab, fors, xitoy, pushtu, urdu, turk, va mahalliy tillardan o'zbek, tojik,

qirg'iz, turkman, tatar hamda yevropa tillaridan ingliz, nemis va fransuz tillarini o'qitish yo'lga qo'yildi[3].

3-bosqichdan boshlab talabalar ixtisoslikka bo'linib o'qitilgan. Ta'lim quyidagi ixtisosliklar bo'yicha taqsimlangan: Turkiy tillar, Eron filologiyasi, Arabshunoslik va islomshunoslik. Shu bilan birga, mahalliy maktablar uchun ona tili va tarix o'qituvchilari ham tayyorlangan.

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, 1922-1923 o'quv yilida Turkiston Sharqshunoslik institutida 210 nafar talaba o'qigan. SHularning 16 foizigina mahalliy xalq farzandlari bo'lgan.

1922 yilga kelib, institut kutubxonasida 5300 jild kitob va 200 dan ortiq qo'lyozma asarlar mavjud edi.

Sobiq Ittifoq miqyosidagi mafkuraviy ta'qiblar kampaniyasi kuchaygani, Markaziy Osiyoda Sharqshunoslik rivojiga katta to'siq bo'ldi. Ayniqsa, Toshkent Sharqshunoslik instituti negizida tashkil etilgan O'rta Osiyo Davlat universiteti Sharq fakultetiga og'ir zarba bo'lib tushdi. Hukumatning Sharq fakultetiga bo'lgan "alohida e'tibori" tasodifiy emas edi, aynan mana shu yerda "eski, burjuacha professorlarning uyasi to'plangan", deb hisoblashgan. XX asrning 20 yillarida tashkil topgan Sharqshunoslik fakultetida mubolag'asiz, nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon Sharqshunosligi rang-barangligi to'plangan edi. Jahon Sharqshunosligi flagmani bo'lmish markaziy osiyolik namoyandalar nomlarini, jumladan, akademik V.Bartold nomini inqilobga qadar bo'lgan davrda, ya'ni aksariyati Turkiston arxeologiya to'garagi a'zolari bo'lgan davrda ham va 1917 yildan keyin ham salohiyatli ingliz, fransuz, nemis va boshqa nashrlarning sahifalarida, shuningdek ommaviy matbuotda ko'rish mumkin edi[4.5].

Turkiston Sharqshunoslik instituti 1924 yilda alohida fakultet sifatida O'rta Osiyo davlat universitetiga qo'shib yuborildi. Fakultet faoliyati uzoq davom etmadi. 1930 yilga kelib bu fakultet pedagogika fakultetiga aylantirildi va 1931 yilda uning faoliyati batamom tugatildi.

Sharqshunoslik ta'limi uzoq davom etmagan bo'lsa-da, qisqa davr ichida mazkur ilm dargohidan P.P.Ivanov, M.R.Ivanova, M.Masson, V.A.SHishkin, O.A.Suxareva kabi mashhur tarixchi va etnograf olimlar yetishib chiqdi.

1944 yilda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) qoshida qaytadan Sharq fakulteti ta'sis etildi. Uning dekani etib tarixchi-Sharqshunos olim Abdurahmon Hamroyev tayinlandi. Fakultetda, o'quv rejasiga ko'ra, Yaqin va O'rta Sharq xalqlari tarixi va iqtisodi, tili va adabiyoti o'qitila boshlandi.

1990 yilda Sharq fakulteti negizida Toshkent Davlat universiteti qoshida Sharqshunoslik instituti tashkil qilindi. 1991 yil 15 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutiga aylantirildi.

O'tgan asrning 90 yillarida O'zbekistonda Sharq tillarini o'qitish va soha mutaxassislarini tayyorlash masalasiga salbiy munosabat yanada chuqurlashdi. G'arb tillari, birinchi navbatda ingliz tiliga e'tibor tobora kuchaydi. O'qitilayotgan barcha tillarga, shu jumladan, Sharq tillarini o'rgatishga ham birdek sharoit yaratish lozim edi. Amalda teskarisi bo'ldi. Ayniqsa, arab, fors tillari diniy oqiqlarning kirib kelishi, islom dinining keng tarqalishi orqali yoshlar ongini zaharlaydigan g'oyalar singdirilishi mumkin, degan salbiy munosabatlar shakllantirildi. Shu sababdan ham, Sharq tillarini o'qitish orqali keladigan "xavfdan ogoh bo'lish" va G'arb tillarini o'qitishga ko'proq ahamiyat qaratilishi kerakligi uqtirildi. Shuningdek, respublikadagi 30 ga yaqin xitoy, hind, arab, fors, urdu tillariga ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarida ular o'rniga ingliz tili o'qitila boshlandi. Aslida, Sharq tillariga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, uning bor imkoniyatlaridan to'liq foydalanish muhim ahamiyat kasb etar edi. Negaki, ko'p millatli

O'zbekiston dunyoning taraqqiy etgan ko'plab Sharq davlatlari bilan qadimdan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatib kelgan. Shu boisdan ham, malakali Sharqshunos kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish, Sharq xalqlari tarixi va madaniyati sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va chuqurlashtirish hamda xorijiy mamlakatlar bilan xalqaro munosabatlarni rivojlantirish va boy adabiy-madaniy merosimizni chuqur va atroflicha o'rganish uchun ham ularning tillarini bilish ehtiyoji allaqachon tug'ilgan tarixiy zarurat edi. Vaziyatning bunday tus olishi o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik orasida turli xil tushunmovchilik va noroziliklarni keltirib chiqara boshladi. Biroq, hech kim ochiq-oshkora e'tiroz bildira olmasdi. Natijada, Sharq tillari, xususan, arab tilini o'rganishga qiziqishi bo'lgan va rag'batli yuqori o'quvchilar maqsadi noma'lum bo'lgan xususiy o'quv maskanlarida o'qishga majbur bo'ldilar. Bu esa, o'z navbatida, turli diniy yo'nalishdagi ruxsat etilmagan, litsenziyasiz o'quv guruhlarining tashkil topishiga yo'l ochdi. Ana shu sabablarga ko'ra, "Sharq mamlakatlarining tillari, tarixi, shuningdek, bu mamlakatlarining rivojlanish omillari, ulardagi zamonaviy ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlar, Sharq madaniyati va merosi, qadimiy yodgorlik va qo'lyozmalarni ilmiy jihatdan o'rganish, mazkur yo'nalishda ilmiy-pedagogik xodimlarni tayyorlash hamda mahalliy va xorijiy hamkorlar bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish" imkoniyatlariga to'siq qo'yildi, minglab til o'rganishga qiziqishlari bo'lgan yoshlar bundan bebahra qoldilar. Respublikada Sharq tillari va adabiyoti, tarixi, madaniyati va iqtisodiyotini o'qitish bo'yicha ta'lim-tarbiya ishlariga yetarlicha e'tibor berilmadi[5].

Ta'lim tizimida Sharq tillarini o'qitish deyarli to'xtab qolgani, Sharq tillari bo'yicha ta'limning uzviyligi va uzluksizligi deyarli yo'qligi mutaxassislarni yetishtirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda edi. So'nggi yillarda nima uchun bir vaqtlar mavjud bo'lgan, samarali faoliyat olib borgan, Sharq tillariga ixtisoslashgan maktablarni tiklab, xuddi ingliz, fransuz, nemis, rus tillari kabi tasdiqlangan zamonaviy dastur va dunyoviy qo'llanmalar asosida o'qitishni yo'lga qo'yib bo'lmaydi, degan haqli savol tug'iladi. Zero, ko'p millatli O'zbekiston dunyoning taraqqiy etgan ko'plab davlatlari Sharq mintaqasida joylashganligi, ular O'zbekiston bilan asosiy strategik hamkor ekanligi sababli ham barcha xorijiy tillar singiri Sharq tillariga ham munosabat ijobiy tomonga o'zgarishi kerak edi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi globallashuv jarayoni Sharq va G'arb madaniyatini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish emas, balki, ular o'rtasida qadimdan mavjud bo'lgan o'zaro ta'sir va yaxshi munosabatlarni qayta tiklash, hamkorlik va ma'naviy-madaniy boyish imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ushbu ikki mintaqadagi davlatlar va ularning tilini puxta o'rganish talab etiladi.

Respublikaning bugungi ehtiyojlarini inobatga olgan holda, universitetda Sharqshunoslik sohasidagi turli ixtisosliklar va yo'nalishlarning doirasi kengaytirildi. Bugungi kunda Toshkent davlat Sharqshunoslik universitetida yettita fakultet, 25 ta kafedra mavjud. Ularda yuzlab professor-o'qituvchilar faoliyat olib boradilar.

Universitet tashkil etilgach, arab, fors, dariy, hind, urdu, xitoy, pushtu va uyg'ur tillari bilan bir qatorda yapon, koreys, turk tillari va adabiyoti o'qitila boshlandi. Hozirda universtetda 20 ga yaqin til o'qitilmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, o'tgan davr ichida universitetdan xalq xo'jaligining turli sohalari bo'yicha yetuk mutaxassislar, ilmiy-tekshirish institutlari uchun kadrlar, Sharq tillari o'qitiladigan ta'lim dargohlariga o'qituvchilar, chet mamlakatlarda ishlash uchun tarjimonlar, elchilik munosabatlarini olib boradigan diplomatik korpus xodimlari yetishib chiqdi.

Universitet o'zidan yetishib chiqqan olimlar, davlat va jamoat arboblari, diplomatiya xodimlari bilan haqli ravishda

faxrlanadi. Tojikiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, mashhur yozuvchi, tarjimon va olim Rasul Hodizoda, Gruzija Respublikasining Eron Islom Respublikasidagi elchisi J.SH.Guinashvililar ham universitetning sobiq talabalaridan. Sharqshunoslik universitetining faoliyati O'zbekistonda Sharqshunoslik fanining o'sishi, taraqqiy etishi bilan chambarchas bog'liq. Chunki bu davr ichida mazkur bilim

maskani Respublika Sharqshunoslik fani uchun 400 dan ziyod fan nomzodlari, 80 dan ortiq fan doktorlarini yetishtirib berdi. Kelgusida universitetning mamlakat madaniyatini rivojlantirish, ma'naviyatini yuksaltirish va ilm-fani taraqqiyotiga yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlab berish borasida ulkan hissa qo'shishiga va katta yutuqlarga erishishiga ishonchimiz komil.

ADABIYOTLAR

1. Abdusamatov M. O'zbek Sharqshunoslari. Bibliografik ocherk.–Toshkent:Qomuslar Bosh tahririyati, 1996.–506 b.; Bobojonova D. Xorijiy tajriba – chet tillarni O'rganish/"Sog'lom avlod uchun" jurnali. – Toshkent, 2014.– №5. – B.18-19.; Ishanxodjaeva Z. 1920-1930 yillarda O'rta Osiyo Sharqshunosligining taqdiri. "O'tmishga nazar" jurnali, 2-maxsus son. – Toshkent, 2020.–B.5.; Umarxo'jaev M. Andijonda xorijiy tillar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning yarim asrlik tarixi. – ADU, 2016. 142 b.; Tursunov B. From the history of the development of teaching foreign languages in Uzbekistan (As an example in the period of Soviet government) THEORETICAL&APPLIEDSCIENCE №01(69)2019 Philadelphia, USA. p.63-66
2. Francisco Lorenzo Historical literacy in bilingual settings: Cognitive academic language in CLIL history narratives. /Linguistics and Education. F. Lorenzo / Linguistics and Education 37 (2017) 32–41. Lahgacker R. Foundations of cognitive grammar: descriptive application (vol. 2) – Stanford: Stanford University Press, 1991. Shettleworth S J. Cognition, evolution, and behavior. – New York: Oxford University Press, 1998.; Heyes C.M and Huber I. (eds.). The evolution of cognition. – Cambridge, MA: MIT Press, 2000.; Matsuzawa T. (ed.). Primate origins of human cognition and behavior. – Tokyo: Springer-Verlag, 2001.; Marcus G F. and Fisher S E. FOXP2 in focus: what can genes tell us about speech and language? Trends in Cognitive Sciences 7(6), 2003, 257-262.
3. "Sharqshunoslik mustaqillik yillarida" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti, 2011. 171b.
4. Ishanxodjaeva Z. 1920-1930 yillarda O'rta Osiyo Sharqshunosligining taqdiri/"O'tmishga nazar" jurnali, 2-maxsus son.– Toshkent, 2020.–B.5.
5. Sodiqov A. Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida nazariya va amaliyotning o'zaro munosabatlari/Xorijiy tillarni o'qitishning buguni va ertasi. Xalqaro ilmiy maqolalar to'plami. –Toshkent:"TURON+MATBAA" MCHJ nashriyoti, 2016. –B.147.



UDK: 9(575.1)

Kozimbek TUXTABEKOV,
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

Perfect University "Gumanitar fanlar" kafedrasida dotsent v. b. t.f.f.d. (PhD) M.O.Primov taqrizi asosida

SULTON ABUSAID MIRZO TOMONIDAN MOVAROUNNAHRDA HOKIMIYATNI EGALLANISHIDA ABULXAYRXONNING ROLI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Shohrux Mirzo va Mirzo Ulug'bekning fojiali vafotidan so'ng Movarounnahr va Xurosonda yuz bergan siyosiy jarayonlar va ularda ko'chmanchi o'zbeklar roli manba va adabiyotlat tahlili asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, mo'g'ul istibdodi, Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Abdulatif, Sulton Abusaid Mirzo, Abulxayrxon, ko'chmanchi o'zbeklar, Movarounnahr, Samarqand, Xuroson.

РОЛЬ АБУЛХАИР-ХАНА В ЗАХВАТЕ ВЛАСТИ В МОВАРУННАХРЕ СУЛТАНОМ АБУСАИДОМ МИРЗОЙ

Аннотация

В данной статье на основе анализа источников и литературы раскрываются политические процессы, происходившие в Моваруннахре и Хорасане после трагической гибели Мирза Улугбека и Шахруха, и роль кочевых узбеков в этих политических процессах.

Ключевые слова: Amir Temur, mongol conquests, Shahrukh Mirza, Mirza Ulugbek, Abdulatif, Sultan Abusaid Mirza, Abulhair Khan, kочевые узбеки, Мавераннахр, Самарканд, Хорасан.

THE ROLE OF ABULKHAIR KHAN IN THE SEIZURE OF POWER IN MOVARUNNAHR BY SULTAN ABUSAID MIRZA

Annotation

This article, based on an analysis of sources and literature, reveals the political processes that took place in Movarunnahr and Khorasan after the tragic deaths of Mirza Ulugbek and Shahrukh, and the role of nomadic Uzbeks in these political processes.

Key words: Amir Temur, Mongol conquests, Shahrukh Mirza, Mirza Ulugbek, Abdulatif, Sultan Abusaid Mirza, Abulkhair Khan, nomadic Uzbeks, Maverannahr, Samarkand, Khorasan.

Kirish. Uzoq vaqt davom etgan mo'g'ul istibdodiga iste'dodli va mohir sarkarda Amir Temur barham berdi va ulkan hududda o'z saltanatiga asos soldi. U asos solgan saltanat hududida ilm-fan, madaniyat rivoj topib, farovonlik va osoyishtalik o'rnatildi. Amir Temur mo'g'ullar bosqini natijasida vayron bo'lgan shahar va qishloqlarni qayta tikladi hamda inqirozga yuz tutgan xalq xo'jaligi rivojiga turtki berdi. U hayoti davomida kuchli markazlashgan va adolatli boshqaruvga asoslangan hokimiyat binosini yuksakka ko'tardi. Biroq, Temuriy shahzodalarga bobolari kabi va o'zlaridan avvalgi Chingizxon avlodlaridek saltanat boshqaruvida baxtli bo'lish nasib etmadi. Mo'g'ul hukmdori Chingizxon ulkan bir saltanatning asosini qurib uni kuchaytirish va kengaytirish vazifasini o'g'illari hamda nabiralari topshirdi, ular bu vazifani uddaladilar. Amir Temur farzandlari, ayniqsa nabiralari temuriy shahzodalarga bobolari barpo etgan davlat poydevorini mustahkamlash, mazkur saltanatning ustunlari bo'lish o'rniga, qayd etib o'tilganidek o'zaro urushib va noahillik qilib bu imoratning nurashi hamda yemirilishiga olib boruvchi urushlar girdobiga o'ralashib qoldilar. Albatta, Shohrux Mirzo (1377–1399 yy.) hukmronligi yillarida markaziy hokimiyat bir qadar mustahkamlandi ammo, uning vafotidan keyin mamlakat siyosiy hayoti butkul izdan chiqdi.

Amir Temur saltanati avvalgi qudratini tiklashga va markazlashgan davlat barpo etishga intilgan hamda o'z faoliyati davomida bir qadar bunga erishgan, Sohbiqironning uchinchi o'g'li Mironshoh (1366–1405 yy.) nabirasi temuriy shahzoda Sulton Abusaid Mirzo (1424–1469 yy) muvaffaq bo'ldi. Ammo, uning harakatlari ham ko'p hollarda samarasiz bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur masala temuriylar va ulardan keyingi davrda yashab ijod etgan ko'plab muarrixlar hamda tarixchi olimlar tomonidan jumladan Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir, Mas'ud ibn Kuxistoniy va muallifi noma'lum "Muiz al-ansob" kabi manbalarda shunigdek, temurshunos tarixchi olimlar asarlarida bayon qilingan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, tizimlilik, mikrotarix, qiyosiy va muammoviy-xronologik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot tahlili va natijalar. Amir Temur vorislari orasida garchi o'zi kabi buyuk davlat hukmdorlari yetishib chiqmagan bo'lsada, biroq ilm-fan va madaniyat sohasida iste'dodlari va qoldirgan ma'naviy meroslari bilan insoniyatning kelajak avlodlarni hayratga soladigan ko'plab mutafakkir zotlar yetishib chidi. Albatta, biz temuriy shahzodalarni davlat boshqaruvidagi o'ziga xos rolini inkor etish fikridan yiroqmiz. Toju-taxt uchun temuriylar o'rtasidagi urushlar balki ularning bobolari kabi mamlakat tutishdagi o'z qobiliyatlarini to'la namoyon etishga imkon bermagandir.

Sohbiqironidan so'ng qariyb qirq yilda vomida mamlakatni boshqargan Shohrux Mirzo davrida bir muncha o'zaro nizo va fitnalarga hamda vayronagarchilik urushlariga barham berildi. Uning oqilona, mo'tadil ichki va tashqi siyosati sababli davlatda tinchlik-osoyishtalik uzoq vaqt hukmronlik qildi, ilm-fan rivoj topib, obodonchilik, bunyodkorlik ishlariga katta e'tibor qaratildi[1]. O'z navbatida Shohrux Mirzoning to'ng'ich farzandi Mirzo Ulug'bek (1394–1449 yy.) ham Movarounnahrda otasi bilan bir vaqtda bobosi asos solgan saltanat poytaxtida odilona siyosat yuritdi.

1447 yil 19 mart kuni Shohrux Mirzoning vafoti Abdurazzoq Samarqandiy ta'biri bilan aytganda "... quriqligi

suvlik atroflariga va yetti kishvar mamlakatlariga yetishdi, fitna gardi va tartibsizlik g'ubori yer markazidan to falaklar gumbazigacha ko'tarildi, nolalar dudiyu fig'onlar shu'las oy avjigay Kayvon tepasiga ko'tarildi". Shunday vaziyatda Mirzo Ulug'bek otasi Shohrux Mirzoga tegishli mulkka faqatgina u haqli ekanligini va boshqa hech kim bu mulkka daxl qilishga haqli emas deb bilib, Xurosonga yurish qiladi. Ammo, urush olovi Mirzo Alouddavla bilan o'zaro tuzilgan sulh bilan bir oz so'ndi.

Har bir oqil farzand uchun ota-onadan judo bo'lish katta musibat, Shohrux Mirzoning vafoti ham donishmand Mirzo Ulug'bek uchun qayg'uli xabar edi. Bu ko'ngilsiz voqealar ketma-ket noxush voqealar tizimini bilan davom etdi. Qayd etib o'tilganidek, Mirzo Alouddavla qarshi Xuroson yurishi Ulug'bek va uning katta o'g'li Abdulatif o'rtasidagi shundoq ham murakkab munosabatlarini butunlay buzdi. Buning sabablari birinchidan, Ixtiyoruddin qal'asida saqlangan xazina Abdulatيفا berilmadi; ikkinchidan, bir necha yillar davomida ulug'vorlik bilan o'tkazgani Hirot shahri Abdulatif tomonidan qiyin vaziyatda tashlab ketildi; uchinchidan, Bistom, Mashhad va Hirot chegaralarida uni dushman ixtiyoriga tashlab Abdulatif vujudini yo'qdek hisobladi; to'rtinchidan, ukasi Abdulazizni har jihatdan undan ustun qo'ydi[2]. Ana shu sabablar o'g'lini otaga nisbatan mash'um niyatni ro'yobga chiqarib, tarixda padarkush nomi bilan qoldi.

Ota-bola orasidagi nizodan Sulton Abusaid Mirzo foydalanishga intildi. O'ta murakkab vaziyatda u amakisi Mirzo Ulug'bekni Abdulatيفا qarshi yurishda tashlab Samarqandni qo'lga kiritishga intildi[3]. Biroq, amakisining Samarqandga qaytayotganini eshitib uni qo'llab turgan arg'un eli hudulariga chekindi. Bu orada Abdulatif Amudaryodan o'tib Shahrisabzga kelib joylashdi va bir necha kun davomida qo'shinini tartibga keltirib poytaxt Samarqandga yurish qildi. Samarqandning Dimshiq qishlog'i yaqinida Mirzo Ulug'bek va Abdulatif qo'shini to'qnashuvda samarqadliklar mag'lub etildilar[4]. Mirzo Ulug'bek Samarqandga chekinib Arkka kirmoqchi bo'lganida ishonchli kishilaridan biri deb bilgan Mironshoh qavchin tomonidan qal'aga kiritilmadi. Shundan so'ng kichik o'g'li Abdulaziz bilan Shohruhiya tomon ketdi. Bu yerda ham ota-bolani xiyonat bilan qarshi olishdi, shahar dorug'asi Po'lod o'g'li Ibrohim Mirzo Ulug'bek va Abdulazizni ushlab Samarqandga yubormoqchi bo'ldi. Biroq buni fahmlab qolgan Mirzo Ulug'bek ortiga qaytdi va Abdulatيفا o'zini topshirdi. Biroq, Abdulatif otasi va ukasiga muruvvat qilmadi (1449 yil 18 oktyabr – 16 noyabr kuni) yetuk mutafakkir olim, davlat arbobi, bilim tarmoqlari bo'yicha ma'ruf bir podshoh, xilma-xil sifatlar bilan dong taratgan sulton[5] Movarounnahr hukmdori Mirzo Ulug'bek o'z farzandining roziligi bilan qatl qilindi. Abdulatifning o'zi ham uzoq vaqt hukmronlik qila olmadi olti oy o'tishi bilan fitna qurboni bo'ldi. Undan keyin taxtga Mirzo Abdullo (1450–1451 yy) o'tirdi. Mirzo Ulug'bek o'ldirilishi bilan taxt uchun urushlar zanjir halqasi singari bog'lanib yanada avj oldi.

XV asrning 50 yillar ida temuriylar o'rtasida boshlanib ketgan o'zaro urushlarda tole ko'proq Sulton Abusaid Mirzo tarafida bo'ldi. Qayd etib o'tilganidek Samarqandni egallash borasidagi birinchi urinish muvaffaqiyatsiz bo'ldi. Keyinroq u Abdulatif buyrug'i bilan qo'lga olindi, ammo tez orada tutqunlikdan qochishga muvaffaq bo'lib Buxoroga keladi. Shahar mahalliy zodogonlari va ulamolari Sulton Abusaid Mirzoni yaxshi qarshi olishsada, Buxoro dorug'asi va qozisi Abdulatif qahridan qo'rqib bir muddat uni tutqunlikda ushlab turishdi [6].

Abdulatif o'ldirilganidan so'ng Sulton Abusaid Mirzo Samarqand taxtini egallash uchun ikkinchi marotaba yurishni amalga oshiradi. Mirzo Abdullo bilan bo'lgan jangda u

mag'lubiyatga uchrab dashtga qochadi. Bir muddat Movarounnahr va Turkiston orasida "qozoqlik" qilib kun kechirdi va nihoyat Yassi shahrini egallashga muvaffaq bo'ldi. Kundan kun kuch to'plab borayotgan Sulton Abusaid Mirzoning katta tahdid ekanini tushungan Mirzo Abdullo Yassini ozod qilish va dushmani uzil-kesil yo'q qilish maqsadida qo'shin tortdi. Ushbu to'qnashuv mobaynida Abusaid harbiy hiyla ishlatibgina, ya'ni bir guruh kishlariga o'zbeklar kiyimlarini kiygazib shahardan tashqariga chiqdi "o'zbek lashkari madadga keldi" deb ovoza soldilar samarqandliklar bunga ishonib chikindilar. Mirzo Abdulloning Abusaidga qarshi keyingi yurishi ham muvaffaqiyatsiz bo'ldi.

Sulton Abusaid Mirzo erishgan muvaffaqiyatni yanada mustahkamlash va azaliy orzusi Samarqand taxtini egallash maqsadida ko'chmanchi o'zbeklar hukmdori Abulxayrxon bilan ittifoq tuzadi. Shu o'rinda qayd etib o'tish lozimki, qator temuriy tarixchilari avvalo, Sulton Abusaid Mirzo bilan ittifoqdan Abulxayrxon manfaatdor ekanligini, xon bu vaziyatni kutib turganligini qayd etgan holda, temuriy shaxzodani o'zbeklar huzuriga o'z elchilarini yuborganini ta'kidlanadi. O'z navbatda Mas'ud ibn Kuxistoniy shaxsan Sulton Abusaid Mirzo Abulxayrxon huzuriga kelganligini va uni xon tomonidan qabul qilinishi jarayoni bayon qilingan. Shuningdek, qator manbalar tahlili asosida akademik B.Ahmedov Sulton Abusaid Mirzo Parkentga Xo'ja Ahror huzuriga borganligini va uning maslahati bilan Abulxayrxondan yordam so'rganligini qayd etadi.

Shu o'rinda bir jihatni qayd etib o'zish lozimki "Muiz al-ansob" asarida Sulton Abusaid Mirzo ayollari ko'rsatilgan va orasida eng birinchi bo'lib Xonzodabegim Abulxayrxon qizi nomi qayd etiladi[7]. Barcha ayollardan dunyoga kelgan farzandlar ya'ni o'g'il-qizlar ham ko'rsatib o'tilgan. Biroq, Abulxayrxon qizi Xonzodabegim va Mirzo Sulton Abusaid farzandlari qayd etilmagan[8]. Demak, Sulton Abusaid Mirzo va Abulxayrxon ittifoqi faqatgina Samarqand taxti uchun da'vogar shahzodaning kelgusida muvaffaqiyatga erishadigan bo'lsa katta boyliklar va'da qilish bilan kifoyalanmagan. Ya'ni mazkur ittifoq qarindosh-urug'lik rishtalari bilan ham bo'g'langan.

Ittifoqchilar qo'shini 1451 yili iyun oyi boshlarida Toshkent va Xo'jand tarafdan Samarqandga qarab yurish boshladilar. Havoning juda ham issiqligi Jizzax sahosini bosib o'tishda katta qiyinchilikka sabab bo'ldi. Shunda Abulxayrxon bir guruh o'zbeklarga "yada toshini amalga keltirishni buyuradi", havo keskin o'zgarib yomg'ir yog'ib bu hol bir necha kun davom etib qo'shin eson-omon Samarqandga shimol tarafdan kirib bord. 1451 yil 22 iyun Mirzo Sulton Abdulloh qo'shini Ko'hak suvidan o'tib Sulton Abusaid Mirzo qo'shini bilan janga kirdi. Shu o'rinda bir jihatni qayd etib o'tish lozimki, Mirzo Abdullohni bu paytda qator amirlar tark etib raqib tomonga o'tishgan edi. Jang taqdiri Sulton Abusaid Mirzo foydasiga hal bo'lib, Mirzo Abdulloh esa shu jangda o'ldirildi. Sulton Abusaid Mirzo yangi hukmdor sifatida Samarqand taxtini egalladi va 1469 yil ga qadar salтанatni boshqardi. U ko'chmanchi o'zbeklar xoni Abulxayrxonga katta sovg'a salomlar va Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Sulton begimni turmushga berib ortiga Dashti Qipchoqqa qaytardi[9].

Nazarimizda, Dashti Qipchoq hududining bepayon kengliklarida emin-erkin, qisman o'troq hayot tarzini kechirishga odatlangan o'zbeklar hali to'la tarzda o'troq turmush tarziga o'tishga tayyor emas edilar. Shuningdek, tobora kuch to'plab borayotgan va Abulxayrxon boshchiligidagi qo'shin tomonidan Movarounnahrda erishilgan muvaffaqiyat hamda qo'lga kiritilgan boyliklar to'g'risidagi xabarlar qalmoqlar hukmdori O'z-Temur Toishga tinchlik bermay qo'ydi. Dashti Qipchoqqa qaytgan Abulxayrxon qo'shini qalmoqlarning hujumiga uchrab mag'lubiyat alamini tortdi. Qalmoqlar ko'plab shahar va qishloqlarni talon-taroj

qilib o'z yurtlariga qaytib ketishdi. "Tarixi Abulhayrxoniy"da keltirilishicha qalmoqlar va o'zbeklar o'rtasidagi jang 1454 yilda Ko'k-Koshona degan joyda bo'lib o'tdi. Bu urushda o'zbeklarning eng ko'zga ko'ringan bahodirlari va amirlaridan Baxtiyor-sulton va Axmad-sultonlar o'ldirildilar. Abulhayrxon qolgan qo'shin bilan Sig'noqqa chekindi. O'z-Temur Toish Abulhayrxonga odam yuborib tinchlik sulhini tuzishni taklif etdi va ushbu sulh tuzildi. Fikrimizcha sulh aynan, Abulhayrxon tomonidan qalmoqlar hukmdoriga taklif etilgan. Zero, mag'lub taraf bu bitimdan ko'proq manfaatdor bo'lgan. Sulh tuzilganidan so'ng qalmoqlar Turkiston, Shohruhiya va Toshkent shaharlari va qishloqlarini talon-taroj qilib, ko'plab odamlarni asir olib o'z yerlariga qaytib ketdilar.

Xulosa va takliflar. Samarqandda Sulton Abusaid Mirzo hukmronligi o'rnatilishi bilan, temuriylar saltanatidagi

o'zaro urushlar va parokandalik barham topmadi. Sulton Abusaid Mirzo uzoq vaqt davomida bobosi saltanatini birlashtirish va markazlashgan davlatni qayta tiklash yo'lida kurash olib bordi.

Umuman aytganda Temur va temuriylar davri Turkiston xalqlari tarixida alohida o'rin tutadi. Bu davr xalqimizning turli sohalar – ziroatchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlangan, ilm-fan va madaniyat ravnaq topgan davri bo'ldi. Bugun bizlar, ana shunday buyuk davlat tuzish sari qadam tashlab turibmiz. Buning uchun o'tmishda mavjud bo'lgan mustaqil va qudratli davlatlarimiz tarixini chuqur va har tomonlama tadqiq etsak, uni yaxshi bilsak bu yo'lda oldimizga qo'ygan rejalarimizni muvaffaqiyat bilan amalga oshirishga erishamiz.

ADABIYOTLAR

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи Саъдайн ва Мажмаи Баҳрайн. – Тошкент. "O'zbekiston", 2008. – Б.295.
2. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. II китоб. (XIV аср ўрталаридан – XIX аср иккинчи ярмигача). – Тошкент. 2019. 83-бет
3. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи Саъдайн ва Мажмаи Баҳрайн. – Тошкент. "O'zbekiston", 2008. – Б.280.
4. Ахмедов Б. Государство кочевых узбеков.
5. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи Саъдайн ва Мажмаи Баҳрайн. – Тошкент. "O'zbekiston", 2008. – Б.295.
6. Ахмедов Б. Государство кочевых узбеков. – с.129.
7. История Казахстана в персидских источниках. Му'изз ал-ансаб. III-том. – Алматы., «Дайк-Пресс». 2006. – С.178.
8. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи Саъдайн ва Мажмаи Баҳрайн. – Тошкент. "O'zbekiston", 2008. 181-182-бетлар.
9. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи Саъдайн ва Мажмаи Баҳрайн. – Тошкент. "O'zbekiston", 2008. 318-319-бетлар.



UDK:371.035:797

Djamshed UMAROV,
TerDU Jahon tarixi kafedrasida erkin tadqiqotchisi (PhD)
E-mail: Umarovjamshid510@gmail.com

TerDU “Jahon tarixi” kafedrasida mudiri tarix fanlari doktori, professor S.Tursunov taqrizi asosida

SOVET DAVLATINING SURXON VOHASIDA MAORIF SOHASIDA AMALGA OSHIRGAN SIYOSATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Surxon vohasi ziyolilari XX asr 20–40 yillarida juda og‘ir sharoitlarda mehnat qilganliklari, bir tomondan, o‘quv binolari, o‘quv qurollarining yetishmovchiligi va iqtisodiy qiyinchiliklar bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kommunistik partiyaning zo‘ravonligi, milliy ziyolilarga qarshi ommaviy qatag‘onliklar, ulug‘ davlatchilik shovinizmi va mustamlakachilik zulmi ostida faoliyat yuritganliklari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Sovet davlati, chorizm, kommunistik mafkura, ta‘lim-tarbiya, savodsizlik, ziyolilar, o‘zbek maktabi, sovet maktablari, qizlar maktabi, ziyolilar.

POLICY OF THE SOVIET STATE IN THE FIELD OF EDUCATION IN THE SURKHAN OASIS

In this article, the intelligentsia of the Surkhan oasis worked in very difficult conditions in the 20–40s of the twentieth century; it is argued that they acted under conditions of mass repression against the intelligentsia, chauvinism of the great state and colonial oppression.

Key words: Soviet state, tsarism, communist ideology, education, illiteracy, intelligentsia, Uzbek school, Soviet schools, women’s school, intelligentsia.

ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ОБЛАСТИ ОБРАЗОВАНИЯ В СУРХАНСКОМ ОАЗИСЕ

В данной статье интеллигенция Сурханского оазиса работала в очень тяжелых условиях в 20–40-х годах XX века, утверждается, что она действовала в условиях массовых репрессий против интеллигенции, шовинизма великого государства и колониального гнета.

Ключевые слова: Советское государство, царизм, коммунистическая идеология, образование, неграмотность, интеллигенция, узбекская школа, советские школы, женская школа, интеллигенция.

Kirish. XX asr 20-30 yil larida mamlakatimiz ta‘lim tizimi murakkab va ziddiyatli davrni boshidan kechirdi. Bu davrda sovet hokimiyati “shaklan milliy, mazmunan sosialistik” madaniyat barpo etishgagirishdi. Sovet davlati yangi tipdagi maktablar ochar ekan, avvalo o‘ziga sodiq bo‘lgan kadrlarni shakllantirishga harakat qildi. Milliy g‘oyalar chetga surilib, o‘rniga kommunistik mafkura joriy qilindi. Sovet maktablarida asosiy e‘tibor g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyaga qaratildi.

Ta‘kidlash joizki, sovet hokimiyati o‘z ta‘lim tizimi afzalliklarini ko‘rsatish hamda mahalliy aholini kamsitish maqsadida, inqilobga qadar butun musulmon aholisi yoppasiga savodsiz bo‘lgan, degan fikrni keng targ‘ib qildi. Sovet hokimiyatni maorifga sohasidagi siyosatini taqqoslash maqsadida sovet davri adabiyotlarida qayd etilgan 1897 yilda O‘zbekiston hududidagi savodli kishilar soni 3,6%, Turkmanistonda 7,8%, Tojikistonda 2,3%, Qirg‘izistonda 3,1%, Qozog‘istonda 8,1%, Rossiyada 29,6% bo‘lganligi ta‘kidlanadi[1]. Biroq, bunday talqin mafkura sohasidagi afsonadan iborat edi. Tadqiqotchi P.G.Kim tarixiy manbalarda keltirilgan faktlarga asoslanib, 1897 yili Rossiya, Belorussiya va Turkistonda aholining, maktablarning, ulardagi o‘quvchilarning sonlarini kuzatib, bu o‘lkalardagi savodxonlikning darajasi ko‘rsatib berdi. Unga ko‘ra, Rossiyada aholining umumiy soni - 126 368 800, maktablar soni - 33 401, o‘quvchilar soni - 2 318 100, aholining umumiy soniga nisbatan o‘quvchilar - 1,8 foizni tashkil etgan holda aholining savodxonligi - 21 foiz; Belorussiyada aholining umumiy soni 6 492 857, maktablar soni - 2263, o‘quvchilar soni - 125 418, aholining umumiy soniga nisbatan o‘quvchilar - 1,9 foizni tashkil etgan holda, aholining savodxonligi - 24,7 foiz; Turkistonda aholining umumiy soni - 3 792 774, maktablar

soni - 6027, o‘quvchilar soni - 64 015, aholining umumiy soniga nisbatan o‘quvchilar - 1,7 foizni tashkil etgan holda aholining savodxonligi - 19,55 foiz bo‘lgan. Savodxon aholini hisobga olish davrida arab imlosini bilsa-da, ruscha o‘qish-yozishni bilmaganligi uchun mahalliy millat vakillari savodsizlar safiga qo‘shib yuborilgan edi[2].

Asosiy qism. Darhaqiqat, ta‘lim sohasida sovet tuzumi chorizmga nisbatan ancha ilgari ketgan edi. Agar chorizm davrida Turkiston o‘lkasida har yili o‘rta hisobda 9 ta maktab ochilgan bo‘lsa, Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida har yili o‘rtacha 674 tadan maktab tashkil etildi. Ayniqsa, yoshi kattalar o‘rtasidagi savodsizlikni tugatishga alohida e‘tibor qaratildi. “Savodsiz kishi siyosatdan chetda turadi, – degan edi. – Unga avvalo alifbeni o‘rgatmoq kerak. Busiz siyosat bo‘lishi mumkin emas, busiz faqat mish-mish gaplar, g‘iybat, cho‘pchaklar, xurofeyi gaplarga bo‘lishi mumkin, lekin siyosat emas”. [3]

Surxon vohasida sovet maktablarini tashkil etish og‘ir sharoitlarda kechdi. Negaki, Buxoro amirligi Qizil Armiya tomonidan zabt etilgach, mamlakatda qarshilik harakati kuchayib ketdi. Urush natijasida ko‘pgina qishloqlar vayron bo‘ldi. Ko‘pgina mudarrislar va domlalar halok bo‘lishdi. Maktab, ta‘lim-tarbiya ishlari orqaga keta boshladi. Shunga qaramay, ziyolilarning fidoyiligi bilan ta‘lim tizimi asta-sekinlik bilan o‘z iziga tusha boshladi.

1921 yilda Termizda birinchi sovet maktabi ochiladi. Mazkur maktabda ta‘lim rus tilida olib borilib, olti sinf, 213 o‘quvchi va olti o‘qituvchidan iborat edi. 1923 yilda mahalliy millat bolalari uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi birinchi o‘zbek maktabi ochiladi. Bu hozirgi 2-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabi edi. Maktabda 56 o‘quvchi va uch nafar o‘qituvchi bo‘lgan. Biroq, ushbu maktab shaharning o‘qish

yoshidagi barcha aholisini qamray olmagan. Shu bois 1924 yilda 150 o'quvchiga mo'ljallangan 3-sonli maktab ochiladi.

Shaharda mahalliy aholi orasidan yetishib chiqqan savodxon insonlar va ma'rifat jonkuyarlari harakatlari natijasida yetim bolalar va kam ta'minlangan oilalarning bolalari uchun maxsus internat maktab ochiladi. Natijada Termiz shahridagi maktablar soni 4 taga yetdi. 1926-27 o'quv yiliga kelib, shaharda 1 ta dehqon yoshlar maktabi tashkil etiladi[4].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sovet maktablarida o'g'il va qiz bolalarni birga o'qitish joriy qilingan bo'lib, bu holat mahalliy millat qizlari uchun yot holat edi. Shu sababdan ham o'qish yoshidagi qizlarni maktabga jalb qilish qiyinchilik bilan amalga oshirildi. 1925 yil 21 noyabrda Termiz uyezdi xalq maorifi kollegiyasi "Termiz shahrida o'zbek qizlari uchun birinchi maktabni ochish to'g'risida"gi qarorni qabul qiladi. Natijada mahalliy qizlarni sovet maktablariga tortish jarayoni boshlanib ketadi. Surxondaryo okrugida og'ir fuqarolar urushi sharoitida maktablar tashkil etilib, majburiy zo'raonlik usulida olib borilib, sinfiy yondoshuv asosida amalga oshirildi. Dastlabki yillarda o'g'il va qiz bolalarni birga o'qitish joriy etilib, 1926 yilda Termizda birinchi bosqichli qizlar maktabi tashkil etilib, 32 ta qizlar o'qishga jalb etildi. 1927 yilda tashkil etilgan Turkman qishlog'idagi qizlar maktabiga 14 nafar o'quvchi jalb etildi. Surxondaryo viloyatida maktablarni tashkil etish va boshqaruv tizimini nazorat qilish maqsadida 1927 yilda okrug xalq ta'lim boshqarmasi tashkil etildi. 1926 yilda okrugning Termiz shahrida 6 ta, Boysunda 3 ta, Sherobodda 3 ta, Denovda 3 ta, Sho'rchida 2 ta, Sariosiyoda 2 ta an'anaviy maktablar tashkil etildi[5].

Ta'lim tizimini joriy qilish, «savodsizlik»ni tugatish kabi islohotlar og'ir sharoitda zo'raonlik bilan amalga oshirildi. Garchi, ta'lim tizimi uchun mablag'lar miqdori yil sayin oshirib borilgan bo'lsa-da, ushbu sohada talaygina muammolar mavjud edi. Mavjud bo'lgan maktablar o'qish yoshidagi bolalarni to'liq qamrab olish uchun yetarli emas edi. Sovet maktablaridan eski usul maktablariga o'tib o'qishni istayotgan bolalar ham bor edi.

Tahlil va natijalar. 1920 yil lar oxirida o'zbek yozuvini arab alifbosidan o'tkazish siyosati xalqning sog'lom ma'naviy hayotiga katta zarar keltirdi. Shuni ta'kidlash lozimki, kommunistik mafkura savodxonlikni bartaraf etish niqobi ostida savodsiz mahalliy aholiga dastlab eski o'zbek tilida o'qitishni joriy etib, keyinchalik bu yozuvni o'zlashtirish qiyinligi, harflarda belgilarning haddan tashqari ko'pligini rukach qilib, uni yozish uchun qulay lotin alifbosi bilan almashtirishni targ'ib etib bordi.

Lotin alifbosining joriy etilishi bilan eski o'zbek yozuvini bilgan muallimlarni "mulla", "bosmachi", "quloq", "aksilinqilobiy isyonchi", "amir malayi" kabi nomlar bilan ta'qib qilish avj oldi. Ayrim ziyolilar qo'shni davlatlarga ketishga majbur bo'ldilar. Eski o'zbek alifbosida bitilgan kitoblar ommaviy ravishda yo'q qilindi. Milliy ziyolilarimizga qarshi qaratilgan ommaviy terror o'lka madaniyati va maorif

tizimiga juda katta zarba berdi. 1929 yilda arab imlosidan lotin yozuviga o'tilishi munosabati bilan yangi yozuvni o'rgatuvchi bir qancha kurslar tashkil etiladi. Xuddi shunday kurslardan 12 tasi Termiz shahrida tashkil etilgan bo'lib, ushbu kurslarga jami 318 nafar kishi jalb qilindi.

Shunday og'ir sharoitda O'zbekiston hukumati xalq maorifini rivojlantirish uchun katta mablag'lar topa oldi. Birinchi besh yillik davrida (1928-1932) respublika byudjetidan shu maqsad uchun 395,5 million so'mdan ziyod mablag' ajratildi.

Xulosa va takliflar. 1930 yilda majburiy ta'lim joriy etilishi bilan Termizdagi 2 ta maktab umumiy yetti yillik maktabga aylantiriladi. Boshlang'ich maktablardagi sinfxonalar soni ham bir muncha ko'paytirildi. Natijada shaharda yashayotgan 8 yoshdan to 15 yoshgacha bo'lgan barcha bolalarni o'qishga jalb qilish imkoniyati yuzaga keldi. Bu esa yana o'qituvchi kadrlarga bo'lgan ehtiyojni birmuncha oshib borishiga sabab bo'ldi. 1934-35 o'quv yilida shahar maktablarida faoliyat yuritayotgan 82 nafar o'qituvchining bor-yo'g'i 16 nafari oliy ma'lumotli edi. Oliy ma'lumotli o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni inobatga olgan holda, ko'plab yoshlar Samarqand, Toshkent va Buxorodagi pedagogika institutlariga o'qishga yuborildi[6].

Surxondaryo okrugida o'qituvchilar yetishmasligi tufayli 1930/1931 o'quv yilida Termiz shahridagi maktab o'qituvchilarini qishloq maktablariga ishga borishga majbur qilish holatlari kuzatildi. Bu holat o'sha yillarda viloyat ta'lim tizimidagi og'ir ahvoldan dalolat beradi.

Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvini to'liq joriy qilib ulgurmasdan, 1940 yilda kirill yozuviga o'tilishi mavjud jarayonni yanada mushkullashtirdi. Aholining savodxonlik darajasi yana pasaydi. Termizda tezlik bilan tashkil etilgan 8 ta qisqa muddatli kurslar aholiga yangi alifboni o'rgatish bilan shug'ullandi.

Sovet rejimining maorif sohasidagi siyosati salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Surxondaryo okrugidagi bilimli o'qituvchilarning o'z kasbini tashlab, xo'jalik ishlariga o'tib ketish holatlari ko'paydi. Bu tizimda o'z ixtiyori bilan ishlovchilar soni keskin kamaydi. Faqat okrug partiya qo'mitasining 14-16 yoshli komsomollarni maorif ishiga majburan jalb etish orqaligina vaziyatni ma'lum darajada ushlab turishga muvaffaq bo'lindi. Ular ham voyaga yetib, imkon bo'ldi deguncha boshqa ishga o'tishga harakat qilishar edi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Surxon vohasi ziyolilari 1920-1941 yillarda juda og'ir sharoitlarda mehnat qildilar. Bir tomondan, o'quv binolari, o'quv qurollarining yetishmovchiligi va iqtisodiy qiyinchiliklar bo'lsa, ikkinchi tomondan, kommunistik partiyaning zo'raonligi, milliy ziyolilarga qarshi ommaviy qatag'onliklar, ulug' davlatchilik shovinizmi va mustamlakachilik zulmi ostida faoliyat yuritdilar. Shunday bo'lsada, milliy ziyolilar savodsizlikni tugatish, el farzandlariga bilim berishda jonbozlik ko'rsatdilar. Ularning ko'pchiligi o'z kasbiga sodiq bo'lganliklari uchun el hurmatiga sazovor bo'ldilar.

ADABIYOTLAR

1. Istiqolov va ta'lim: Xalq ta'limi mustaqillik yillarida. (1991-2001); R. H. Jo'rayev tahriri ostida. – T.: Sharq. 2001;
2. Yo'ldoshev J. G'. O'zbekiston Respublikasi ta'lim taraqqiyoti yo'lida. – T.: O'qituvchi, 1994
3. Yo'ldoshev J. G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. – T.: O'qituvchi, 2000;
4. Bahrom Maxmudov Qashqadaryo xalq ta'limining taraqqiyoti yo'li. - Qarshi, 1999 yil.
5. Kadrlar tayyorlash dasturi: pedagogik ilmiy tadqiqot muammolari va yo'nalishlari. – T.: Fan, 1999;
6. Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами. - Тошкент. 2015. – 345 б;
7. Kadirova Y. LOVING THE COUNTRY IS FAITHFUL //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 420-423.
8. Kadirova, X. B. (2023). YOSHLARNINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA OILALA VA MAHALLALARNING RO'LI. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 549-554.
9. Buvabaevna, K. Y., & named after Nizami, T. D. P. U. (2021). The role of family and educational institutions in increasing the civil literacy of students. modern scientific challenges and trends, 140.

10. Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 5. – С. 469-473.
11. Buvabaevna K. Y. Issues of Civil Literacy Development in the Education System //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 5477-5489.
12. Buvabayevna, K. X. (2023). Yoshlarning huquqiy madaniyatni shakillantirishda ijtimoiy-ma'naviy muxitning ta'siri. o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(19), 879-884.
13. Кадирова, Х. Б. (2023). Халқ психологиясида идентикликнинг намоён бўлиши. journal of innovations in scientific and educational research, 6(2), 203-208
14. Buvabaevna, K. H. (2023). Value of developing media literacy, media education, information culture in Uzbekistan. Science and Innovation, 2(9), 23-27.



UO*K: 9 (575.1)

Axmadjon XOLIKULOV,
O'zMU O'zbekiston tarixi kafedrasida dotsenti, t.f.d
E-mail: kholikulov@mail.ru

TDTU professori, tarix fanlari doktori R.Xoligova taqrizi asosida

SOME ISSUES OF BUKHARA-KOKAND RELATIONS IN THE FIRST QUARTER OF THE 19TH CENTURY

Annotation

This article, based on sources and works of researchers, reveals the relationship between the Bukhara Emirate and the Kokand Khanate in the first quarter of the 19th century, the political confrontation between them and their causes. Also, in the article, the author focused on issues related to political processes during the formation of the Kokand Khanate.

Key words: Bukhara, Kokand, emirate, khanate, embassy, political relations, China, Uratpe, divanbegi, Akmechet, Turkistan, Kumgurgan, Pishpak, Tukmak.

XIX ASR BIRINCHI CHORAGIDA BUXORO-QO'QON MUNOSABATLARI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buxoro amirligining XIX asr boshlaridagi Qo'qon xonligi bilan bo'lgan munosabatlari, ikki o'rtadagi siyosiy qarama-qarshiliklar, ularning sabablari manbalar va tadqiqotchilar asarlari asosida asosida yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada Qo'qon xonligining tashkil topishidagi siyosiy jarayonlar masalariga ham ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, Qo'qon, amirlik, xonlik, xonlik, elchilik, siyosiy munosabatlar, Xitoy, O'ratepa, devonbegi, Oqmachit, Turkiston, Qumqo'rg'on, Pishpak, To'qmoq.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ БУХАРСКО-КОКАНДСКИХ ОТНОШЕНИЙ ПЕРВОЙ ЧЕТВЕРТИ XIX ВЕКА

Аннотация

В данной статье, на основе источников и трудов исследователей раскрываются взаимоотношения Бухарского эмирата с Кокандским ханством в первой четверти XIX века, политическое противостояние между ними и их причины. Также, в статье автор остановился на вопросах, касающихся политических процессов в период образования Кокандского ханства.

Ключевые слова: Бухара, Коканд, эмират, ханство, посольство, политические взаимоотношения, Китай, Уратепе, диванбеги, Акмечеть, Туркистан, Кумгурган, Пишпак, Тукмак.

Kirish. Markaziy Osiyo xonliklarining XIX asr birinchi yarmidagi siyosiy tarixi o'rganilganda, Buxoro amirligining mintaqadagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalaridagi mavqei Xiva va Qo'qon xonliklariga nisbatan qudratliroq bo'lganligini ta'kidlash lozim.

Ashtarxoniyalar hukmronligining so'nggi davrida siyosiy boshboshdoqlik va o'zaro urushlardan foydalanib, Farg'ona vodiysi hududlarida yana bir yangi davlat Qo'qon xonligi tashkil topadi. Mang'itlarning hokimiyatga kelishi bilan vaziyat yanada keskinlashadi. Farg'ona vodiysini o'zining azaliy yerlari deb hisoblagan amirlik vakillari hududga da'vo qila boshlaydi. O'z navbatida Muhammadalixon xonlikni Buxoro amirligi hududining bir qismi hisobiga kengaytirishga harakat qiladi va Janubiy Oltoy tog'i etaklaridagi tojiklarni bo'ysundirdi. 1830–1840 yillari O'ratepa yana Qo'qon xonligi qo'lga o'tadi. Buxoro, Qo'qon va yuz urug'larning O'ratepa hududi uchun doimiy kurashlari uning hududini muntazam urush o'chog'iga va harbiy to'qnashuvlar maydoniga aylantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maqolani yoritishda mahalliy tarixchilar, rus harbiylari tomonidan yozilgan xotiralar, hisobotlar va ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar lari, harbiylari, amaldorlari, tomonidan yozilgan xotiralar, hisobotlar va tadqiqotchilar ilmiy adabiyotlari muhim o'rin tutadi. Xususan, Muhammadhakimxon to'ra, Xudoyorxonozoda, V.P.Nalivkin (1886), A.Z.Validovlarning (1915) asarlari, shuningdek tadqiqotchilaridan Muxtarov A. (1964), Beysembiyev T.K. (1987), Babadjanov B.M (2010), Vohidov SH (2014) hamda boshqa mualliflar tadqiqotlarida Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi siyosiy munosabatlarning ayrim jihatlariga to'xtalib o'tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda tarixiylik, ilmiylik, xolislik, tarixiy ma'lumotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, mantiqiy ketma-ketlik singari tamoyillarga asoslanib, Buxoro – Qo'qon munosabatlari tarixi yoritib o'tilgan.

XVIII asrning boshlarida Farg'ona vodiysida mahalliy aholi vakillaridan bo'lgan ming urug'i yangi davlat – Qo'qon xonligiga asos soladi. Ushbu davlat XVIII asr ikkinchi yarmida Erdonabiy (1751–1769) va Norbo'tabiy (1770–1798) hukmronligi yillarida Farg'ona o'z hududlarini kengaytirish va mustaqilligini mustahkamlashga erishadi. Qo'qon xonligining Buxoro yuborgan elchilari haqidagi ma'lumotlar tarixiy manbalar orqali bizgacha yetib kelgan [1]. Qo'qon xoni Erdonabiy (Abd al-Qayumxon) xonligi davrida mamlakat Chin davlati bilan muzokaralar olib borib, Xitoyning Qo'qon xonligi va Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston – Qoshg'ar ishlariga aralashmasligi borasida shartnoma tuzilishi natijasida ancha muddat tinchlik o'rnatildi [2]. U Isfara va Xo'jandni o'z mulklariga qayta qo'shib olib, 1754 yilning iyun-iyul oylarida Buxoro hukmdori Muhammad Rahimbiy bilan birgalikda O'ratepaga yuz urug'i vakili Fozilbiy ustiga yurish qiladi [3]. Ular Zomin mavzesida bir-biri bilan uchrashdilar va birgalashib O'ratepa qamaliga kirishdilar. Ammo bir necha kun o'tgach, Muhammadaminbiy qutqusiga uchib, har ikkalasi ham o'z Vatanlari sari qaytib ketdilar [4]. Ya'ni Hisor hukmdori Muhammadaminbiy yuzning aralashuvi bois bu yurish mag'lubiyat bilan tugaydi [5].

Norbo'tabiy (1770–1798) hukmronligi yillarida Qo'qon xonligi mustaqil, kuchli davlatga aylanadi. Hatto uni Xitoy tan oladi. Bu davridagi siyosiy barqarorlik mamlakat iqtisodining o'sishiga olib keladi. U O'ratepa hokim

Xudoyorbiy bilan tinchlik shartnomasini tuzadi. Ko'p o'tmasdan Xudoyorbiy vafot etib, o'rniga Bobobek Devonbegi (Xudoyorbiyning kichik ukasi) tayinlanadi. Bu voqea Amir Shohmurodning O'ratepaga (Xudoyorbiy amirlikning vassali hisoblangan) yurish boshlashiga turtki bo'ladi. O'z navbatida Norbo'tabiy ham Xo'jandga yurish qilib, Amir Shohmurodga O'ratepaga yurishni to'xtatishini va u yerda Buxoroning vassalligi saqlanib qolishini iltimos qilib elchi jo'natadi [6].

Xudoyorxonlarda o'zining "Anjum at-tavorix" asarida bu voqeani mutlaqo boshqacha talqin qilinadi. Uning aytishicha, Amir Shohmurod O'ratepani bosib olishga muayassar bo'lmasligini tushunib yetib, Farg'onaga Musaxon Dahbediyi elchi qilib jo'natadi [7]. Norbo'tabiy shayxni hurmat bilan kutib olib, unga qimmatbaho sarpolar kiygazadi va ikki o'rtada tinchlik shartnomasi tuziladi. Unga qo'shib javob elchiligi sifatida Farg'ona tarafdan Hakimxon Xo'ja boshchiligidagi missiya jo'natiladi. Amir Shohmurod ham tinchlik shartlarini qabul qilib, hatto, O'ratepa atrofidagi Zomini qaytarib beradi [8].

Qo'qon xonligining g'arbida joylashgan yuz urug'lari XIX asrning boshlarida kuchayib ketadi. Natijada Buxoro va Qo'qon xonliklarining hududi geografik jihatdan qisqara boshlaydi [9]. 1797 va 1803 yillar orasida ular ikki marta Buxoro qo'shinlarining hujumiga uchraydi [10].

1805 yili yetti yillik harakatlardan so'ng Olimxon Xo'jandni, 1806 yili esa O'ratepani zabt qilib, o'z tasarrufi doirasiga kiritdi [11]. Qamaldan so'ng u yerda joylashgan Buxoro qo'shini taslim bo'lib, mang'it amirlaridan shu viloyat hokimi mullo Ernazarbiy va uning o'g'li Pirnazarbiy, Bekmurod parvonachi, Hakim qushbegining ukasi Qobilbiy inoq kabilar asirga olinadilar. Keyin qo'qonliklar Jizzaxga muvaffaqiyatsiz yurish qildilar [12]. Lekin ko'p o'tmay O'ratepa mustaqillikni qo'lga kiritib, u yerda Mahmudxo'ja hokim bo'ladi. Qo'qonliklarning faolligi ularning yana buxoroliklar bilan to'qnashuviga olib keladi. O'ratepada Amir Haydar va uning tarafdori toshkentliklar va Olimxonning Qoshg'ar va Sayram ittifoqchiligidagi qo'shinlari o'rtasida katta jang bo'lib o'tdi. Amir Haydarning ittifoqchilaridan Turkistondagi qozoq sultonlarining vaqtida yetib kelishi natijasida pistirmada turgan o'n ming kishilik sayramliklar mag'lub bo'lib, Qo'qon qo'shinlari qochib ketadi [13].

Olimxon Buxoro qo'shinidan yengilib, siyosatini o'zgartiradi. Endi u Toshkentga yurish qilishga qaror qiladi va 1809 yili bu viloyatni ishg'ol etadi. Bu yerdan turib Olimxon qishning o'rtalarida qo'shinini Sayram va Chimkentga, chekingan toshkentliklar qo'shiniga qarshi yuboradi. Ob-havo qiyinchiliklari, qishning sovuq kelishi hamda Olimxon qahri va zulmidan to'yan qo'shin boshliqlari va xon dushmanlari uning ukasi Umarxonni Olimxonga qarshi g'ij-gijladilar. Umarxon fitnachilar boshliq qo'shin bilan akasini tashlab, Qo'qonga qaytdi va xonlik taxtiga o'tirdi [14]. Olimxon Toshkentda qolgan yaqinlari bilan Qo'qonga qaytayotganda Umarxon va Toshkent zodagonlaridan topshiriq olgan amaldor yasovullar va ayg'oqchi-qorovullar ta'qibi natijasida Olti qush (Dang'ara atrofidagi qishloq) degan mavzeda qurshovda qoladi va Kambar mirzo ismli amaldor otgan o'qdan halok bo'ladi [15].

Olimxon o'limidan so'ng (hijriy 1225, muharramning birinchi kuni, milodiy 1810 yil oltinchi fevral) Qo'qon taxtiga Umarxon ibn Muhammad Abdulhamid (Norbotir, Norbo'taxon) Bahodir o'tirdi [16]. Aytish mumkinki, Umarxon hukmronlik qilgan yillarda mamlakat mintaqadagi siyosiy jarayonlar bilan birga qo'shni davlatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlarda ham o'z o'rniga ega bo'lgan. Umarxonning hokimiyatni egallashi zodagonlarning qayta hokimiyatga kelishi hamda diniy ulamolarning davlat va siyosat ishlariga aralashuviga olib keldi [17]. Bu davrda Samarqandga Yusuf mingboshi rahbarligidagi qo'shin yuborilib, bu viloyat hududlari talon-taroj etiladi [18]. Bu holatda O'ratepa hududi bahsli zona sifatida Buxoro bilan o'zaro tortishuvlar maydoniga aylandi [19].

1813 yili qo'qonliklar yana O'ratepani bosib olishadi. O'ratepaning yuz urug'i ulug'lari va Xo'ja Ahror urug'i vakillari faxriy asirlar sifatida Farg'onaga ko'chirildi. Shu tarzda 1815 yilgacha Qo'qon O'ratepani o'z qo'lida ushlab turadi [20]. Bu urushlardan faqatgina oddiy xalq azob chekardi, xolos.

1815 yili Buxoro amirligiga qarashli bo'lgan Turkiston, 1817 yili esa O'ratepa qaytadan bosib olinadi. Sirdaryo bo'ylaridagi qozoqlardan bosib olingan yerlarda Yangiqo'rg'on, Julak, Qamishqo'rg'on, Oqmachit, Qo'shqo'rg'on nomli harbiy istehkomlar barpo etiladi. Bu yerlar Xiva, Buxoro, Toshkent shaharlarini Orenburg orqali Rossiya bilan bog'laydigan muhim savdo yo'llari ustida joylashgan edi [21]. Voqealarning bu holatda davom etishining sababi amirlik bu paytda Xiva xonligi bilan ham dushmanlik munosabatida bo'lib, Qo'qonning zafarli yurishlariga to'siq bo'lolmaganligidadir.

1821 yili Umarxon Xiva xoni Muhammad Rahimxon bilan kelishib, Miyonqolda Buxoro amiriga qarshi ko'tarilgan xitoy-qipchoqlar isyonidan foydalanib, amirlik hududiga hujum qildi. Qo'qon qo'shini Samarqandni yetti kun qamalda ushlab turishga muvaffaq bo'ldi. Biroq yozning jazirama issig'i ushbu yurishni to'xtatishga sabab bo'ldi [22].

Xulosa. Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi munosabatlar ziddiyatli kechganligini ko'rish mumkin. Bunda amirlik Farg'ona vodiysi yerlarini o'zining ajralmas hududi sifatida bilib, o'z ta'sir doirasida ushlab turishga harakat qilgan bo'lsa, Qo'qon xonligi o'zini mustaqil davlat deb hisoblagan holda tashqi siyosat olib borgan. Afsuski, bu holat ruslar bosqini davrida ham saqlanib qolgan.

Muhammadalixon hukmronligi davrining oxirgi yillarida Qo'qon xonligining ichki ahvoli og'irlashdi. Qo'qon hududiga qo'shilgan qirg'iz va qipchoq yetakchilari bir tomondan, ayrim mahalliy amaldorlar va a'yonlar ikkinchi tomondan o'zaro qarshilik va dushmanlikni boshlab yuborishdi. Ushbu ichki kelishmovchilik va qarama-qarshiliklardan foydalangan Amir Nasrullo xonlikni egallash harakatiga tushadi. Natijada 1842 yili 12 may kuni Buxoro amiri Nasrullo harbiy yurish qilib, Qo'qon shahrini egallaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, aslida bu yurishni turli guruhlarining ichki siyosiy ziddiyatlari yuzaga keltirgan edi. Ushbu ziddiyatlar ancha vaqt saqlanib qolganini ta'kidlash joiz.

ADABIYOTLAR

1. Валидов А.З. Восточные рукописи в Ферганской области // Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества. 1913-1914. – Пг.: Типография Императорской Академии наук, 1915. Том XXII. – С. 303-320; Его же. Некоторые данные по истории Ферганы XVIII столетия // Протоколы Туркестанского кружка любителей археологии. Вып.2. – Ташкент, 1916. – С. 68-86.; Бейсембиев Т.К. «Та'рих-и Шахрухи» как исторический источник. – Алма-Ата: Наука, 1987. – 200 с.; Вохидов Ш. Кўкон хонлиги тарихи (хонлик тарихи – манбаларда). – Тошкент, 2014. – 1492 б.
2. Вохидов Ш. Кўкон тарихнавислик мактаби шаклланишининг тарихий шароити (сийсий жарёнлар) / Кўкон хонлиги тарихи (хонлик тарихи – манбаларда). – Тошкент, 2014. – Б. 10.
3. Бейсембиев Т.К. «Та'рих-и Шахрухи» как исторический источник ... – С. 13; Валидов А.З. Некоторые данные по истории Ферганы XVIII столетия. ... – С. 86.

4. Мухаммадхакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих. / Форс-тожик тилидан таржимон, кириш, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Ш.Воҳидов. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2010. – Б. 22-23.
5. Kholikulov A.B. Bukhara-Kokan relations in the second half of the 18th century - the beginning of the 19th century. International scientific and current research conferences, 1(01), 2022, 176-178.
6. Мухаммадхакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих ... – Б. 34-36
7. Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих (Тарих юлдузлари) / Форс-тожик тилидан ўзбек тилига таржимон ва изоҳлар муаллифи: тарих фанлари доктори Шодмон Воҳидов. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2014. – Б. 154.
8. Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия / Рецензенты: Хисао Коматцу, С.У. Каримова, Н.И. Тошев. – Токио – Ташкент, 2010. – С. 116.
9. Бейсембиев Т.К. «Та'рих-и Шахрухи» как исторический источник ... – С. 15.
10. Мухтаров А. Очерк истории Ура-Тюбинского владения в XIX в. / Под ред. Б.И. Искандарова. – Душанбе: Изд-во АН Тадж.ССР, 1964. – С. 24-25.
11. Наливкин В.П. Краткая история Кокандского ханства. – Казан: Тип. Императорского университета, 1886. – С. 79-83; Бейсембиев Т.К. «Та'рих-и Шахрухи» как исторический источник ... – С. 14.
12. Мухаммадхакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих ... – Б. 283-287.
13. Бейсембиев Т.К. «Та'рих-и Шахрухи» как исторический источник ... – С. 16.
14. Воҳидов Ш. Қўқон тарихнавислик мактаби шаклланишининг тарихий шароити ... – Б.10.
15. Мухаммадхакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих ... – Б. 334.
16. Воҳидов Ш. Қўқон тарихнавислик мактаби шаклланишининг тарихий шароити ... – Б. 10
17. Бейсембиев Т.К. «Та'рих-и Шахрухи» как исторический источник ... – С. 17.
18. Воҳидов Ш. Қўқон тарихнавислик мактаби шаклланишининг тарихий шароити ... – Б. 10.
19. Kholikulov A.B. Bukhara-Kokan relations in the second half of the 18th century - the beginning of the 19th century. International scientific and current research conferences, 1(01), 2022, 176-178.
20. Бейсембиев Т.К. «Та'рих-и Шахрухи» как исторический источник ... – С. 18.
21. Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих (Тарих юлдузлари) / Форс-тожик тилидан ўзбек тилига таржимон ва изоҳлар муаллифи: тарих фанлари доктори Ш.Воҳидов. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2014. – Б. 311.
6. Дубовицкий Виктор Васильевич. История формирования системы геополитических взаимоотношений России и Средней Азии в период 1700-2002 гг. : Дис. д-ра. ... ист. Наук. Душанбе, 2004
7. Генис В. Л. Разгром Бухарского эмирата в 1920 году // Вопросы истории. - 1993. - № 7; Борисова И.Д. Правовое обеспечение национальных государственных интересов Советской России и СССР в Центрально-Азиатском и Кавказском регионах в 1917-1929 гг. : историко-правовое исследование. Автореферат дисс... докт.юр.наук. Владимир. 2006; Мошкин С.В. "Экспансионизм в идеологии и политике большевизма". Автореферат дисс... доктора политических наук. Екатеринбург. 2000; М.Л.Куделя-Одабашьян. Туркестан в составе Советской России: Проблемы социально-экономического и политического развития, октябрь 1917 г. - октябрь 1924. Диссертация на соискание доктор исторических наук. Москва. 2001; Пылев А.И. Басмаческое движение в Средней Азии (1918-1934). Общие черты и региональные особенности. Автореферат диссертации кандидата исторических наук. Санкт-Петербург. 2007; Шевченко Д.В. "Басмаческое движение. Политические процессы и вооруженная борьба в Средней Азии. 1917 - 1931 гг." Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Иркутск. 2006.
8. Бутунроссия ижроия марказий комитети – 1917 йилда ташкил қилинган, РСФСРнинг 1917-1937 йилларда қонунчилик, оғора этиш ва назорат қилиш давлат ҳокимияти органи.
9. Генис В. Л. Разгром Бухарского эмирата в 1920 году // Вопросы истории. - 1993. - № 7. - С. 39.
10. Бройдо Г.И. – (1884-1956) – 1919-1920 йилларда РСФСР ХКС ва ВЦИК Турккомиссия партия бўлими бошлиғи
11. Борисова И.Д. Правовое обеспечение национальных государственных интересов Советской России и СССР в Центрально-Азиатском и Кавказском регионах в 1917-1929 гг. : историко-правовое исследование. Автореферат дисс... докт.юр.наук. Владимир. 2006. Стр.11-12.
12. Илхамов З.А. Реформаторское движение младобухарцев в начале XX века. / «Азиатская часть Российской империи в революционных событиях 1917 г.». Международная научная конференция. Оренбург. 2017 г. Стр.153-156
13. Файзулла Хўжаев (1896-1938) - Ёш бухороликлар етакчиси, 1920 йилда Бухоро инқилобий қўмитаси аъзоси, 1922 йилдан Марказий Қўмитанинг Ўрта Осиё бўлими бюроси аъзоси, 1925 йилдан Ўзбекистон ССР Халқ Комиссарлир советининг раиси, СССР МИК раисларидан бири.
14. Қўқон мухториятининг тугатилиши назарда тутилмоқда.
15. Колесов Федор Иванович (1885-1940) –1917-1918 йилларда Халқ Комиссарлари Советининг раиси.
16. Ражабов Қ. Бухорога Қизил Армия босқини ва унга қарши кураш: Тарих ҳақиқати (1920-1924 йиллар). Тошкент, "Маънавият", 2002. 9-б.
17. Мўминов Д. Ўрта Бухоро ва Шарқий Бухорода Қизил Армияга қарши қуроли ҳаракат (1920-1926 йиллар). Тарих фан номзоди...диссертация. Тошкент. 2010. Б.27.
18. Аксельрод Т.Л. – (1888-1938) - большевик, ТАССР инқилобий ҳарбий кенгаши аъзоси, РСФСР ХКС ва ВЦИК Турккомиссия аъзоси.
19. Турккомиссия – Туркстон ишлари бўйича комиссия, 1919 йил 8 октябрда ташкил этилган, РСФСР ХКС ва ВЦИК номидан Туркстонда фаолият юритган.
20. Фаргона водийсидаги 1917 йил охирларидан буён давом этиб келаётган миллий истиклочилиқ ҳаракати назарда тутилмоқда.



UDK:622.276(09)(575.121)

Xusnida ERGASHEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: ergasheva.xusnida@bk.ru

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, t.f.n. Q.Akbarov taqrizi asosida

AFTER THE SECOND WORLD WAR, THE ORIENTATION OF THE OIL INDUSTRY IN THE FERGHANA VALLEY TO THE NATIONAL ECONOMY

Annotation

The article examines the history of the oil industry's orientation to the national economy as a result of the development of the chemical industry after the Second World War, and it is shown that this branch of industry has its importance in the development of all sectors of society. Issues related to the widespread use of extracted and processed oil products in the national economy and the development of all industrial sectors of the society through the oil industry were studied. The article is devoted to the history of increasing the welfare of the population by directing the oil industry of the republic to the national economy, based on archival documents from the funds of the National Archives of Uzbekistan, scientific research related to this topic, and includes conclusions on the topic.

Key words: Oil extraction, oil refining, directing the oil industry to the national economy, improving all areas of industry.

ПОСЛЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ ОРИЕНТАЦИЯ НЕФТЯНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ НА НАРОДНОЕ ХОЗЯЙСТВО

Аннотация

В статье рассматривается история ориентации нефтяной промышленности на народное хозяйство в результате развития химической промышленности после Второй мировой войны и показано, что эта отрасль промышленности имеет свое значение в развитии всех отраслей общества. Изучены вопросы, связанные с широким использованием добываемых и переработанных нефтепродуктов в народном хозяйстве и развитием всех промышленных отраслей общества за счет нефтяной промышленности. Статья посвящена истории повышения благосостояния населения путем направления нефтяной промышленности республики в народное хозяйство, на основе архивных документов из фондов Национального архива Узбекистана, научных исследований, связанных с данной темой, и включает в себя выводы по теме.

Ключевые слова: Нефтедобыча, нефтепереработка, направление нефтяной промышленности в народное хозяйство, совершенствование всех отраслей промышленности.

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN SO'NG FARG'ONA VODIYSIDAGI NEFT SANOATINI XALQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILISHI

Annotatsiya

Maqolada neft sanoatini ikkinchi jahon urushidan so'ng kimyo sanoatining rivojlanishi natijasida xalq xo'jaligiga yo'naltirilishi tarixi o'rganilib, sanoatning ushbu sohasi jamiyatdagi barcha sohalarining yuksalishida o'z ahamiyatiga ega ekanligi ko'rsatilgan. Qazib olingan va qayta ishlangan neft mahsulotlaridan xalq xo'jaligida keng foydalanish yo'lga qo'yilishi va neft sanoati orqali jamiyatni barcha sanoat sohalarini rivojlantirish bilan bog'liq masalalar o'rganilgan. Maqola O'zbekiston milliy arxivi fondlaridagi, Farg'ona viloyat davlat arxivi fondidagi arxiv hujjatlari va ushbu mavzuga aloqador bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlari asosida respublikaning neft sanoatini xalq xo'jaligiga yo'naltirish orqali aholining turmush farovonligini oshirish tarixiga bag'ishlanib, mavzuga doir xulosalarni ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Neft qazib olish, neftni qayta ishlash, neftni sanoatini xalq xo'jaligiga yo'naltirish, sanoatning barcha sohalarini yuksaltirish.

Kirish. Neft va neft mahsulotlariga bo'lgan qiziqish qadimgi davrlardan boshlab insonlarning e'tiborini tortib kelgan. Dastlabki vaqtlarda neftdan aholi faqat ma'lum bir maqsadlarda foydalana boshlagan bo'lsa, keyinchalik uni qayta ishlanib sanoat darajasiga ko'tarildi. Dunyo mamlakatlari aholisi neftdan XX asrning ikkinchi yarmigacha yoqilg'i sifatida foydalanib kelgan bo'lsa, ikkinchi jahon urushidan so'ng kimyo sanoatining rivojlanishi natijasida neftdan turli xil mahsulotlar tayyorlanib, xalq xo'jaligiga yo'naltirish ishlari amalga oshirildi. Maqolada tadqiqotchi ikkinchi jahon urushidan so'ng respublika neft sanoatini xalq xo'jaligiga yo'naltirilishi tarixi o'rganilib, mazkur sohaning shu davrdagi holati, muammolari, faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan omillar yuzasidan bir qator tarixchi olimlar va soha mutaxassislarining bildirgan fikrlari, tadqiqotlari natijasida

yaratilgan asarlari orqali mavzuni yoritishni maqsad qilib olgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asrning ikkinchi yarmi, ya'ni ikkinchi jahon urushidan so'ng respublika neft sanoati sohasini xalq xo'jaligiga yo'naltirish tarixini o'rganishda sovet davrida nashr qilingan mavzuga oid ilmiy risola va monografiyalarda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanildi. Shu jumladan sovet davrida nashr qilingan A.R.Muhidov, T.T.Tojievning "O'zbekistonning qora oltini", M.Zokirov "Mineral xom ashyo manbalari-insoniyat boyligi", A.A.Abidov, A.G.Hayitov, I.X.Xolismatov "Neft va gaz geologiyasi", R.H.Abdullayev "SSSR xalq xo'jalik kompleksi va yer osti boyliklari", I.O.Brod "SSSR ning yer osti neft va gaz boyliklari", V.A.Osminin "O'zbekiston SSRda sanoat, qurilish va transportning rivojlanishi", M.Normuhammedov "O'zbekistonning yer osti boyliklari-xalq xizmatida",

I.Ye.Mins "O'zbekiston yoqilg'i sanoati", E.A.Ahmedov, Ye.N.Fataxov "Bitmas-tuganmas boyliklar o'lkasi", A.K.Karimov, X.V.Avazmatov "Neft va gaz xalq xizmatida", D.A.Katrenkoning "Qora oltin" nomli monografiyasi, O'zbekiston milliy arxivi R-2762-fondining va Farg'ona viloyat davlat arxivi R-837-fondining yig'ma jildlarida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologiyasi. Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushidan so'ng Farg'ona vodiysidagi neft sanoatini xalq xo'jaligiga yo'naltirish orqali aholi farovonligini oshirishga erishish tarixini o'rganishda qiyosiy, tahliliy usullardan foydalanib, mavzuni yoritib berildi. Mazkur masalani o'rganishda mavzuga oid bo'lgan asarlardan, ilmiy tadqiqot ishlaridan, arxiv materiallaridan foydalanilgan holda xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Yoqilg'i energetikasi hisoblangan neft va gazdan foydalanish tarixi qadimiy davrlardan amalga oshiriladi. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan, sanoatda foydalanish XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Dastlab kerosin ishlab chiqarilgan bo'lsa, hozirgi zamon sanoati, xususan, hozirgi zamon kimyo sanoati vujudga kelgan davrda neft va gazdan keng foylanish yo'lga qo'yildi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab neft va gazdan foydalanish haqida bilim hamda tajriba to'plash, ularning fizik-kimyoviy xossalari o'rganish, shahar va qishloqlarni gazlashtirish, sanoatda ham gazdan foydalanishga e'tibor qaratildi. Endi faqat gaz va neftdan yoqilg'i energetikasi sifatida emas, balki ularni qayta ishlab olinadigan mahsulotlardan aholi ehtiyojlari uchun foydalanish yo'lga qo'yildi. Aholi orasida yoqilg'iga bo'lgan talab ortib borgan sabab, neft va gaz mahsulotlarini qayta ishlanishi yuqori darajaga ko'tarildi[6].

Farg'ona vodiysida tashkil qilingan "Kalilneft" trestida 1942 yilda 146 ming, 1943 yilda 226 ming, 1944 yilda 293 ming, 1945 yilda 421 ming, 1946 yilda 638 ming tonna neft qazib olingan[8]. Ikkinchi jahon urushi yillarida neftga bo'lgan talab ortib borgan sari qazib olish va qayta ishlash ko'rsatkichlari ortib borgan. Urushdan keyingi yillarda neftga bo'lgan talab yanada ortib borganligi, neft kimyo sanoatining asosiy xom ashyosi ekanligi aniqlangandan so'ng neftni qazib olish sur'atlari ortib bordi. Jumladan 1967 yilda respublika miqyosida jami qazib olingan neft 1220,6 million tonnani tashkil qildi[9]. Bundan ko'rinib turibdiki, neft qazib olish olish yildan yilga ortib borgan. Neft bilan birgalikda gaz sanoati ham rivojlanib bordi. Neft va gaz sanoatining rivojlanib borishi xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki neft va gaz sanoati tufayli respublikada nafaqat yoqilg'iga bo'lgan ehtiyojni qondirilgan balki kimyo sanoatining rivojlanib borishi natijasida neft va gazdan turli xil mahsulotlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

Kimyo sohasidagi mutahassislar neft va tabiiy gazdan ilgari insoniyatga ma'lum bo'lmagan ajoyib xususiyatlarini kashf qilib, ulardan yangidan yangi qimmatbaho mahsulotlar olish yo'llarini izlab topdilar. Kimyogar olim D.I.Mendeleyev neftning qadr-qimmatini to'g'risida gapirib, uni puldan ham aziz, degan fikrni aytgan. Neft, darhaqiqat, bebaho boylik hisoblanadi. Neft tarkibidan son-sanoqsiz qimmatli mahsulotlar olinadi. Shuning uchun xalqimiz neftni azaldan "qora oltin" deb nomlagan[7].

Ushbu "qora oltin" inson hayotining turli jabhalariga tobora chuqurroq kirib, ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini tobora ortib borishiga erishmoqda. "Qora oltin" va "Zangori oltin" o'zidan issiqlik ajratishi jihatidan yonilg'ining boshqa turlariga nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega hisoblanadi. Masalan, bir kilogramm tabiiy gaz ikki kilogramm toshko'mir yoki bo'lmasa, to'rt kilogramm quruq o'tinning o'rmini bosadi[3].

XX asrning 50-60 yillariga kelib neft va gaz mahsulotlari kimyo sanoatida keng foydalanilib, xalq xo'jaligining rivojlanishi, aholining ijtimoiy turmushini

yaxshilanishida katta ahamiyat kasb etdi. Tabiiy gazdan ammiak, atsetilen, karbamid, gaz qurumi va boshqa mahsulotlar olina boshlandi va ulardan azotli o'g'itlar, smola, sun'iy kauchuk, sun'iy tolalar tayyorlanadi. Bundan tashqari neft konidan chiqadigan gaz va neftni qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan gazlar kimyo sanoatining asosiy xom ashyosi hisoblanadi. Bu gaz tarkibi etan, propan, propilen, izobutan kabi xossalardan iborat bo'lib, ushbu xossalari xalq xo'jaligi uchun mahsulotlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan hisoblanadi [1].

Kimyo sanoati rivojlanib borishi natijasida neft va tabiiy gaz birlamchi energiya ishlab chiqaruvchi yonilg'i sifatida ishlatilishidan tashqari ular tarkibidan etan, etilen, polietilen, etil spirti, atsetilen, propan, propilen, polipropilen, plastik massalar, butan, butilen, izobutan, butadiyen, sintetik kauchuk, benzol, atseton, turli eritmalar, sun'iy tolalar, oltingugurt, qorakuya va yana ko'plab shu kabi mahsulotlar olinib xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun yo'naltirildi. Tabiiy gazlardan olinayotgan mahsulotlarning turlari ortib bordi. Masalan, bir tonna sitetik kauchuk olish uchun 2 tonna etil spirti yoki 9 tonna don, yoki bo'lmasa 22 tonna kartoshka, yoki 30 tonna qand lavlagi kerak bo'ladi, lekin ushbu mahsulotlarni 5 tonna suyultirilgan gazdan ham olish mumkin. Bu esa mahsulot tannaxini kamayishiga sabab bo'ladi. Bunday qulayliklar boshqa moddalar olishda ham kuzatiladi. Bu jarayon esa respublika iqtisodiyotini tejash va xalq xo'jaligining rivojlantirish uchun sabab bo'ladi[2].

Shuning uchun neft va tabiiy gazlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bordi. 1972 yillarga kelib qazib olingan neft miqdori kishi boshiga o'rtacha bir tonnani tashkil etdi. bu miqdor dunyo mamlakatlarida har xil ko'rsatkichda bo'lgan. Jumladan, Amerika qo'shma shtatlarida kishi boshiga 10 tonnani tashkil etsa, Hindistonda esa kishi boshiga 0,2 tonnaga to'g'ri kelgan. 1970 yillarga kelib yer sayyorasida har yili 6 milliard tonna neft qazib olingan hamda qazib olingan va qayta ishlangan neftning 25-30 foizi transport sohasida, 30-35 foizi issiqlik elektr stansiyalarida, 30 foizi sanoat sohasida, 5-10 foizi esa aholi turmush ehtiyojlari uchun sarflangan[4].

Dunyo mamlakatlarining sanoati va qishloq xo'jaligini hamda jamiyat hayotini yoqilg'i energetikasi hisoblangan neft va gazsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Neft va gaz bugungi kundagi sanoatda va qishloq xo'jaligida juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan g'oyat murakkab texnikani harakatga keltirib turgan qudratli energiya manbaigina bo'lib qolmay, balki o'n ming xildan ortiq mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini berayotgan bebaho xom ashyo hisoblanadi[3].

Yoqilg'i energetikasi hisoblangan neftdan atir, vazelin, krem, mazlarning ko'pi tayyorlanadi. Neft gazlaridan hosil qilinadigan smolalardan sun'iy teri, plastmassa, foto-plyonka, sinmaydigan bexatar oyna yasash uchun foydalaniladi. Aptekalarda tayyorlanadigan dori-darmonlar oq meditsina nomi bilan atalgan moydan qo'shib tayyorlanadi, bu moyni ham neftdan olinadi. Yana elektr stansiyalaridagi kuchli transformatorlar va viklyuchatellar ham neft moylari bilan to'ldirilgan. Ushbu moylar juda yaxshi izolator hisoblanadi. Mashinalar yurishi uchun yo'llar va piyodalar yo'laklariga ishlatiladigan asfalt ham neft mahsuloti bo'lgan gudrondan tayyorlanadi. Ushbu mahsulot orqali mashinalar yurishi uchun qulay bo'lgan yo'llarning yuzaga kelishi ham aholi turmush darajasini yaxshilanishiga sabab bo'lgan. Bundan tashqari qishloq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega hisoblangan donlar va oziq-ovqat mahsulotlari saqlanadigan omborlarda zararli hasharotlarning ko'payib ketishini va turli kasalliklar keltirib chiqarimasliklari uchun neft gazi bilan dudlab boriladi. Botqoqliklardagi bezgak chivinlarning tuxumlarini ham neft yoki mazut sepib o'ldiradilar. Keltirilgan ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz xalq xo'jaligida neftning ahamiyati beqiyos ekanligi namoyon bo'lmoqda. Shu sababli ham neftni yangi usullar orqali qazib olishga erishildi. Bu esa

o'z navbatida aholi turmush darajasini yaxshilanishiga hamda davlatning harbiy quvvatini oshirilishiga sabab bo'ldi[5].

Qazib olingan neftni qayta ishlanishi natijasida neftning tarkibidan gaz, benzin, ligroin, kerosin, gazoyl, solyar, mazut ajralib chiqadi. Ajralib chiqqan benzinning o'zi bir necha xilga bo'linadi. Bular avtomobil benzini, aviatsiya benzini hamda erituvchi benzinlar hisoblanadi. Kerosin ham qishloq xo'jaligida ishlatiladigan traktorlar uchun va yoritgich o'rnida chiroqlar uchun alohida ravishda ishlab chiqariladi. Ligroinlarning ham yonilg'i sifatida ba'zi traktorlar uchun ishlatish mumkin. Gazoyl va solyar, dizellarni yonilg'i sifatida dvigatellar uchun ishlatiladi. Ajratib olingan mazutdan har xil mashinalar uchun moylar, ba'zan esa yoqilg'i sifatida hamda temir yo'l vagonlarining bukslarini moylash uchun ham ishlatiladi. Shuningdek, har xil mashina ehtiyot qismlari uchun mashina moylari, ya'ni avtollar, aviatsiya moylari va boshqalarni ham neftdan tayyorlanadi[5].

Insonlar, neftdan kerosin va benzin ajratib olishni o'rganganlaridan so'ng, undan keng foydalana boshlaganlar hamda shu bilan birga sanoatning yangi tarmog'i vujudga kelgan. Ajratib olingan kerosin va benzin avtotransport, aviatsiya hamda shu kabi ichdan yonadigan dvigatelli mashinalarning rivojlanishi uchun asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Bu esa kelajakda turli xil transportlarning, texnikalarning rivojlanishiga sabab bo'lgan. Turli xildagi texnikalarning yuzaga kelishi aholi turmush darajasini yaxshilanishiga, mehnat unumdorligini ortishiga, ishchi kuchining kam sarflanishiga, davlatlarning rivojlanishiga sabab bo'lgan[6].

Dastlab neftdan faqat kerosin va benzin ajratib olingan bo'lsa, keyinchalik turli xil mahsulotlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Neft, mazut hamda toshko'mirdan olinadigan aromatik uglevodorodlar, neftni qayta ishlashda ajralib chiqadigan gazlar hamda tabiiy gazlardan kimyo sanoati orqali yuqori sifatli sun'iy gazlamalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Qadimdan kishilarga yengil, chidamli va chiroyli ipak gazlamalar tayyorlash ma'lum bo'lgan. Insonlar ularni ishlab chiqarish uchun ko'p mehnat va vaqt sarf qilishgan. Shuning uchun kishilar qadimdan sun'iy ipak tola yaratishning usullarini hamda bu maqsadni amalga oshirish uchun shunga muvofiq ravishdagi xom ashyoni axtarib kelganlar. Bu jarayonni amalga oshirish uchun sun'iy ipak sanoatining dastlabki davrlarida yog'ochdan, somondan, qamishdan va boshqa mahsulotlardan xom ashyo sifatida foydalanib kelishgan. Bulardan viskoza deb ataluvchi sun'iy ipak tayyorlangan. Neft, mazut, toshko'mir, tabiiy gazlardan yuqori sifatli sun'iy ipakni tayyorlashni yo'lga qo'yilishi boshqa mahsulotlarga nisbatan kam mablag' va kuch sarflanishiga sabab bo'ldi[6].

Bundan tashqari tabiiy gazdan va kreking gazidan sun'iy yo'l bilan atsetat ipakni olish mumkinligi ma'lum bo'ldi va bu jarayon yo'lga qo'yildi. Atsetat ipak tashqi ko'rinishidan tabiiy ipakdan farq qilmaydi, lekin bu ipak g'ijimlanmaydi. Bu hozirgi kunda ultragunafsha nurlari uchun tiniq yagona tola hisoblanadi. Undan simlarni o'rash uchun izolyatsiya materiali sifatida, shoyi to'qish va trikotaj sanoatida keng foydalanilmoqda. Ushbu tolaning mustahkamligi yuqori darajada bo'lib, ushbu toladan to'qilgan bir kvadrat

santimetr yo'g'onlikdagi arqonga maxsus ishlov berilganidan so'ng 10 tonna yukni yoki yuk ortilmagan kichikroq temir yo'l vagonini ko'tara oladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu tola juda mustahkam mahsulot hisoblanadi.

Neft va tabiiy gazdan sun'iy ipak tolalardan tashqari sun'iy bo'yoqlar ham ishlab chiqariladi. Masalan, azobo'yoqlar yetishtirishda neft tarkibidagi benzoldan olinadigan anilin asosiy xom ashyo vazifasini bajaradi. Ushbu mahsulotlardan tayyorlangan bo'yoqlar o'simlik va hayvonlardan olinadigan bo'yoqlarni tayyorlanishidan ko'ra qulay, arzon hamda kam vaqt sarflanishi bilan ajralib turadi. Bo'yoqlar turli tuman materiallarga rang berish hamda asosan talali materiallarni jumladan, paxta, kanop, jun, ipak, charm sun'iy ipak, kapron, neylon kabilarni bo'yash uchun ishlatiladi. Bo'yoqlardan yana rezina va plastmassa, sovun hamda yog'larga rang berish, siyoh, qalam ishlab chiqarishda keng foydalaniladi. Qadimgi davrlardan boshlab odamlar bo'yoqlardan keng foydalana boshlagan. Ammo qadimda bo'yoq olish uchun juda ko'p mehnat hamda vaqt talab sarf qilingan. Har xil bo'yoqni tayyorlash uchun turli xil mahsulotlardan foydalanilgan. Jumladan, "tir qirmizi" deb nomlangan dunyoga mashhur bo'yoqni dengiz mollyuskalari (chig'anoqlari)ning ayrim turidan olingan. Ushbu bo'yoqning bir kilogrammini tayyorlash uchun suvda yaxshi suza oladigan, suv ostiga sho'ng'ib, suv ostida ko'p vaqt yura oladiganlar dengiz ostidan 10000 ta qisqichbaqacha olib chiqishlari, so'ngra undan bo'yoq tayyorlanishi kerak bo'lgan. Ko'k nil deb nomlangan bo'yoqning yana bir boshqa turini Hindiston va Xitoyda o'sadigan indigofera o'simligi bargidan tayyorlangan. 2 kilogramm ko'k nil bo'yog'ini tayyorlash uchun 100 kilogramm indigofera bargi kerak bo'lgan. Yana bir boshqa alizarin deb nomlangan bo'yoqni morena o'simligining ildizidan tayyorlangan. Bir kilogramm morena ildizidan faqat 3 gramm bo'yoq olingan. Mollyuska hamda o'simliklardan bo'yoq olishning mashaaqatligi va qimmatga tushishi kishilarni birinchi navbatda kimyogarlarni sun'iy bo'yoq moddalar olish masalasini hal qilishga alohida e'tibor berishga majbur etdi. Hozirgi kunda minglab sintetik bo'yoq moddalar ma'lum, ulardan bir necha yuztachasi texnika va turmushda muvaffaqiyat bilan keng foydalanilmoqda. "Tir qirmizi", ko'k nil, alizarin, fuksin kabi ilgaridan ma'lum bo'lgan ajoyib bo'yoqlar ko'plab sintez qilinmoqda va ishlatilmoqda. Neftning tarkibida mavjud bo'lgan benzoldan olinadigan anilindan ko'k nil va boshqa bir qancha bo'yoqlar olish mumkin. Sun'iy bo'yoqlar tayyorlashda, jumladan, azobo'yoqlar yetishtirishda neft tarkibidagi benzoldan olinadigan anilin asosiy xom ashyo sanaladi. Anilindan ko'k nil va boshqa bo'yoqlar ham olinadi. Benzoldan yana alizarin deb nomlangan bo'yoqni olish mumkin[6.43-b.]. Bundan ko'rinib turibdiki, neft va gaz mahsulotlaridan turli sun'iy bo'yoqlar tayyorlanishi yo'lga qo'yildi.

Xulosa. Ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish yillarida uglevodorod yoqilg'isi hisoblangan neftga bo'lgan talab ortib bordi. Chunki neftdan faqat yoqilg'i sifatida balki, kimyo sanoatining asosiy xom ashyo bazasi sifatida keng foydalanish yo'lga qo'yildi. Neftdan turli xil mahsulotlar tayyorlanib, xalq xo'jaligida foydalanish orqali aholining turmush farovonligi ortib bordi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев Р.Х. СССР халқ хўжалик комплекси ва ер ости бойликлари. –Т. Ўзбекистон.1987. – 13 б.
2. Абидов А.А., Ҳайитов О.Ф., Холисматов И.Х. Нефть ва газ геологияси. –Т. 2005. – 106-107 б.
3. Авазатов Х., Мухаммадқулов А. Нефть ва газнинг мўъжизалари. –Т. 1974. – 6-7 б.
4. Зокиров М.Минерал хом ашё манбалари-инсоният бойлиги. –Т. Ўзбекистон. 1981. –17 б.
5. Катренко Д.А. Қора олтин. –Т.1950. – 45,55 б.
6. Каримов А.К., Авазатов Х.В. Нефть ва газ халқ хизматида. –Т.1962. – 5,34,35,43 б.
7. Мухидов А.Р., Тожиев Т.Т. Ўзбекистоннинг қора олтини. – Т.Фан.1972. – 3,6,26,29 б.
8. Farg'ona viloyat davlat arxivi 837-fond, 1-ro'yxat, 632-ish, 7-varaq orqasi.
9. O'zbekiston Respublikasi milliy davlat arxiva 2762-fond, 1-ro'yxat, 193-ish, 4-v.



UDK:321.74:323.(575.1+470)

Xurshida YUNUSOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti professori

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori D. Bobojonova taqrizi asosida

“PAXTA ISHI” QATAG‘ONLARINING KELIB CHIQISHI VA UNING AMALGA OSHIRILISHI XAKIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya

Ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruviga asoslangan sovet davlati boshqaruvi o'z hukmronligining barcha yillarida mustaqil fikrga ega bo'lgan ziyolilar, davlat rahbarlarini ta'qib ostida ushlab keldi, kerak bo'lganda qatag'on qilish siyosatini amalga oshirdi. Natijada, sovet davlati tashkil topgandan to inqiroz davrigacha qatag'on apparati ishlab turdi. Maqolada, O'zbekistonda "paxta ishi" deb nom olgan qatag'onning kelib chiqish sabablari, xalq xo'jaligidagi qo'shib yozish holatlarining sabablari, berilgan rejari bajarishning qat'iy talabi kabilar birlamchi manbalar asosida tahlil qilib beriladi.

Kalit so'zlar: Tizim, mafkura, qatag'on, ta'qib, buyruqbozlik, tergov guruhi, qo'shib yozish, jinoiy javobgarlik, davlat mulkini suiste'mol qilish, kommunistik mafkura andozalari, vakolat, imtiyoz, sanoat korxonolari, qurilish tashkilotlari, tartib, intizom, nuqson, kamchilik, birinchi kotib.

НЕКОТОРЫЕ РАССУЖДЕНИЯ О ЗАРОЖДЕНИИ И ОСУЩЕСТВЛЕНИИ РЕПРЕССИЙ “ХЛОПКОВОГО ДЕЛА”

Аннотация

Руководство советского государства, основанное на административно-командной системе, на протяжении всех лет своего правления держало интеллигенцию и государственных деятелей под преследованием, при необходимости осуществлялась репрессивная политика. В результате советское государство с момента своего основания и до ее распада сохраняло репрессивный аппарат. В статье на основе первоисточников анализируются причины репрессии по так называемому «хлопковому делу» в Узбекистане, а также причины приписки, двойная бухгалтерия, вопросы решения хозяйственных проблем.

Ключевые слова: Система, идеология, репрессии, преследования, командование, следственная группа, переписывание, уголовная ответственность, злоупотребление государственным имуществом, образцы коммунистической идеологии, власть, привилегия, промышленные предприятия, строительные организации, порядок, дисциплина, дефект, недостаток, первый секретарь.

SOME DISCUSSIONS ABOUT THE ORIGIN AND IMPLEMENTATION OF REPRESSIONS OF THE “COTTON WORK”

Annotation

The leadership of the Soviet state, based on the administrative-command system, kept the intelligentsia and government officials under persecution throughout all the years of its reign, and, if necessary, carried out repressive policies. As a result, the Soviet state maintained a repressive apparatus from the moment of its founding until its collapse. The article, based on primary sources, analyzes the reasons for repression in the so-called “cotton business” in Uzbekistan, as well as the reasons for registration, double-entry bookkeeping, and issues of solving economic problems.

Key words: System, ideology, repression, persecution, command, investigation team, rewriting, criminal liability, abuse of state property, examples of communist ideology, power, privilege, industrial enterprises, construction organizations, order, discipline, defect, disadvantage, first secretary.

Sovet davlati hukmron bo'lgan ma'muriy-buyruqbozlik hamda kommunistik mafkuraga asoslangan yakka partiya hukmronligi sovet davlati o'z ichki siyosiy mavqeyini mustahkamlash maqsadida ma'lum davrlarda zo'ravonlik siyosatini amalga oshirib turdi. Umumdemokratik tamoyillar va inson haq-huquqlari, milliy his-tuyg'ularni poymol etish, kichik xalqlarga nisbatan bepisand va shovinistik munosabatda bo'lish, har qanday hurfikrlilik va millatparvarlikni qat'iy qoralash ushbu siyosatning asosini tashkil etdi. Tarkibida 15 ta “ittifoqdosh” respublika bo'lgan, jami 270 milliondan ortiq aholi istiqomat qilgan bu ulkan mamlakatda davlat boshqaruvidagi ma'muriy-buyruqbozlik usullari mustahkamlanib, har bir masalani byurokratik usul bilan hal etish ko'lami keng tarqalgan edi. Xolbuki, faqat kadrlarning mafkuraviy-siyosiy saviyasini oshirish hech narsani hal etmasada, bir-birini takrorlaydigan turli xildagi ma'muriy muassasa va tashkilotlarning ko'pligi, mazkur idoralarda partiya va sovet organlari uchun maxsus

tayyorlangan rahbarlarning ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni yechishda markaz ko'rsatmalaridan nariga o'ta olmasligi, ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo'jaligiga o'zgarish va yangiliklar olib kirish kabi masalalarni tez va odilona hal qilishga imkon bermas edi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1965 yilda butun mamlakatda vazirlik va ularga tenglashtirilgan muassasalarning soni 29 ta bo'lgan bo'lsa, 1980 yillar o'rtalariga kelib bu ko'rsatkich 160 tani tashkil etgan. Ma'muriy boshqaruv sohasida band bo'lganlarning soni esa 18 mln. kishiga yetgan. Shulardan 1,6 mln kishi vazirliklarning yuqori va o'rta bo'g'inlarida, 11,5 mln kishi tashkilotlar boshqaruvida, 3,5 mln kishi texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlardan tashkil topgan. Bunday katta boshqaruv apparati uchun har yili mamlakatda 40 mlrd rubl yoki davlat budjetining 10 foizi sarflangan[1]. Sovet ma'muriy buyruqbozlik apparatining asosiy negizini ham shular tashkil etgan.

Ayni paytda rejali tizim besh yillikdan besh yilliklar sari iqtisodiyotning inqirozlarisiz barqaror o'sishini, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni ta'minlab turdi. Iqtisodiyotni ekstensivdan intensiv rivojlanish yo'li sari rivojlanirish asosiy maqsad sifatida e'lon qilindi. KPSSning XXIV syezdi "Ilmiy-texnika inqiloblari yutuqlarini xo'jalik yuritishning sotsialistik tizimi bilan uzviy ravishda birlashtirish" vazifasini qo'ydi[2]. Biroq, XX asrning 70 yillarining ikkinchi yarmiga kelib iqtisodiyot o'zining erkin ishchi kuchi resurslarini tugata boshladi, mehnatga layoqatli aholining o'sishi 2 foizdan 0,25 foizga tushib qoldi. Yangi ishlab chiqarish obyektlarining kapital xarajati o'sdi, tugallanmagan qurilishlar hissasi ko'paydi. Islohotlar va xo'jalik mexanizmining markazlashgan-taqsimlovchilik jihatlarini qayta tiklashning o'zaro bir-biriga chirmashib ketishi, qurollanish narxining tezlik bilan o'sib borishi sharoitida harbiy-safarbarlik ustuvor bo'lgan iqtisodiy siyosatni yuritish iqtisodiyotdagi ziddiyatlarni nihoyatda kuchaytirdi[3]. Mehnatga haq to'lash tizimining eskirishi uning unumdorlik, mahsulot sifatini oshirish va resurslarni tejash kabilarni rag'batlantirish, ta'sirini pasaytirib yubordi. Boshqaruvda ma'muriy-buyruqbozlik usullariga barham berilmadi.

Mamlakatda boshqaruvning markazlashganligi va davlat nazorati tizimining bo'shshishi oqibatida "yashirin iqtisodiyot" o'sib bordi. Mahkamachilik to'siqlari va "yashirin iqtisodiyot" sanoatga, qishloq xo'jaligiga va savdogaga kirib keldi va "yashirin iqtisodiyot" usullaridan foydalanmasdan ishlash deyarli imkonsiz bo'lib qoldi[4]. Natijada ba'zi vazirlik va muassasalarda iqtisodiy ko'rsatkichlarni oshirib ko'rsatish va qo'shib yozishlar avj oldi[5].

Bu davrda o'sishga doir raqamlar ijobiy natijalarni ko'rsatgan bo'lsa-da, nafaqadorlarning daromadi hattoki, yashash minimumini ham ta'minlamay qo'ydi. Real ish haqi pasayib borishi odatga aylandi. Inflyatsiya kuchaydi. Zargarlik buyumlari, xrustall idishlar, gilamlar, mebel, tikuvchilik tovarlari, mo'yna terisi, jun gazlamalar, benzin, bosma nashrlar, qurilish materiallari, qandolat mahsulotlari, sitrus mevalar, shuningdek, maishiy va boshqa xizmat ko'rsatish narxleri bir necha marta o'sdi[6]. Go'sht-sut mahsulotlari, non narxi ham yildan yilga o'sib bordi. Natijada, 70 yillar ning o'rtalaridan boshlab tovarlar taqchilligi boshlandi. Ishchilar ish haqini to'lashda oxirgi ishlab chiqilgan mahsulotlar hajmi yoki tannarxini hisobga olmasdan baravarlashtirish asosida yondashish boqimandalik kayfiyatlarining paydo bo'lishiga olib keldi.

Manbalar sharhi. XX asr 80 yillar i O'zbekistonda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va ularning ziddiyatli jihatlari sovet, mustaqillik va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan ilmiy adabiyotlar tahlili asosida sovet xalq xo'jaligidagi qo'shib yozish holatlari, "paxta ishi" qatag'onlarining kelib chiqish sabablari tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Manbashunoslik va tarixshunoslik sohalariga oid paleografik, matnshunoslik, siyosatshunoslik, sivilizatsion yondashuv, kontent analiz, dialektik, mikrotarix (microhistory), sinergetik, qiyosiy tahlil (comparative analysis), statistik tahlil (statistical analysis), tizimli tahlil, muammoviy-maqsadli yondashuv kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot tahlili va natijalari. 1982 yil noyabrda KPSS MQ Bosh kotibi L.I. Brejnev vafotidan so'ng Bosh kotiblikni egallagan Y.V. Andropov mamlakatda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish siyosatida ta'qib va tazyiqqa asoslangan qattiqqo'llik yo'lining tarafdori bo'lib maydonga chiqdi. Y.V. Andropov o'zining Davlat Xavfsizlik Qo'mitasidagi uzoq yillik tajribasidan kelib chiqqan holda, mamlakatning tobora og'irlashayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotiga doir bo'lgan barcha ma'lumotlardan, jumladan rahbar-kadrlar faoliyatidagi nuqson va kamchiliklardan xabardor edi[7]. Ta'kidlash joizki,

markazdagi siyosiy rahbariyat mamlakatda yuzaga kelgan chuqur inqiroziy holatlarning sabablari yechimini aksariyat kadrlar siyosatida yo'l qo'yilgan kamchiliklar, tartib-intizomning bo'shshishi, mafkuraviy hushyorlikni yo'qotish bilan izohladi.

KPSS MQning 1983 yil iyun plenumi ham aynan partiya ideologiya, ommaviy siyosiy ishlarga bag'ishlandi. Plenumning birinchi ish kunida KPSS MQ ideologiya kotibi K.U. Chernenko ma'ruza qildi. U jamiyatdagi poraxo'rlik illatlarining asosiy sabablarini "biron-bir xodimning xatolaridan, rivojlanishning aniq muammolaridan va qiyinchiliklaridan" qidirish lozimligini ta'kidladi[8]. Bunday holatlarning oldini olish uchun doimiy tashviqot bilan birga iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy tartibdagi chora-tadbirlarni belgilash lozimligini ta'kidladi. Plenumning ikkinchi kuni ma'ruza qilgan, KPSS MQ Bosh kotibi Y.V. Andropov "ideologiya fronti"dagi asosiy vazifalarni belgilab berdi[9]. Markaz mas'ul xodimining mamlakatdagi yetilib kelgan tanazzulni xodimlarning shaxsiy xato va kamchiliklaridan qidirish zarurligi to'g'risidagi ma'ruzasi "kadrlar inqilobi"[10]ni boshlanishiga turki bo'ldi va mamlakatda rahbar kadrlarning siyosiy bilimlarini oshirish masalasi qo'yildi[11].

1983 yil O'zbekiston SSR Davlat Xavfsizlik Qo'mitasi pora olish vaqtida jinoyat ustida qo'lga tushgan Buxoro viloyati ijroiya qo'mitasi OBXSS boshlig'i A. Muzaffarov ustidan jinoyat ishi qo'zg'aldi. O'zbekistonda boshlangan bu jinoyat tergov ishi 1983 yil sentabrda mamlakatda kadrlarga boshlanadigan ta'qibdan kelib chiqib, SSSR Prokuraturasiga oshirildi. Shu yili SSSR Bosh Prokurori A.M. Rekunkov topshirig'iga ko'ra, SSSR Prokuraturasining alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchisi T. Gdlyan boshchiligida mamlakatning turli mintaqalaridan to'plangan 200 kishidan iborat tergov guruhi tuziladi va O'zbekistonga yuboriladi[12]. Bu "paxta ishi"ning amaldagi boshlanishi edi.

Guruhga kirgan tergovchilarning asosiy qismi katta bilim va tajribaga ega bo'lmagan, noqonuniy holatlardan ko'z yumadigan, topshiriqlarni ko'r-ko'rona tarzda bajaradigan kishilar bo'lgan. Tergov guruhiga katta vakolat va imtiyozlar berilgan. Guruh respublikada ish boshlagan birinchi kunlardanoq "O'zbekistonda hamma pora oladi va pora beradi"[13] degan soxta tamoyilga tayangan holda qonunsizlik yo'lga o'tib, tergov jarayonlarida tuxmat, ig'volar uyushtirish, faktlarni soxtalashtirish, kishilarni soxta ma'lumot berishga majbur etish, o'zlariga yoqmagani kishilardan o'ch olish vositasi sifatida foydalanganlar. Guruhning dastlabki ishi bo'lgan Buxoro viloyatidagi tekshiruv ishida A. Do'stovni "militsiya polkovnigi", Sh.A. Raximov, A. Muzaffarov, V.V. Mulinni "militsiya podpolkovnigi", T.R. Ochilovni "militsiya mayori" unvonlaridan mahrum qilinadi[14].

O'zbekistonga tartib, intizom o'rnatish uchun kelgan tergov guruhi mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olmay, bepisanda tarzda ish olib borib, o'zbek xalqining milliy manfaatlari, madaniyati, qadr-qimmatini poymol etdi. O'zbekiston Kompartiyasi MQ, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti, O'zbekiston SSR Oliy Soveti, O'zbekiston SSR Prokuraturasi, O'zbekiston SSR Ichki Ishlar Ministrligi kabi muhim boshqaruv bo'g'inlari shunday kadrlar qo'l ostiga tushib qoldi. Ular respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning yanada keskinlashishining asosiy sababchilariga aylana bordilar. Natijada "O'zbekiston – tergov usullari tajribasi o'tkaziladigan maydonga" aylanib qoldi[15].

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, partiya tashkilotlari siyosiy-tarbiyaviy ishlardan tashqari xalq xo'jaligiga ham aralashdi. Bu holat buyruqbozlikning kuchayishiga, xalq xo'jaligida yetilib qolgan muammolarni mustaqil tarzda ijodiy ravishda hal etish imkonini bermas edi. Shu sababli xo'jalik rahbarlari yuqoridan beriladigan topshiriqlarni ko'r-ko'rona bajaruvchiga, ijrochilarga aylanib qola boshladilar. Xo'jalik

rahbarlari hatto g'oz'a (paxta)ni chopiq qilish, sug'orish, terish kabi oddiy ishlarda ham yuqori partiya tashkilotlaridan topshiriq olmasdan turib ishni boshlay olmas edilar.

Aslida mamlakatda yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozlarning asosiy sabablaridan yana biri bu xalq xo'jaligida qo'shib yozish holatlariga bo'ldi. SSSR FA olimlari o'tkazgan hisob-kitoblarga ko'ra, qo'shib yozishlar butun mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotning 3 foiziga teng bo'lgan. Xomashyo yetkazish sohalarida esa, qo'shib yozishlar 5 foizdan 25 foizgacha bo'lgan[16]. Mamlakat iqtisodiyotidagi holatlar boshqa ittifoqdosh respublikalarda ham ko'zga tashlanadi. Masalan, 1977 yilda Belorussiya SSRda qo'shib yozishga yo'l qo'yilganligi uchun 1075 kishi jinoiy javobgarlikka tortilgan. Tojikiston SSRning Leninobod viloyatidagi qurilish tashkilotlarida 1983-1984 yillarda 700 ming rubllik qo'shib yozishga yo'l qo'yilganligi aniqlangan. Ozarbayjon SSRda esa 1983 yilning o'zida 667 sanoat korxonasi va qurilish tashkilotlarida qo'shib yozishga yo'l qo'yilgan. Moldaviyada esa qo'shib yozishlar nihoyatda avj olgan bo'lsa-da, kishilar tobora ko'proq mansab kursilarini egallab borganlar[17].

Mahalliy partiya tashkilotlari rahbarlari vaziyatni yaxshi bilsalar-da, xo'jalik boshliqlaridan yillik rejani nima qilib bo'lsa ham to'liq bajarishni qat'iy talab qilganlar. Ko'p hollarda ular topshirilmagan paxta uchun zavodlarga pul to'lab, kvitansiya olib kelishni so'raganlar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi arxividagi ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, Qashqadaryo viloyati "Kommunizm" nomli kolxoz raisi Eshmatov paxta zavodiga pul topshirib, kvitansiya olishga qarshi chiqqan. Viloyat partiya qo'mitasining ikkinchi kotibi Golovachev esa uni viloyat partiya qo'mitasi byurosiga chaqirib, qattiq hayfsan e'lon qiladi. Jumladan, unga agarda u paxta sotib olmasa, ishdan haydalanib, javobgarlikka tortilishini tahdid qilgan. Shundan keyin Eshmatov kolxoz kassasidan pul olib, paxta zavodi xodimlariga topshirgan va 1283 tonna paxta topshirildi, deb tovarsiz kvitansiya yozdirib olgan[18]. O'sha davrda bunday holatlar aksariyat kolxoz - sovxozlarda odat tusiga kira boshlagan edi.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistondagi ta'qib va tazyiqqa asoslangan siyosatning o'zi ikki davrda bordi. Birinchi davr, "paxta ishi" uydirmalaridan boshlangan vaqtida xalq xo'jaligida "jinoiy ishlarga qo'l urgan" xodimlar javobgarlikka tortilib, ular xalq xo'jaligida "qo'shib yozishlarga" yo'l qo'yilganlikda ayblandilar. Qo'shib yozishlarni tekshirishdan boshlangan tergov guruhining faoliyati asta-sekinlik bilan rahbarlik lavozimida ishlayotgan kishilarni ham torta boshladi. "Paxta ishi", "o'zbeklar ishi" nomini olib kelgan qatag'onga keyinroq milliy tus berilib,

to'liq "o'zbeklar ishi"ga aylantirildi, natijada mahalliy rahbar hodimlar, ziyolilar ham ta'qib ostiga olina boshlandi. O'zbekistondagi bu holatlar haqida markaziy matbuot sahifalarida shunchalik ko'p maqolalar chop etildiki, ulardan odamlarda go'yo, o'zbeklar turli nopok yo'llar bilan daromad o'ttirib, yengil-yelpi hayot kechiradi, degan noto'g'ri tasavvur tug'ilishiga sabab bo'ldi[19].

Ikkinchi davriga kelib, "paxta ishi" uydirmalarini tekshirishni boshlagan guruh to'g'risidagi shov-shuv kuchayib ketdi va mahalliy aholining noroziligini sindirish uchun mahalliy kadrlarga, ziyolilarga qarshi bo'lgan harakatlar bir-biri bilan uyg'unlashib ketdi. Ta'qib, tazyiq qilishlar, jinoiy javobgarlikka tortish hollari, e'tiqodi kommunistik mafkura andozalariga sig'may qolgan shaxslarni ruhiy kasallar shifoxonasiga berkitib qo'yish kabi jinoyatkorona ishlar SSSR barbod bo'lgunga qadar muntazam davom etdi.

Xulosa. "Paxta ishi" va "o'zbeklar ishi"ni butun bir o'zbek millatiga nisbatan qo'llanilishi, o'zbek xalqini butun ittifoq bo'ylab "salbiy obraz" timsoli sifatida targ'ib etilishi nafaqat ijtimoiy yoki huquqiy adolatsizlik, balki butun bir millatga nisbatan tuxmat edi. Chunki, bu davrda butun dunyoga ittifoqdagi sotsializm tuzumining ustunligini namoyish etish maqsadida SSSR xalq xo'jaligining barcha sohalarida qo'shib yozishlar avj olganligi, bu kabi holatlar barcha ittifoqdosh respublikalar, hattoki Rossiya Respublikasi uchun xos ekanligi hech kimga sir emas edi. Shuning uchun ham bu kabi O'zbekistonga nisbatan o'tkazilgan kompaniyalar o'zbek millatining KPSSga nisbatan, SSSR davlatiga nisbatan salbiy munosabatlarini shakllantirdi. Hech bir aybsiz "yomonotliq" bo'lgan O'zbekiston Respublikasi xalqida milliylik ruhiyati, milliy qadriyatlarga moyillik kayfiyatlarini shakllana boshladi.

"Qayta qurish" islohotlari dastlab siyosiy sohaga tatbiq qilindi. Iqtisodiy soha yana avvalgidek siyosat boshqaruvi ostida qoldi. Iqtisodiyotning rivojlanishi qonuniyatlarini mensimaslik, uni kommunistik mafkuraning o'simtasiga aylantirib qo'yish natijasida xalq xo'jaligi bilan ijtimoiy-siyosiy hayot o'rtasidagi muvozanat buzilib, uning natijasida davlat va mahalliy boshqaruvda katta muammolar paydo bo'ldi. Bu holat xalqning turmush sharoitini yanada og'irlashtirib yubordi. Markaz e'lon qilgan "qayta qurish" islohotlari bir tomondan, iqtisodiy qiyinchiliklarga duchor bo'lgan aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy partiya tashkilotlari ham joylarda islohotlarni chuqurlashtirishni paysalga sola boshladilar. Chunki, joylardagi partiya tashkilotlarining o'zida islohotlarning ijobiy natija berishiga ishonch qolmagan edi.

ADABIYOTLAR

1. История России. XX век. – М.: АСТ, 2000. – С. 580.
2. Материалы XXIV съезда КПСС. – М.: Политиздат, 1971. – С. 34.
3. Осуществление политических и экономических реформ в середине 60-х гг. 20 в. и их результаты // https://studopedia.ru/10_67460_osushchestvlenie-politicheskikh-i-ekonomicheskikh-reform-v-seredine--h-gg--v-i-ih-rezultati.html.
4. Шубин А.В. От "Застоя" к реформам. СССР в 1977-1985 гг. – М.: РОССПЭН, 2000. – С. 138.
5. Киран Р., Кенни Т. Продавшие социализм: Теневая экономика СССР. – М.: Алгоритм, 2010. – С. 54.
6. Народное хозяйство СССР в 1980 г.: Стат. ежегодник. – С. 382.
7. Балакин Ю.В., Петров А.И., Сорокин Ю.А. Очерки по отечественной истории. – Омск: Омский гос. ун-т, 1999. – С. 358.
8. КПСС Марказий Комитети котиби ўрток К.У.Черненконинг КПСС Марказий Комитети пленумида сўзлаган нутки // Совет Ўзбекистони. 1983, 15 июнь.
9. КПСС Марказий Комитети Бош котиби ўрток Ю.В. Андроповнинг КПСС Марказий Комитети пленумида 1983 йил 15 июнда сўзлаган нутки // Совет Ўзбекистони. 1983, 16 июнь.
10. Ратковский И.С., Ходяков М.В. История Советской России. – СПб.: Лань, 2001. – С. 337.
11. Ситников В. В центре внимания – усиление требовательности к кадрам // Партийная жизнь. – М., 1984. – № 8. – С. 47.4567865к
12. Лиханов Д. Кома // Огонёк. – М., 1989. – № 4. – С. 20-21.
13. Шубин А.В. От "застоя" к реформам. СССР в 1917 – 1985 гг... – С. 271.

14. Ўз МА, Р-2454, рўйхат-б, иш-6480, 268-варақ.
15. Халқ ҳақиқатни билмоғи зарур. СССР Т.Гдлян бошлмқ тергов группаси фаолияти билан боғлиқ материалларни текшириш юзасидан СССР Халқ депутатлари съезди комиссияси аъзолари “Қишлоқ ҳақиқати” мухбири саволларига жавоб беради // Тошкент ҳақиқати. 1990 йил, 3 февраль.
16. Немелов Н., Попов В. На переломе: экономической перестройки в СССР. – М.: Изд. АПН, 1998. – С. 44.
17. На пороге кризиса: нарастание застойных явлений в партии о обществе. – М.: Изд. Полит. лит., 1990. – С. 118.
18. Ўзбекистон Республикаси Олий Суди жорий архиви. «Пахта иши» бўйича маълумотнома. 2-том. 15-варақ.
19. Шукрулло. Олийжаноблик // Совет Ўзбекистони. 1989 йил, 5 апрель.